

**SH.Z.UMAROVA, Z.SH.XIDOYATOVA,
M.T.AZIMOVA**

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH

I QISM



**"IBN-SINO"
Toshkent 2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**SH.Z.UMAROVA, Z.SH.XIDOYATOVA,
M.T.AZIMOVA**

FARMATSEVTIKA ISHINI TASHKIL QILISH

*o'quv qo'llanma
I qism*

5510500 – Farmatsiya (turlari bo'yicha)
5111000 – Kasb ta'limi (farmatsevtika ishi)
ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun

TOSHKENT – 2023
«IBN-SINO»

615
U47

UO'K 615.014(075.8)
K BK 52.81yu73
U 47

Sh.Z.Umarova, Z.Sh.Xidoyatova, M.T.Azimova, Farmatsevtika ishini tashkil qilish I qism [Matn]: o'quv qo'llanma /—Toshkent : Toshkent farmatsevtika institutining Ibn Sino Nomli nashriyoti, 2023. —186 b.

Taqrizchilar:


- X.S.Zaynutdinov** — Farmatsevtlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti FITQ va FT kafedrası professori, f.f.d.,
A.A.Ashurov — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash va zirligi huzuridagi farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti direktori, f.f.n.

Ushbu qo'llanmada O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika bozori va uni tartibga solish bo'yicha xalqaro amaliy tajriba, O'zbekiston Respublikasi dori vositalari bilan ta'minlash tizimi va farmatsevtika bozori, dori vositalari muomalasi doirasida davlat tartibi, farmatsevtika faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari, dorixona tashkilotlarida chakana savdoni tashkil qilish, dorixona tashkilotlari ishini tashkil qilish, dorixonalarda retseptlarni qabul qilish va ular asosida dori vositalarini berish, dori vositalarining retseptsiz savdosini tashkil qilish, dorixona sharoitida dori vositalarini tayyorlash va sifatini nazorat qilish ishlarini tashkillashtirish, dorixonada zaxiralar bo'limi ishini tashkil qilish, laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish ishlari haqida bayon qilingan.

Farmatsevtika instituti talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

ISBN 9789943939899

- © Sh.Z.Umarova,
Z.Sh.Xidoyatova,
M.T.Azimova, 2023.
© Toshkent farmatsevtika
institutining Ibn Sino
nomli nashriyoti.2023.



MUNDARIJA

SO'Z BOSH.....	6
I BOB. Farmatsevtika bozori va uni tartibga solish bo'yicha xalqaro amaliy tajriba.....	7
1.1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT).....	7
1.2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi.....	9
1.3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) missiyasi.....	11
1.4. Asosiy faoliyat yo'nalishlari.....	12
1.5. O'zbekiston BMTning inson huquqlari bo'yicha Kengashiga saylanishi haqida.....	14
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	15
Mustaqil bajarish uchun vazifalar.....	16
Testlar.....	17
II BOB. O'zbekiston Respublikasining dori vositalari bilan ta'minlash tizimi va farmatsevtika bozori. Dori vositalari muomalasi doirasida davlat tartibi.....	23
2.1. «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi Qonunning yillar bo'yicha solishtirma tahlili.....	24
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	63
Mustaqil bajarish uchun vazifalar.....	63
Testlar.....	64
III BOB. Farmatsevtika faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari.....	69
3.1. Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibi.....	70
3.2. Litsenziyalarning turlari.....	73
3.3. Litsenziyaning amal qilishi.....	74
3.4. Litsenziyaning amal qilish muddati.....	74
3.5. Litsenziya talablari va shartlari.....	75
3.6. Litsenziya olish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar.....	76
3.7. Litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im.....	77
3.8. Litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilish.....	77
3.9. Litsenziya berishni rad etish.....	78
3.10. Litsenziyalarni rasmiylashtirish.....	79
3.11. Litsenziya shartnomasi.....	79

3.12. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish.....	80
3.13. Dorixona filialini ochish tartibi.....	81
3.14. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikat berish.....	82
3.15. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish....	84
3.16. Litsenziyaning amal qilish muddatini to'xtatib turish.....	85
3.17. Litsenziyaning amal qilish muddatini tugatish.....	86
3.18. Litsenziyani bekor qilish.....	87
3.19. Litsenziyalarning reyestrlari.....	88
3.20. Litsenziya berganlik uchun davlat boji.....	89
3.21. Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.....	89
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	90
Mustaqil bajarish uchun vazifalar.....	91
Testlar.....	94
IV BOB. Dorixona tashkilotlarida chakana savdoni tashkil qilish.....	100
4.1. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi	101
4.2. Asosiy tushunchalar.....	101
4.3. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni tashkil etish tartibi va shartlari.....	103
4.4. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish sharoitlari bilan ta'minlash.....	105
4.5. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi	106
4.6. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun moddiy-texnik bazaga, binoga (xonaga) qo'yiladigan talablar.....	111
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	117
Mustaqil bajarish uchun vazifalar.....	118
Testlar.....	119
V BOB. Dorixonada retseptlarni qabul qilish va ular asosida dori vositalarini berish. Retseptlarni taksirovka va ekspertiza qilish.....	124
5.1. Retsept asosida dori vositalarini berish tartibi.....	124
5.2. Elektron retsept.....	127
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	127
Mustaqil bajarish uchun vazifalar.....	128
Testlar.....	137

VI BOB. Dorixona sharoitida dori vositalarini tayyorlash. Dori sharoitida tayyorlangan dori vositalarining sifatini nazorat qilish ishlarini tashkil etish.....	149
6.1. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, saqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni rasmiylashtirish tartibi.....	150
6.2. Aseptik (steril) sharoitlarda dori vositalarini tayyorlash.....	151
6.3. Tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini nazorat qilish.....	152
6.4. Steril eritmalar sifatini nazorat qilishga doir talablar.....	153
6.5. Tayyorlangan dori vositalarini tarqatishdan oldingi nazorati.....	155
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	155
Mustaqil bajarish uchun vazifalar.....	155
Testlar.....	156
VII BOB. Retseptsiz savdoni tashkil qilish.....	163
7.1. Retseptsiz beriladigan dori vositalari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumotlar.....	163
7.2. OTC vositalarga qo'yiladigan talablar.....	164
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	166
Mustaqil bajarish uchun vazifalar.....	166
Testlar.....	167
VIII BOB. Dorixonada zaxiralar bo'limi ishini tashkil qilish. Laboratoriya qadoqlash ishlarini hisobga olish.....	170
8.1. Dorixonaning zaxiralar bo'limi ishini tashkil qilish.....	170
8.2. Dorixonada tovarlarni qabul qilish qoidalari va ularni boshqa bo'limlarga berish tartibi.....	173
8.3. Laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish.....	173
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.....	173
Mustaqil bajarish uchun vazifalar.....	174
Testlar.....	175
Qisqartmalar ro'yxati.....	179
Glossariy.....	180
Foydalanilgan adabiyotlar.....	181

SO‘Z BOSHI

Aholi va sog‘liqni saqlash muassasalarini arzon dori vositalari, tibbiy buyumlar bilan ta‘minlashni yaxshilashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi vaqtlarda aholini va sog‘liqni saqlash muassasalarini arzon dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika bilan ta‘minlashni yaxshilashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Farmatsevtika faoliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, aholi va sog‘liqni saqlash muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika bilan ta‘minlanganlik darajasini yanada oshirish, ularning ishlab chiqarilishi, olib kirilishi va sotilishini muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari tasdiqlandi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma farmatsevtika institutlarining farmatsiya fakultetlarida tahsil olayotgan talabalarning Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg‘ulotlarini olib borish uchun yozilgan va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi o‘quv rejasiga va ayni fan dasturiga to‘liq javob beradi. Unda farmatsevtika bozori va uni tartibga solish bo‘yicha xalqaro amaliy tajriba, farmatsevtika faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari, dorixonada tashkilotlarida chakana savdoni tashkil qilish, dorixonada retsept qabul qilish va retsept asosida dori vositalarini berish, dorixonada dori vositalarini tayyorlash, tayyorlangan dori vositalarining sifatini nazorat qilish, retseptsiz savdoni tashkil qilish, dorixonaning zaxiralar bo‘limi ishini tashkil qilish bo‘yicha ma‘lumotlar mavzularga tegishli mustaqil bajarish uchun vazifalar hamda nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun har bir mavzulari bo‘yicha test savollari keltirilgan.

O‘quv qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining farmatsevtika sohasidagi buyruqlari va boshqa me‘yoriy hujjatlar yuqorida keltirilgan mavzular bo‘yicha keng va batafsil yoritib berilgan.

I BOB

FARMATSEVTIKA BOZORI VA UNI TARTIBGA SOLISH BO'YICHA XALQARO AMALIY TAJRIBA

- 1.1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti
 - 1.2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi
 - 1.3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. JSST missiyasi
 - 1.4. Asosiy faoliyat yo'nalishlari
 - 1.5. O'zbekiston BMTning inson huquqlari bo'yicha Kengashiga saylanishi haqida
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar
Mustaqil bajarish uchun vazifalar
Testlar
-

Mavzuning maqsadi: dori vositalari ta'minotini tashkil etishda xalqaro tajriba. Jahon farmatsevtika sohasi va jahon farmatsevtika bozorining o'ziga xos xususiyatlari va asosiy rivojlanish yo'nalishlari. Farmatsevtika bozorini tartibga solishning qoidalari va asosiy yo'nalishlari, tartibga soluvchi talablarni moslashtirish jarayonlari, Farmatsevtika bozori va uni tartibga solish bo'yicha xalqaro amaliy tajriba haqida talabalarga ma'lumotlar berish.

1.1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)

Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. 1945-yilda tuzilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror AQSh, Angliya va Xitoy tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943-yilda, nizomi esa San-Fransisko konferensiyasida 1945-yilda qabul qilindi. BMT nizomiga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000-yilda esa ular

soni 189 ga yetdi. BMTning doimiy ish o'rne (shtab kvartirasi) – Nyu York. BMT nizomida ko'rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqli bo'lishi va o'z taqdirini o'zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini uyg'unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi.

2000-yil 6–8-sentabrda BMTning 55-sessiyasi doirasida “Mingyillik sammiti” bo'lib o'tdi. Unda 155 dan ortiq mamlakatning davlat va hukumat boshliqlari ishtirok etdi. Mazkur anjumanda umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ekologiya va xavfsizlikka doir muammolar muhokama qilinib, yangi yuz yillikning dastlabki yillarida amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan tadbirlar belgilandi. Kotibiyat quyidagi departamentlar va boshqarmalarga bo'linadi: Siyosiy masalalar va Xavfsizlik Kengashi ishlari departamenti, Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti, Vasiylik va o'z-o'zini boshqarmaydigan hududlar departamenti, Nazorat boshqarmasi, Xodimlar boshqarmasi, Bosh kotibning ma'muriy idorasi, Ijtimoiy axborot boshqarmasi, Konferensiyalarga xizmat qilish boshqarmasi, Umumiy xizmat boshqarmasi, BMTning Jeneva bo'limi. BMT sessiyasi yilda bir marta chaqiriladi. Xavfsizlik Kengashining yoki BMT a'zolari ko'pchiligining talabi bilan har qanday masala yuzasidan maxsus sessiyalar chaqirilishi mumkin. BMTning rasmiy tillari: ingliz, fransuz, rus, ispan va xitoy tillari bo'lib, ingliz, fransuz, ispan tillarida ish yuritiladi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilganidan keyin ko'p o'tmay, 1992-yil 2-martda BMTga a'zo bo'ldi. Shu kuni BMT Bosh Assambleyasi binosi oldida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ko'tarildi. BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi (1993.24.08). BMTda O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladi. O'zbekiston Respublikasi BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti – YUNESKOga ham a'zo bo'ldi.

1.2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya. U muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, uni qabul qilishdan maqsad har bir inson va davlat mazkur Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim orqali shu huquq va erkinliklar hurmat qilinishiga ko'maklashishi lozim. Deklaratsiya har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq hamda erkinliklari e'lon etilgan asosiy xalqaro hujjatdir. Shu tariqa xalqaro munosabatlar tarixida birinchi marta insonning hamma rioya etishi zarur bo'lgan asosiy huquqlari va erkinliklari doirasi belgilab berilgan. Deklaratsiyada "insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmatni, ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olish – erkinlik, adolat va yalpi tinchlik negizi" ekanligi e'lon etilgan. Unga ko'ra, umum hurmat va rioya qilishi shart bo'lgan inson huquqlari doirasi shaxsiy, siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy huquqlardan iboratdir.

Shaxsiy huquqlar orasida avvalo har bir kishining hayoti, erkinligi va shaxsiy daxlsizligi huquqi alohida ta'kidlangan. Deklaratsiyaning boshqa qoidalari esa mazkur huquqlarni to'ldiradi. Xususan, hech kim qullikda, zabun holatda tutilmasligi, qiynoqqa yoxud ayovsiz, g'ayriinsoniy, odam sha'nini yerga uradigan muomala va jazoga duchor etilmasligi; o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinmasligi, ushlab turilmasligi lozim ekanligi qayd etilgan. Shaxs huquqlari sirasiga shaxsiy va oilaviy hayotning, turar joyning daxlsizligi huquqi, yozishmalarni sir saqlash huquqi, o'z sha'ni va obro'sini himoya qilish huquqi, odil sudlov tomonidan muhofaza etilish huquqi kabilar kiradi (3–5,8–12-moddalar).

Deklaratsiyada insonning quyidagi siyosiy huquqlari hamda erkinliklari ham ta'kidlangan: fikrlash, vijdon, din erkinligi; e'tiqod erkinligi va uni erkin ifodalash huquqi; tinch yig'ilishlar o'tkazish hamda uyushmalarga a'zo bo'lish huquqi; o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqi; yashirin ovoz berish yo'li bilan umumiy va teng saylash huquqi; erkin ravishda ko'-

chib yurish hamda o'ziga turar joy tanlash huquqi; boshpana huquqi; milliy yoki diniy alomat bo'yicha hech bir cheklovsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqi; mulkka egalik qilish huquqi (13–21-moddalar).

Mehnat qilish huquqi, adolatli va yetarli ravishda taqdirlanish hamda mehnat uchun teng mehnat haqi olish huquqi, kasaba uyushmalari tuzish huquqi; dam olish huquqi; ijtimoiy ta'minlanish huquqi; onalik va bolalikni alohida himoyalash huquqi; ta'lim olish va madaniy hayotda qatnashish huquqi (22–27-moddalar) insonning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari hisoblanadi.

Deklaratsiyada inson manfaatlarining ustuvorligi quyidagi tamoyillarda o'z aksini topgan: inson huquqlarini hurmat qilish, inson huquqlarining tengligi, inson erkinliklari, inson huquqlarini amalga oshirishning demokratik jarayoni, inson huquqlarini ta'minlashning adolatligidir. Deklaratsiyada e'lon etilgan mazkur inson huquqlariga oid tamoyillarga ko'ra barcha kishilar erkin tug'iladi va o'z qadr-qimmatini hamda huquqlari jihatdan teng bo'lib, ular qonun oldida teng va qonun tomonidan babbaravar himoyalaniş huquqiga ega (1, 2, 7-moddalar).

Mazkur Deklaratsiya qoidalari davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan inson huquqlarini buzish uchun ishlatilishi mumkin emas. Har bir shaxs uchun o'zgalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish jamiyat a'zolarining burchidir.

Ushbu Deklaratsiya mustaqil O'zbekiston Respublikasi imzolagan birinchi xalqaro hujjatdir (1991-yil 30-sentabr). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb atalgan 2-bo'limi mazkur Deklaratsiya talablariga to'la mos bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari teng huquq va erkinliklarga ega bo'lishi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengligi ta'kidlangan. Respublikada inson huquqlariga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qilingan va ular xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiqlashtirilgan. "Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili to'g'risida" qonun qabul

qilingan (1997-yil 24-aprel). Inson huquqlariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni ta'minlovchi milliy institutlar – Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz va amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti ishlab turibdi. Toshkent shahrida hukumatga qarashli bo'lmagan "Xyuman Rayts Votch Xel-sinki" xalqaro tashkilotining vakili, chet el ommaviy axborot vositalarining vakillari faoliyat ko'rsatmoqda hamda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqin aloqa o'rnatilgan.

1.3. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) missiyasi

JSSTga 1948-yilda asos solingan bo'lib, u Birlashgan Millatlar Tashkilotining sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashgan tarkibiy agentligi hisoblanadi. Tashkilot Shvetsariyaning Jeneva shahrida joylashgan bosh idorasi hamda 6 ta mintaqaviy va 150 ta mamlakatdagi vakolatxonalaridan iborat. JSSTning O'zbekistondagi vakolatxonasi tashkilotning Yevropa mintaqasidagi vakolatxonasiga qarashlidir.

O'zbekiston 1992-yilning 25-may kunida JSSTga qo'shildi. 1993-yildan boshlab JSST Birlashgan Millatlar Tashkilotining tarkibiy qismi sifatida O'zbekistonni sog'liqni saqlash sohasidagi xalqaro va milliy maqsadlariga erishishida, tegishli muammolarni yechishda, xususan, 2000-yilgacha mo'ljallangan "Barcha inson salomatligini ta'minlash" dasturi doirasidagi maqsadlar hamda BMTning ming yillik taraqqiyot maqsadlari va "Salomatlik – 2020" dasturlarining maqsadlariga erishishida yaqindan qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

JSSTning O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorligi hozirgi kunda O'zbekiston tomonidan 2012-yilda imzolangan Yevropaning "Salomatlik – 2020" dasturi va ushbu dastur doirasida 2014–2015-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallanib O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash vazirligi bilan imzolangan ikki tomonlama hamkorlik to'g'risidagi kelishuv asosida amalga oshirilmoqda.

Yevropaning “Salomatlik – 2020” dasturining asosiy maqsadi sogʻliqni saqlash tizimini takomillashtirib, barcha insonlar tegishli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniga ega boʻlishini taʼminlashdan iborat. Mazkur maqsadga quyidagi chora-tadbirlar orqali erishish koʻzda tutilgan. Sogʻliqni saqlash tizimida har bir insonni butun hayoti davomida tibbiy xizmatlar bilan taʼminlash, ularning mazkur tizimdagi huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan mexanizmlarni joriy etish orqali butun tizimni takomillashtirishga yordam berish, mamlakatning sogʻliqni saqlash sohasida mavjud boʻlgan eng murakkab muammolarni yechish, Sogʻliqni saqlash tizimi barcha insonlar manfaatlariga javob berishini taʼminlash va sogʻlom inson va sogʻlom muhitni yaratishga koʻmaklashish. JSST BMTning tarkibiy qismi sifatida Oʻzbekiston Respublikasini 2020-yilgacha boʻlgan davrga moʻljallangan milliy sogʻliqni saqlash dasturini ishlab chiqishda qoʻllab-quvvatlamoda. 2014-yilning noyabr oyida «Salomatlik – 2020» dasturi doirasida tegishli tadqiqotlarni boshlab yuborish maqsadida Toshkent shahrida tashkillashtirilgan tadbir Oʻzbekiston mazkur dasturni amalga oshirishga tayyor ekanligidan dalolat beradi. Mazkur tadbir davomida «Salomatlik – 2020» dasturini amalga oshirishda qoʻlga kiritilgan yutuqlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham yuqori baholandi.

1.4. Asosiy faoliyat yoʻnalishlari

Oʻzining manfaati hamda yangi davr uchun Oʻzbekiston hukumati va BMT tizimi oʻrtasida tuzilgan YUNDAF hamkorlik rivojlanish dasturi doirasida JSST quyidagi yoʻnalishlarga eʼtiborini qaratadi. Yuqumsiz kasalliklarni (diabet, saraton, yurak va oʻpka kasalliklari, tamaki chekish, spirtli ichimliklarni isteʼmol etish, notoʻgʻri ovqatlanish va kam harakatlanish kabi odatlarni) nazorat qilish hamda ularning oldini olish: xususan Oʻzbekistonda ilk bora tabak va spirtli ichimliklarni isteʼmol etuvchi yoshlar sonini aniqlashga qaratilgan xalqaro soʻrovnomalar asosida yuqumsiz kasalliklarni qoʻzgʻatuvchi xavf omillari

to'g'risida har tomonlama ma'lumot beruvchi ma'lumotlar bazasi yaratildi. Mazkur ma'lumotlar bazasi joriy yilning yuqumsiz kasalliklarni davolash va ularning oldini olish bo'yicha milliy dasturni ishlab chiqishda qo'l keladi. Yuqumli kasalliklarga (OITS/OIV, sil va emlash orqali oldi olinadigan kasalliklarga) qarshi kurash: xususan, O'zbekiston Respublikasining reja asosida amalga oshiriladigan emlash dasturining qamrovi kengayib, hozirda deyarli barcha fuqarolar mazkur dastur doirasida rotavirus, pnevmokokk kabi kasalliklarga qarshi emlanmoqda. Silga qarshi kurash bo'yicha davlat dasturi hozirda yanada takomillashtirilib, silning tarqalishi va multirezistent silning oldini olishga erishilmoqda. Insonlarning butun umri davomida salomatligini yaxshilash (ona va bola salomatligi, oziqlanish bilan bog'liq bo'lgan masalalar, reproduktiv salomatlik, sog'liqni saqlash tizimida gender tenglikni o'rnatish, inson huquqlarini himoya qilish, qashshoqlikka qarshi kurash va atrof-muhitni muhofaza qilish): xususan, mamlakatda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning salohiyati va bilimini oshirish, tegishli yo'riqnomalarni ishlab chiqish orqali ona va bola sog'lig'ini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish.

Milliy sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish: xususan, aniq ma'lumotlarga asoslangan milliy dasturlar va rejalarini tuzish borasida yordam berish; 2020-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan milliy sog'liqni saqlash strategiyasi, yuqumsiz kasalliklarga qarshi kurash, ona va bola salomatligini ta'minlash, emlash, aqliy sog'lomlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, OIV/OITS, sil va bezgakka qarshi kurash bo'yicha milliy strategiyalar amalga oshirilmoqda.

Turli epidemiyalarning oldini olish va ularga tayyorgarlik ko'rish tizimini takomillashtirish: mazkur yo'nalishda respublikada xalqaro tibbiy andozalar, jumladan, 2005-yilda ishlab chiqilgan sog'liqni saqlash sohasidagi standartlarga rioya etilishini ta'minlash, laboratoriyalarni jihozlash, mikrobakteriyalar rezistentligiga qarshi kurash hamda mamlakatda poliomieliit kasalligining oldini olish borasidagi tashabbuslar.

1978-yilda birlamchi tibbiy-sanitar yordam ko'rsatish bo'yicha xalqaro konferensiyada "Olmaota deklaratsiyasi" qabul qilindi. "Olmaota deklaratsiyasi"da hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va umuman dunyo hamjamiyatining asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri – 2000-yilgacha dunyodagi barcha xalqlar tomonidan, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan unumli hayot kechirishga imkon beradigan salomatlik darajasiga erishish lozimligi qayd etilgan.

1.5. O'zbekiston BMTning inson huquqlari bo'yicha Kengashiga saylanishi haqida

O'zbekistonni BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashi (IHK) a'zolicini qo'llab-quvvatlab 169 davlat ovoz berdi.

O'zbekistonning BMTdagi doimiy vakolatxonasi (Nyu-York) ma'lum qilishicha, 13-oktyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi doirasida Inson huquqlari bo'yicha Kengashning 2021–2023- yillar uchun 15 ta a'zosining saylovi bo'lib o'tdi.

Mamlakatimiz tarixida birinchi marta O'zbekiston ushbu organga o'z nomzodini ko'rsatdi va saylovda ishtirok etdi.

Ta'kidlash joizki, respublikamizning IHKga nomzodini ko'rsatish Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirish yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturida mustahkamlangan.

BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi inson huquqlari bo'yicha yetakchi va eng obro'li xalqaro tashkilotdir. Uning tarkibiga 47 davlat saylanadi. Kengash butun dunyo bo'ylab inson huquqlari sohasidagi barcha masalalarni va vaziyatlarni muhokama qilish vakolatiga ega. IHK a'zolari to'g'ridan-to'g'ri yashirin ovoz berish orqali Bosh Assambleya delegatlarining ko'pchilik ovozi bilan uch yillik muddatga saylanadi.

Joriy saylov jarayonida BMTning mintaqaviy guruhlariga tomonidan bo'sh o'rinlarga tegishli davlatlarning nomzodlari ko'rsatildi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, agar boshqa mintaqaviy guruhlarda bo'sh o'rinlarga davlatlar o'rtasida raqobatning yo'qligi kuza-tilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kiradigan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi guruhida IHKdagi 4 ta bo'sh o'rin uchun mamlakatimiz bilan birga Xitoy, Nepal, Pokiston va Saudiya Arabistoni da'vogarlik qildi.

Yashirin ovoz berish natijasida va kuchli raqobat davomida O'zbekiston o'z guruhidagi davlatlar orasida eng ko'p ovoz oldi va IHK ga 2021-yil 1-yanvardan boshlanadigan navbatdagi uch yillik muddatga saylandi. Mamlakatimiz bilan bir qatorda Kengashga Xitoy, Nepal va Pokiston ham saylandi.

O'zbekistonning ushbu nufuzli organga saylanishi inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanilayotganining yorqin tasdig'i va e'tirofi bo'ldi. Shuningdek, mamlakatimiz BMT nizomi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining maqsadlari va tamoyillariga qat'iy sodiqligi va bu boradagi xalqaro majburiyatlariga qat'iy rioya qilishining dalilidir.

Inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda demokratiya va inson huquqlarining zamonaviy mezonlariga javob beradigan barqaror siyosiy tizim shakllandi. Milliy qonunchilik va huquqni muhofaza qilish amaliyotida inson huquqlari standartlarining tizimli va izchil amalga oshirilishini ta'minlash uchun noyob model ishlab chiqildi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi nimalardan iborat?
3. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va JSST missiyasi haqida nimalarni bilib oldingiz?

4. Ushbu tashkilotlarning asosiy faoliyat yo'nalishlari qanday?

5. O'zbekiston BMTning inson huquqlari bo'yicha Kengashiga saylanishi haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1-vazifa. Esse" usuli orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlarni ish daftaringizda yoritib bering.

Esse (frans. — urinish, sinash, ocherk) — erkin kompozitsiyali, uncha katta bo'lmagan nasriy asar. Esse usuli orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi. Esselar falsafiy, tarixiy biografik, publitsistik, adabiy-tanqidiy, ilmiy-ommabop yoki sof belletristik xarakterda bo'ladi. Esse uslubi obrazlilik, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoki masalaga oid tugal tafsilotni yoki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo'ladi. O'zbek adabiyotida esse janri XX asrning 70–80-yillaridan yaratila boshlandi.

2-vazifa. Jadvaldagi ma'lumotlarning bir-biriga mosligini toping.

Ishlab chiqilgan sana	Qaror, farmonning nomi va mazmuni
1948-yil 10-dekabr	Davlatlar har bir insonning "Jismoniy va ruhiy sog'liqning erishish mumkin bo'lgan eng katta darajasi" huquqini olishlari zarur
Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 12-moddasi	Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi
1978-yil Olmaota deklaratsiyasi	Tamakiga qarshi kurashish JSST doiraviy konvensiyasi
2003-yil	Hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, dunyo jamiyatining asosiy ijtimoiy vazifalari

3-vazifa. T-sxemasi uslubi yordamida ushbu mavzu bo'yicha tegishli xulosalar chiqaring va ish daftaringizda izohlang.

4-vazifa. JSST tavsiyalarini "Klaster" usulida ish daftaringizda aks ettiring.

5-vazifa. Dori vositalari ta'minotini tashkil etishda xalqaro tajribaga oid ma'lumotlarni "Assesment" usulida ish daftaringizda tasvirlang.

6-vazifa. Jahon farmatsevtika sohasi va jahon farmatsevtika bozorining o'ziga xos xususiyatlari va asosiy rivojlanish yo'nalishlarini «BBB» usulida ish daftaringizda aks ettiring.

Testlar

1. BMT qanday tashkilot hisoblanadi?

A. Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

B. Davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

C. Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

D. Tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?

A. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1946-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya.

B. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya.

C. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1940-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya.

D. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1943-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya.

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi qanday hujjat?

- A. Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i.
- B. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori.
- C. Har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari e'lon etilgan asosiy xalqaro hujjatdir.
- D. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonuni.

4. JSST nima?

- A. Tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasida xalqaro hamkorlikning institutsional va huquqiy mexanizmini tashkil etuvchi sog'liqni saqlash sohasidagi ixtisoslashtirilgan tashkilot.
- B. Sog'liqni saqlash sohasidagi ixtisoslashtirilgan tashkilot, erkin (mustaqil) faoliyat yuritadi.
- C. Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi ixtisoslashtirilgan tashkilot.
- D. Butun dunyoda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha xalqaro tashkilot.

5. 19–22-iyul 1946-yilda Nyu-Yorkda qanday hujjat qabul qilingan?

- A. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
- B. Olmaota deklaratsiyasi.
- C. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.
- D. Sog'liqni saqlash nizomi.

6. JSST qachon tashkil topgan?

- A. 1946-y.
- B. 1945-y.
- C. 1947-y.
- D. 1948-y.

7. JSSTga a'zo davlatlar qanday vazifalarni bajarishlari lozim?

- A. Milliy sog'liqni saqlash tizimi uchun dori-darmonlar ro'yxatini aniqlash.

- B. Milliy dori siyosatini ishlab chiqish.
- C. Aholini yuqori sifatli dori-darmonlar bilan ta'minlash.
- D. Hamma javoblar to'g'ri.

8. "JSST da asosiy dori vositalarining zamonaviy ro'yxati" qanday bo'limlarga bo'lingan?

- A. Samarali va muhim.
- B. Xavfsiz va muhim.
- C. Samarali va xavfsiz.
- D. Asosiy va qo'shimcha.

9. JSST tavsiyalariga muvofiq asosiy dori vositalari o'zida qancha faol moddalarni saqlashi kerak?

- A. 1.
- B. 2.
- C. 3.
- D. Faol modda saqlashi kerak emas.

10. Federal sog'liqni saqlash organlari kimlar tomonidan boshqariladi?

- A. Rossiya Federasiyasi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan.
- B. Sog'liqni saqlash nazorati bo'yicha federal xizmati tomonidan.
- C. Federal jamg'armasi tomonidan.
- D. Asosiy dastur tomonidan.

11. Rossiya sog'liqni saqlash reformalarining boshlanishi:

- A. 2002–2004-yy.
- B. 2006–2008-yy.
- C. 2004–200-yy.
- D. 2005–2006-yy.

12. Rossiya Federasiyasida "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash asoslari tog'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?

- A. 17.01.1998-y.

- B. 28.04.1998-y.
- C. 21.11.2011-y.
- D. 03.10.2015-y.

13. JSST nizamida mustahkamlangan zamonaviy g'oyalar asosida "sog'liq" tushunchasi nimani anglatadi?

- A. Ruhiy farovonlikni.
- B. Jismoniy farovonlikni.
- C. Ijtimoiy farovonlikni.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

14. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida qanday vazifalar belgilangan?

- A. Har bir odam o'zining oilasining sog'lig'i va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan vazifalarni bajarishi kerak.
- B. Ovqatlanish, kiyinish va yashash huquqiga ega ekanligi belgilangan.
- C. Tibbiy va ijtimoiy xizmatlarni olgan hayot darajasida yashash huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

15. JSST nizamiga asosan "sog'liq-salomatlik" tushunchasiga ta'rif bering.

- A. To'liq jismoniy tushuncha.
- B. Ruhiy tushuncha.
- C. Ijtimoiy farovonlik holatlarini belgilaydigan tushuncha.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

16. "Olmaota deklaratsiya" sida qanday asosiy ijtimoiy vazifa belgilangan?

- A. 2000-yilgacha dunyodagi barcha xalqlar tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan unumli hayot kechirishga imkon beradigan salomatlik darajasiga erishish.
- B. Aholiga birlamchi tibbiy sanitar yordam ko'rsatish.
- C. Keng tarqalgan kasalliklarni davolash.
- D. Shoshilinch holatlardagi kasalliklarni davolash.

17. Sog'liqni saqlash sohasidagi xalqaro huquqlar qanday vazifani bajaradi?

- A. Shaxsiy huquqlarni amalga oshirishni mustahkamlaydi.
- B. Inson huquqlari va davlatning majburiyatlarini belgilaydi.
- C. Huquqiy me'yorlarni qabul qiladi.
- D. Aholi sog'lig'ini belgilovchi omillarni ko'rsatib beradi.

18. BMTning asosiy maqsadi nimalardan iborat?

- A. Davlatlar o'rtasidagi bahslarni tinchlik yo'li bilan yechish.
- B. Kollektiv choralarni qabul qilish yo'llari bilan xalqaro tinchlikni ta'minlash.
- C. Kollektiv choralarni qabul qilish yo'llari bilan xalqaro xavfsizlikni ta'minlash.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

19. Yevropa kengashi qanday tashkilot?

- A. Yevropaning 50ga yaqin davlatlarini birlashtiruvchi xalqaro tashkilot.
- B. Markaziy Osiyodagi 20ga yaqin davlatlarni birlashtiruvchi tashkilot.
- C. MDH ni mustahkamlovchi tashkilot.
- D. Xalqaro mintaqaviy hamkorlikka yo'naltirilgan tashkilot.

20. Qaysi tashkilot mutaxassisleri tomonidan asosiy dorilarning birinchi taxminiy ro'yxati tayyorlanadi?

- A. JSSTmutaxassisleri tomonidan.
- B. BMT mutaxassisleri tomonidan.
- C. "Olmaota deklaratsiyasi" ishtirokchilari tomonidan.
- D. Tibbiy mutaxassislar va jamoatchilik tomonidan.

21. JSST asosiy dori vositalarining namunaviy ro'yxati qanday muddatda ko'rib chiqiladi?

- A. Har ikki yilda.
- B. Har besh yilda.
- C. Har o'n yilda.
- D. Har yili.

22. Hozirgi kunda JSSTning asosiy dorilar ro'yxati nechta qismlarga bo'lingan?

- A. Asosiy qismga.
- B. Qo'shimcha qismga.
- C. Birinchi qismga.
- D. Ikki qismga.

23. BMTni OIV/OITS bo'yicha qo'shma dasturi qaysi kasallik bilan kurashishga qaratilgan?

- A. Orttilgan immunovirus kasalligiga qarshi.
- B. Infekcion kasalligiga qarshi.
- C. Bezgak kasalligiga qarshi.
- D. Sil kasalligiga qarshi.

II BOB

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DORI VOSITALARI BILAN TA‘MINLASH TIZIMI VA FARMATSEVTIKA BOZORI. DORI VOSITALARI MUOMALASI DOIRASIDA DAVLAT TARTIBI

2.1. “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi
Qonunning yillar bo‘yicha solishtirma tahlili
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar
Mustaqil bajarish uchun vazifalar
Testlar

Mavzuning maqsadi: so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlashning va farmatsevtika tarmog‘ini boshqarishning yangi tizimini shakllantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakat aholisini sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, sifatli dori vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va O‘zbekiston farmatsevtika bozorining investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi dori vositalari bilan ta‘minlash tizimi va farmatsevtika bozori va dori vositalari muomalasi doirasida davlat tartibi haqida ma‘lumotlar berish.

Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risidagi qonun 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan. Qonunga bir necha marta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan.

Quyida 2016-yilda kiritilgan qo‘shimchalar asosida solishtir-
ma tahlil natijalari aks ettirilgan.

2.1. Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunining yillar bo'yicha solishtirma tahlili

DORI VOSITALARI VA FARMATSEVTIKA FAOLIYATI TO'G'RISIDA 1997-yil 25-aprel qabul qilingan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari

O'zbekiston Respublikasining dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida ushbu Qonundagidan boshqacha qoidalar belgilab qo'yilgan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

2-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi tushunchalar qo'llanilmoqda:

dori vositalari – kelib chiqishi tabiiy va sun'iy bo'lgan bir yoki bir nechta dori moddalari (substansiyalar) hamda yordamchi moddalar asosida hosil qilingan, kasallikning oldini olish, tashxis

DORI VOSITALARI, TIBBIY BUYUMLAR VA FARMATSEVTIKA FAOLIYATI TO'G'RISIDA 2016-yil 4-yanvarda qabul qilingan 399-sonli qonuni tahririda

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining dori

qo'yish va davolash uchun qo'llashga ruxsat etilgan vositalar. Ular jumlasiga immunobiologik, radiofarmatsevtik va parafarmatsevtik preparatlar, gomeopatik, tashxis qo'yish va sterilizatsiya vositalari, shuningdek dori vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun mo'ljallangan dori moddalari (substansiyalar) kiradi;

dori preparatlari – dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llashga tayyor dori vositalari;

dori moddalari (substansiyalari) – kelib chiqishi tabiiy va sun'iy bo'lgan, qo'llashga ruxsat etilgan biologik faol moddalar;

farmakologik vositalar – belgilangan farmakologik faollikka ega bo'lib, klinik sinov obyektlari hisoblanadigan muayyan dorivor shaklidagi moddalar yoki moddalar aralashmasi;

farmakopeya – dori vositalari sifatini, ularni tayyorlash, sifat-miqdor jihatidan nazorat qilishni, saqlash shart-sharoitlarini va nomlanishini belgilaydigan davlat standartlari to'plami;

farmakopeya maqolasi – dori vositasi uchun farmakopeya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan normativ-texnik hujjat;

farmakopeya qo'mitasi – dori vositalari, tibbiy buyumlar sifatiga va ularni nazorat qilish usullariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan normativ-texnik hujjatlarni tasdiqlovchi rasmiy ekspert organi;

vositlari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi – dori vositalarini tibbiy qo'llanish huquqi uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ruxsatini tasdiqlovchi hujjat; dori vositalarining, tibbiy buyumlarning davlat reyestri – rasmii hujjat bo'lib, u tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar ro'yxatidan iborat; generik dori vositalari (generiklar) – patent berilganlaridan qolishmaydigan, lekin boshqa ishlab chiqaruvchi tomonidan tayyorlangan dori preparatlari; gomeopatik vositalar – gomeopatik qoidalarga binoan qo'llaniladigan va davlat reyestrining maxsus bo'limiga kiritilgan dorilar;

farmatsevtik faoliyat – dori vositalarini, tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha izlanishlarni, tadqiqotlarni, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, sifatini nazorat qilish, standartlash, ro'yxatdan o'tkazish, saqlash, axborot berish, yetkazib berish va realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat;

dorixona – dori vositalarini tayyorlash, qadoqlash, ularning sifatini nazorat qilish, shuningdek davolash hamda kasallikning oldini olishga mo'ljallangan dori vositalari, tibbiy buyumlarni, sanitariya va gigiyena ashyolarini, shifobaxsh oziq-ovqatlarni, ma'danli suvlarni, davolash-kosmetika mahsulotlarini xarid qilish, saqlash va sotishni amalga oshi-

ruvchi tibbiyot muassasasi. Dorixona muassasalari jumlasiga dorixonalar va ularning filiallari, davolash va kasallikning oldini olish muassasalarining dorixonalari kiradi;

retsept – shifokorning farmatsevtga dori tayyorlash va berish haqidagi yozma ko'rsatmasi bo'lib, unda dorini qo'llash usuli qayd etilgan bo'ladi;

standart yozuv – dori preparatlarining davolash xususiyatlari samaradorligi tekshirilganidan so'ng tuzilgan tarkibi;

tibbiy buyumlar – kasallikning oldini olish, tashxis qo'yish va davolash uchun tibbiyotda qo'llaniladigan buyumlar.

qalbakilashtirilgan dori vositasi – tarkibi va (yoki) ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on ma'lumot ilova qilingan dori vositasi;

sifatsiz dori vositasi – yaroqsiz holga kelgan dori vositasi va (yoki) yaroqlilik muddati o'tgan dori vositasi;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari – intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda muomalaga kiritilgan dori vositalari

3-modda. Aholini dori vositalari bilan ta'minlash sohasidagi davlat kafolatlari

Davlat dori vositalarining asosiy turlarini bema-

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

lol olishni va ular sifatli bo'lishini kafolatlaydi.

Tibbiy maqsadda qo'llanishga ruxsat etilmagan dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ish ko'rishning barcha shakllari taqiqlanadi.

Tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilgan dori vositalarining, tibbiy buyumlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

dori vositalari — kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun qo'llaniladigan dori preparatlari va farmatsevtik substansiyalar;

farmatsevtik substansiyalar - kelib chiqishidan qat'iy nazar dori preparatlarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun qo'llaniladigan dori vositalari;

dori preparatlari —dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llanilish uchun tayyor dori vositalari;

dorivor o'simlik xom ashyosi — dori vositalarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun foydalaniladigan, tarkibida biologik faol moddalar bo'lgan o'simliklar yoki ularning qismlari;

dori preparatining xavfsizligi — dori preparatini tashish, saqlash, tibbiy qo'llash talablariga rioya qilgan holda yetarli isbotlovchi baza asosida odam sog'lig'iga zarar yetkazish mumkin bo'lgan holatlarga yo'l qo'yilmaydigan, xavfni oldini oluvchi dori preparatining tavsifi;

dori preparatining samaradorligi — bu profilaktika, diagnostika yoki terapevtik ta'sirga yoki inson organizmini fiziologik funksiyalarini tiklash, tuzatish yoki o'zgartirishga imkon beradigan dori preparatining xususiyatlari yig'indisidir;

retsept — shifokorning farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassisga dori preparatini tayyor-

lash va (yoki) berish hamda uning qo'llanilish usuli to'g'risidagi yozma ko'rsatmasi;

sifatsiz dori vositasi va tibbiy buyum — yaroqsiz holga kelgan va (yoki) yaroqlilik muddati o'tgan dori vositasi va tibbiy buyum;

tibbiy buyumlar — alohida yoki birgalikda tibbiy maqsadlarda qo'llaniladigan, odam organizmi va a'zolarini, to'qima qismlarini almashtirish va modifikatsiyalash, buzilgan va yo'qolgan fiziologik vazifalarini qayta tiklash, urchishni nazorat qilish yoki kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, rehabilitatsiya va tibbiy muolajalarni o'tkazish uchun, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini aniqlash hamda o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan, qo'llanilishi natijasida odam organizmiga bevosita farmakologik, immunologik yoki metabolik ta'sir ko'rsatmaydigan apparatlar, uskunalar, asboblilar, qurilmalar va majmualar, jihozlar; bog'lov va o'rov vositalari, stomatologik materiallar, reagentlar to'plamlari, nazorat materiallari, polimer, rezina va boshqa materiallardir;

farmatsevtika faoliyati — dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat;

tadqiqot subyekti – sinov o'tkazilayotgan dori preparatini qabul qiluvchi klinik sinovda ishtirok etadigan guruh a'zosi yoki nazorat guruhining tarkibidagi jismoniy shaxs;

dori vositalari muomalasi – dori vositalarini yaratish, klinik oldi va klinik tadqiqotlar, ekspertiza, ro'yxatdan o'tkazish, farmakologik nazorat, standartizatsiya, sifat nazorati, ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, olib kirish va olib chiqish, sotish, qo'llash, qaytarish, reklama qilish, yo'q qilish;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchi – o'rnatilgan tartibda dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchi tashkilot;

zarur farmatsevtika amaliyotlari (GxP) – dori vositalarining iste'molchi uchun sifati, samaradorligi va xavfsizligini ta'minlovchi zarur ishlab chiqarish amaliyoti (GMP), zarur distribyuterlik amaliyoti (GDP), zarur klinika amaliyoti (GCP), zarur laboratoriya amaliyoti (GLP), zarur farmakologik nazorati amaliyoti (GVP), zarur saqlash amaliyoti (GSP), zarur dorixona amaliyoti (GPP) talablari majmuasi;

farmatsevtik inspeksiya – yuridik shaxslarni zarur farmatsevtika amaliyotlari talablariga muvofiqligini baholash yuzasidan o'tkaziladigan inspeksiya;

farmatsevtik inspektor – farmatsevtik inspeksiyaning o'tkazish uchun vakolatga ega farmatsevtik

inspektorlar reyestriga kiritilgan mutaxassis;

farmatsevtik inspektorlar reyestri – farmatsevtik inspeksiyaning o'tkazish uchun vakolatga ega farmatsevtik inspektorlar haqidagi ma'lumotlar saqlanadigan ma'lumotlar bazasi;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari – intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda muomalaga kiritilgan dori vositalari;

qalbakilashtirilgan dori vositasi va tibbiy buyum – tarkibi yoki xususiyati to'g'risida yoxud ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on axborot ilova qilingan dori vositasi va tibbiy buyum.

4-modda. Davlatning aholini asosiy dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash sohasidagi kafolatlari

Davlat asosiy dori vositalari, shuningdek tibbiy buyumlar olinishi imkoniyatini va ularning sifatini, xavfsizligini va samaradorligini kafolatlaydi.

4-modda. Davlat organlarining dori vositalari bilan ta'minlash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Hukumati dori vositalari bilan ta'minlash sohasidagi siyosatni belgilaydi va ro'yobga chiqaradi, dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlashga doir sog'liqni saqlash dasturlarini tasdiqlaydi va mablag' bilan ta'minlaydi, ularning narxlarini nazorat qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari dori vositalari, tibbiy buyumlar muomalasini nazorat qiladi, dori vositalari bilan ta'minlash davlat dasturlarini mablag' bilan ta'minlaydi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

davlat buyurtmasini tuzadi va davlat tibbiyot muassasalarida dori vositalari, tibbiy buyumlarning asosiy turlari mavjud bo'lishi ustidan nazoratni ta'minlaydi;

belgilangan tartibda farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashni amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan tartibga muvofiq, ayrim toifadagi shaxslarga dori vositalarining imtiyozli berilishini ta'minlaydi;

laboratoriya, ishlab chiqarish va dorixona amaliyoti uchun xos bo'lgan standartlarni tasdiqlaydi;

milliy farmakopeyani tasdiqlaydi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarning sifatini nazorat qilinishi, ularni ro'yxatdan o'tkazilishi, standartlashtirilishi va sertifikatsiyalanishini ta'minlaydi;

narkotik, zaharli, psixotrop, radiofarmatsevtika (radioaktiv), kuchli ta'sir etuvchi dori vositalari va etil spirtini sotish, saqlash, hisobga olish, ularning zaxiralarini hosil qilish tartibini belgilaydi;

2-bob. Davlat organlarining dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi vakolatlari

5-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi hamda ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining dori vositalari, tibbiy buyumlar hamda farmatsevtika faoliyati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini belgilaydi;

Zarur amaliyotlar (GxP) talablariga muvofiqlik yuzasidan inspeksiyalar o'tkazish tartibini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

dori vositalari va tibbiy buyumlarning davlat reyestrini yuritadi hamda vaqti-vaqti bilan e'lon qilib boradi;

dori vositalarining zararli ta'sirini tasdiqlovchi faktlar mavjud bo'lgan taqdirda ularni tayyorlash, ishlab chiqarish, olib kelish va sotishni to'xtatib qo'yadi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini to'xtatib qo'yishga olib keladigan dori vositalari tayyorlash va ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yish (dori vositalari tayyorlash va ishlab chiqarishni favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va salomatligi uchun boshqa real xavf yuzaga kelishining oldini olish bilan bog'liq holda o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib qo'yish hollari bundan mustasno) sud tartibida amalga oshiriladi.

6-modda. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro'yxatdan o'tkazish

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro'yxatdan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnoma egasi ushbu guvohnomani bergan muassasani dori vositasining farmakologik samaradorligi va xavfsizligiga doir yangi ma'lumotlardan xabardor qilib turishi shart.

6-modda. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

Asosiy dori vositalari ro'yxatidagi dori vositalarining, shuningdek tibbiy buyumlarning davlat buyurtmasini shakllantiradi va ularning davlat

Quyidagilar majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak:

davolash, kasallikning oldini olish, tashxis qo'yish vositalari, shifobaxsh oziq-ovqat va parafarmatsiya mahsulotlari;

dorilarni tayyorlashda qo'llaniladigan dori vositalari (substansiyalari) va biologik faol yordamchi moddalar;

ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining yangi kombinatsiyalari;

yangicha qadoqlangan, yangi shakl va tarkiblardagi yoki yangi texnologiya bo'yicha tayyorlanayotgan dori vositalari;

generik dori vositalari (generiklar);

tibbiy buyumlar.

Retseptlar va standart yozuvlar bo'yicha dori-xonalarda tayyorlanadigan dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish talab etilmaydi.

tibbiyot muassasalarida mavjud bo'lishi ustidan nazoratni ta'minlaydi;

ayrim toifadagi shaxslarga dori vositalarining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda imtiyozli berilishini ta'minlaydi;

tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni realizatsiya qilish, berish, taqsimlash, saqlash hamda hisobga olish tartibini belgilaydi;

kam uchraydigan kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangan Orfan dori preparatlari va tibbiy buyumlarni ro'yxatini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

retseptsiz beriladigan dori vositalari ro'yxatini yiliga kamida bir marta tasdiqlaydi;

Asosiy dori vositalari ro'yxatini ikki yilda kamida bir marta ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

davolash-profilaktika muassasalarida dori preparatlari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini olib boradi;

odamda dori preparatini klinik tadqiqotlarini o'tkazish tartibini tasdiqlaydi;

klinik tadqiqotlar o'tkaziladigan klinik bazalar ro'yxatini tasdiqlaydi;

klinik tadqiqotlar o'tkazilishi uchun ma'sul bo'lgan tibbiyot xodimlarini faoliyatini muvofiqlashtiradi;

7-modda. Dori vositalarini ishlab chiqarish

Dori vositalarini ishlab chiqarish — dori vositalarini ularni ishlab chiqarish hamda sifatini nazorat qilishni tashkil etish qoidalariga muvofiq ko'plab hosil qilish, shu jumladan to'liq texnologik turkum yoki uning ayrim bosqichlari: dori vositalarini sintez (biosintez) qilish, ekstraksiyalash, tozalash, ularga ishlov berish, ularni qadoqlash, idishga joylash-o'rash va ularni markalash bosqichlari bo'yicha hosil qilish.

O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan dori vositalarini, qalbakilashtirilgan dori vositalarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini ishlab chiqarish taqiqlanadi.

Dori vositalari davlat reyestridan chiqarilgan taqdirda ishlab chiqarilgan hamda dorixonalar, omborlar va davolash-kasallikning oldini olish muassasalarida mavjud bo'lgan mazkur dori vo-

dori preparatini klinik tadqiqotida ishtirok etayotgan tadqiqot subyekti hayotiga va sog'lig'iga yoki jamiyatga tahdid solinsa, klinik tadqiqotlarni to'xtatish, davom ettirish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

7-modda. Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi vakolatlari:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

dori vositalari va tibbiy buyumlar sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni tasdiqlaydi;

Davlat farmakopeyasini tasdiqlaydi va chop etadi; farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashni belgilangan tartibda amalga oshiradi va litsenziya talab va shartlariga rioya eilishini nazorat qiladi;

Zarur farmatsevtika amaliyotlari (GxP) talablariga muvofiqlik bo'yicha inspeksiyani amalga oshiradi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni sertifikatlashtirish organlari faoliyatini, shuningdek sinov

sitalarining qoldiqlari masalasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan hal qilinadi.

Dori vositalarini yaratish, ularni sinash, ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, yo'q qilishni amalga oshiruvchi korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar dori vositalarining sifatini nazorat qiluvchi ichki idoraviy xizmatga ega bo'lishlari kerak.

laboratoriyalarini faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni klinik oldi (klinik bo'lmagan) va klinik tadqiqotlar natijalarini ekspertizadan o'tkazadi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarni ekspertizasini, davlat ro'yxatidan o'tkazilishini, sifati nazorat qilinishini, standartlashtirilishini va sertifikatlashtirilishini belgilangan tartibda amalga oshiradi;

farmakologik nazoratni amalga oshiradi;

tibbiy buyumlar ro'yxatini tasdiqlaydi;

tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar davlat reyestrini yuritadi hamda o'zining rasmiy saytida e'lon qiladi;

farmatsevtika inspektorlar faoliyatini muvofiqlashtiradi va reyestrini yuritadi;

dori vositalari va tibbiy buyumlarning zararli ta'sirini tasdiqlovchi faktlar mavjud bo'lgan taqdirda ularning ishlab chiqarilishini, tayyorlanishini, import qilinishini, realizatsiya qilinishini to'xtatib turadi. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini to'xtatib turishga olib keladigan dori vositalarining, tibbiy buyumlarning ishlab chiqarilishini va tayyorlanishini to'xtatib turish (favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar hamda aholining hayoti va sog'lig'i uchun boshqa haqiqiy tahdid yuzaga kelishining oldini olish munosabati bilan dori vositalari va tibbiy buyumlar

ishlab chiqarilishini hamda tayyorlanishini o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga to'xtatib turish hollari bundan mustasno) sud tartibida amalga oshiriladi;

farmatsevtika tarmog'i uchun mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash, attestatsiyasidan o'tkazish va mutaxassislar ma'lumotlar bazasini yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish Agentligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

8-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi investitsiyalar va eksportni rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etadi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi hamda amalga oshiradi;

tegishli hududda davlat davolash-profilaktika muassasalarini va aholini dori vositalari, tibbiy buyumlar bilan ta'minlashda ishtirok etadi;

dori vositalari, tibbiy buyumlar muomalasi va farmatsevtika faoliyati masalalari bo'yicha aholi

8-modda. Dorixonalarda dori vositalarini tayyorlash

Dori vositalari dorixonalarda, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qo'llashga ruxsat etilgan dori vositalaridan (substansiyalaridan) va yordamchi moddalardan tayyorlanadi.

9-modda. Dori vositalarini markalash, idishga joylash-o'rash va ularning tashqi bezagi

Dori vositalarini markalash, idishga joylash-o'rash va ularning tashqi bezagiga doir qoidalar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

o'rtasida axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish hamda o'tkazishda ishtirok etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Dori vositalari. Tibbiy buyumlar.

9 -modda. Davlat farmakopeyasi

Davlat farmakopeyasi dori vositalariga va tibbiy buyumlarga doir talablarni, umumiy farmakopeya maqolalarini, farmakopeya maqolalarini, dori vositalarining va tibbiy buyumlarining sifatini nazorat qilish usullarini o'z ichiga olgan hujjatlar to'plami bo'lgan rasmiy nashrdir.

Umumiy farmakopeya maqolasi dori vositalarining, tibbiy buyumlarning sifatiga, dorivor o'simlik xom ashyosiga, ularning sifatini nazorat qilish usullariga, dori vositalarining sifatini nazorat qilishda foydalaniladigan standart namunalarga, reaktivlarga, dori vositalarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan joylash-o'rash materiallariga qo'yiladigan umumiy talablarni belgilaydi.

Farmakopeya maqolasi muayyan dori vositasining, tibbiy buyumning, dorivor o'simlik xom ashyosining, yordamchi moddaning sifatiga doir talablarni belgilaydi.

Umumiy farmakopeya maqolalarini, farmakopeya maqolalarini ishlab chiqish va ularni Davlat farmakopeyasiga kiritish Farmakopeya qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Farmakopeya qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy ekspert organidir.

Davlat farmakopeyasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan besh yilda kamida bir marta chop etiladi. Davlat farmakopeyasining qayta nashrlari oralig'idagi davrda Davlat farmakopeyasiga ilovalar chop etiladi.

10-modda. Dori vositalarining yoxud tibbiy buyumlarning klinik oldi tadqiqotlari

Dori vositalarining klinik oldi tadqiqotlari dori vositalarining xavfsizligi va samaradorligini o'rganish maqsadidagi kimyoviy, fizik, biologik, mikrobiologik, farmakologik, toksikologik tadqiqotlarni hamda odamlarda o'tkazilishi ko'zda tutilmaydigan boshqa tadqiqotlarni nazarda tutadi.

Tibbiy buyumlarning klinik oldi tadqiqotlari tibbiy buyumlarning xavfsizligini o'rganish maqsadidagi kimyoviy, fizik, texnik, biologik, mikrobiologik, toksikologik tadqiqotlarni va boshqa tadqiqotlarni nazarda tutadi.

Dori vositalarining va tibbiy buyumlarning klinik oldi tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi

10-modda. Farmakologik vositalarni klinik sinovlardan o'tkazish

Farmakologik vositalarning klinik sinovlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ro'yxati tasdiqlanadigan ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda klinika muassasalarida o'tkaziladi.

Farmakologik vositalarni odamda klinik sinovdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga beriladi.

Qaror qabul qilish uchun quyidagilar asos hisoblanadi:

sinovlarda ixtiyoriy qatnashuvchi mijozning roziligi;

klirikada qo'llashgacha bo'lgan davrda farmakologik vositalarning xavfsizligi va samaradorligini o'rganish natijalari;

farmakologik vosita qo'llanilishidan kutish mumkin bo'lgan qo'shimcha ta'sirning xavfi kutilayotgan ijobiy samaradan ancha past bo'lishi to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi.

Sinovlar chog'ida odatdan tashqari reaksiyalar ro'y bergan yoki jamiyat uchun yoxud sinovda ixtiyoriy qatnashayotgan mijozning salomatligi va hayoti uchun xavf-xatar tug'ilgan taqdirda klinik sinovlar rahbari sinovlarni to'xtatishi hamda bu haqda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini xabardor qilishi shart.

Farmakologik vositalarni sinovdan o'tkazishni mablag' bilan ta'minlash sinalayotgan farmakologik vositani taqdim etgan yuridik va jismoniy shaxslar hisobidan amalga oshiriladi.

11-modda. Klinik sinovda ixtiyoriy qatnashayotgan mijozning huquqlari

Farmakologik vositaning klinik sinovida ishtirok etishga yozma rozilik bergan ixtiyoriy qatnashayotgan mijoz sinovni o'tkazuvchi shifokordan bu uslubning ahamiyati, mohiyati va bunday sinov keltirib chiqarishi ehtimol tutilgan xavf to'g'risida oldindan batafsil tushuntirish olishi, shuningdek u istalgan bosqichda sinovda qatnashishni rad etish huquqiga ega ekanligidan xabardor qilinishi lozim.

Sinov voyaga etmagan yoki muomalaga layoqatsiz miya ishtirokida o'tkaziladigan bo'lsa, uning ota-onasidan yoki boshqa qonuniy vakillaridan yozma rozilik olinishi kerak. Voyaga etmagan miya ishtirokida o'tkaziladigan sinovdan oldin, qoida tariqasida, sinov voyaga yetganlarda o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Farmakologik vositaning klinik sinovini boshlashdan oldin sinovni o'tkazayotgan davolash-kassallikning oldini olish muassasasi sug'urta tashkiloti bilan mijozning salomatligi va hayotini sug'urta qilish yuzasidan shartnoma tuzishi shart.

ularni ishlab chiquvchilar va ishlab chiqaruvchilar tomonidan vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan zarur laboratoriya amaliyotida (GLP) talablari-ga rioya qilgan holda, zarur moddiy-texnika bazasi-ga va tadqiqotning tegishli sohasi bo'yicha amalga oshirish vakolatiga ega tashkilotlarda qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkazilishi mumkin.

11-modda. Dori preparatlarining klinik tadqiqotlari

Dori preparatining klinik tadqiqotlari xavfsizlik va samaradorlikni aniqlash maqsadida ularning farmakologik xossalarini, nojo'ya ta'sirlari va boshqa dori vositalari va (yoki) oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zaro ta'siri samarasi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish uchun o'tkaziladi.

Dori preparatining klinik tadqiqotlari zarur klinika amaliyoti (GCP) talablari asosida tegishli

yo'nalish bo'yicha klinik tadqiqotlarni o'tkazish uchun zarur infratuzilma, malaka va vakolatiga klinik bazalarda o'tkaziladi.

Dori preparatlarining klinik tadqiqotlari xalqaro ko'p markazli, davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyingi tadqiqotlar, bitta yoki bittadan ortiq davolash-profilaktika muassasasida yagona bayonnoma bo'yicha zarur klinika amaliyoti (GSP) talablariga muvofiq o'tkaziladi.

Klinik tadqiqotlar o'tkaziladigan davolash-profilaktika muassasalari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi va o'zining rasmiy saytida joylashtiriladi.

Dori preparatini klinik tadqiqotlarini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

dori preparatining xavfsizligi va samaradorligi bo'yicha klinik oldi tadqiqotlar ijobiy natijalari;

Dori preparatining klinik tadqiqotlarini o'tkazishga tadqiqot subyektining xavfsizlik va osoyishtaligiga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan va rioya qilgan holda etika ekspertizasining mazkur tadqiqotlarni o'tkazish etika jihatidan asoslanganligi to'g'risidagi xulosasisiz yo'l qo'yilmaydi.

Tadqiqot subyektlari sifatida quyidagilar ishtirokida dori preparatlarining klinik tadqiqotlarini o'tkazish ta'qiqlanadi:

yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar;

homiladorlik davridagi ayollar, ko'krak suti bilan boqish davridagi ayollar, agar ular uchun mo'ljallangan dori preparatlarining tegishli klinik tadqiqotlari bo'yicha ma'lumot olish uchun klinik tadqiqotlar davomida homiladorlik davridagi ayollar, ko'krak suti bilan boqish davridagi ayollar homila yoki chaqaloqqa zarar yetkazish xavfi mavjud bo'lmaganda;

harbiylarda, harbiy harakatlar davrida qo'llash uchun maxsus ishlab chiqilganda, favqulodda vaziyatlarda, zararli kimyoviy, biologik, radiatsion omillarning ta'siri natijasida kelib chiqadigan kasalliklar va jarohatlarning oldini olish va davolashda foydalanish uchun. Bunaqa dori preparatlarining klinik tadqiqotlarida tadqiqot sub'ekti sifatida harbiylar, tezkor harbiy xizmat o'tayotgan harbiylar bundan mustasno, ushbu qonunda fuqarolar uchun belgilangan talablarga muvofiq;

huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari;

ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o'tayotgan shaxslar, shuningdek tergov hibsxonalarida saqlanayotgan shaxslar.

Bemorni tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan tibbiy mahsulotning klinik tadqiqotlarida ishtirok etishi ixtiyoriy ravishda uning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

Klinik tadqiqot rahbari bemorga ushbu usulning ahamiyati, ushbu tadqiqotning tabiati va mumkin bo'lgan xavfi to'g'risida batafsil tushuntirish berishi shart.

Bemor yoki uning qonuniy vakili tadqiqotning har qanday bosqichida unda qatnashishdan bosh tortish huquqiga ega. Sog'lom ko'ngillilar uchun tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan dori preparatlarining xavfsizligini va (yoki) sog'lom ko'ngillilar tomonidan o'zlashtirilishini belgilash; O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ishlab chiqarilgan dori preparatlari bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlar bundan mustasno.

Klinik tadqiqotlarni o'tkazish agar voyaga yetmaganlarning sog'lig'ini yaxshilash yoki bolalar yuqumli kasalliklarini oldini olish zarurati tug'ilganda yoki balog'atga yetmagan bemorlarni davolash uchun tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan dori preparatining eng maqbul dozalari to'g'risida ma'lumot olish zarur bo'lsa, klinik tadqiqotlarda qatnashadigan balog'atga yetmagan bemorlarni potensial bemor deb hisoblash mumkin. Bunday hollarda, agar tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan klinik tadqiqot o'tkazilayotgan dori preparati faqat voyaga yetmagan bemorlarga mo'ljallangan bo'lsa, oldin katta yoshdagi bemorlarda klinik tadqiqotlar o'tkazilishi kerak.

Tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan dori preparatining voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz bemor ishtirokida o'tkazilgan taqdirda tadqiqot boshlanishidan oldin ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillaridan yozma rozilik olinishi shart.

Tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan ruhiy kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangan dori preparatlarining klinik tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik jihatdan muomalaga layoqatsiz deb topilgan ruhiy kasalliklari bo'lgan bemorlarning ishtirokida o'tkazishga ruxsat etiladi. Ushbu holatda preparatni klinik tadqiqotlari mazkur bemorlarning qonuniy vakillarining yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

Tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan dori preparatlarining klinik tadqiqotlari davrida bemorlardan biologik materiallarni (biologik suyuqlik namunalari, to'qimalar, ajralmalar va odam hayoti faoliyatidagi chiqindilaridan olingan mahsulotlar namunalari, fiziologik va patologik ajralmalar, surtmalar, qirindilar, yuvilmalar, mikroorganizmlar, biopsiya materiallari) O'zbekiston Respublikasidan tashqarida o'rganish uchun olib kirish va olib chiqib ketishga Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda ruxsat beriladi.

Tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan dori preparatlarining klinik tadqiqotlarini boshlashdan oldin,

tadqiqotni o'tkazayotgan tibbiyot muassasasi yoki tadqiq etilayotgan tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan dori preparatlarini taqdim etgan yuridik shaxs sug'urtalovchi bilan sog'lom ko'ngilli yoki bemorning hayotiga, sog'lig'iga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligiga doir sug'urta shartnomasini tuzishi shart.

Tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan dori preparatlarining klinik tadqiqotlarini moliyalashtirish tadqiq etilayotgan dori preparatlarini yoki dori preparatlarini taqdim etgan yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan yoxud qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

12-modda. Etika ekspertizasi

Etika ekspertizasi dori preparatlarning klinik tadqiqotlarini o'tkazishning etika jihatidan asoslanganligi to'g'risida xulosa berish maqsadida o'tkaziladi.

Etika ekspertizasi jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi Etika qo'mitasi tomonidan o'tkaziladi, uning tarkibiga tibbiyot, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, oliy ta'lim muassasalarining, ommaviy axborot vositalarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari kiritiladi.

Etika qo'mitasining mutaxassislari hech qanday tarzda tibbiyot amaliyotida qo'llaniladigan dori preparatlarini ishlab chiqaruvchilarga va etika eks-

12-modda. Sanoat korxonalar va ulgurji savdo tashkilotlari tomonidan dori vositalari va tibbiy buyumlarning sotilishi

Dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonalar o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarga sotish huquqiga ega.

Ulgurji savdo korxonalar va tashkilotlari dori vositalarini hamda tibbiy buyumlarni dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilardan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan dori-darmonlarni yetkazib beruvchi ulgurji savdo korxonalar va tashkilotlaridan, shuningdek xorijiy firmalardan olish huquqiga ega.

Ulgurji savdo korxonalari va tashkilotlari dori vositalari hamda tibbiy buyumlarni yuridik va jismoniy shaxslarga sotish huquqiga ega.

Dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, shuningdek ulgurji savdo korxonalari hamda tashkilotlari dori vositalari va tibbiy buyumlarni namunalar sifatida dorixona muassasalariga, davolash-kasallikning oldini olish muassasalariga, boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga, shuningdek tibbiyot va farmatsevtika o'quv yurtlariga berish huquqiga ega. Namunalarni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi».

13-modda. Dori vositalarini sotish

Dori vositalari faqat dorixona muassasalari orqali sotiladi.

Dorixonalar ishi dorixona amaliyoti uchun xos bo'lgan standartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Dorixonalar ishini boshqarish oliy farmatsevtika ma'lumotiga ega shaxslargagina ruxsat etiladi.

Barcha dorixona muassasalari sanitariya me'yorlari va qoidalariga javob berishi lozim.

Qalbakilashtirilgan va ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini realizatsiya qilish taqiqlanadi.

pertiza natijalaridan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslarga bog'liq bo'lmasliklari kerak.

Etika qo'mitasi to'g'risidagi nizom va uning tarkibi va ish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

13-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish

Dori vositalarining va tibbiy buyumlarning tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga, qoida tariqasida, ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin ruxsat etiladi.

Quyidagilar davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak: dori preparatlari;

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori preparatlarining yangi kombinatsiyalari;

ilgari O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan, lekin boshqacha dori shakllarida, dozalarda yoki boshqa ishlab chiqaruvchi tomondan ishlab chiqarilgan dori preparatlari;

Sizma dori vositalarini realizatsiya qilish va ularni foydalanish taqiqlanadi.

Dorixonalarning farmatsevtika faoliyatini nazorat qilishni davlatning vakolatli organlari amalga oshiradi.

tibbiy buyumlar.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar davlat reyestriga kiritiladi.

Tarkibida turli dori moddalari bo'lgan dori preparatlarini bir xildagi savdo nomi ostida davlat ro'yxatidan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Xalqaro patentlanmagan nomdagi savdo nomdagilar bundan mustasno.

Dori preparatlarini ishlab chiqarish va tayyorlash uchun ishlatiladigan farmatsevtik substansiyalar, shuningdek dorixonalarda tayyorlanadigan dori vositalari va tibbiy buyumlar davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish natijalariga ko'ra amal qilish muddati besh yil bo'lgan tegishli ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddati ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi egasining zarur hujjatlar ilova qilingan

14-modda. Dori vositalarini eksport va import qilish tartibi

O'zbekiston Respublikasida dori vositalarini, tibbiy buyumlarni eksport va import qilishning O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan yagona tartibi amal qiladi.

Sifatsiz yoki qalbakilashtirilgan dori vositalar-

arizasiga ko'ra uzaytirilishi mumkin. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza ushbu guvohnomaning amal qilish muddati tugashidan oldin uch oy ichida berilishi kerak. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddatini uzaytirish ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilish muddati o'tgach, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni realizatsiya qilishga hamda tibbiyot amaliyotida qo'llashga, agar ular ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining amal qilishi davrida ishlab chiqarilgan bo'lsa, ruxsat etiladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining egasi dori vositasining va tibbiy buyumning xavfsizligiga, sifatiga hamda samaradorligiga taalluqli yangi ma'lumotlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini huzuridagi farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligini xabardor qilishi shart.

14-modda. Farmakologik nazorat

Farmakologik nazorat dori vositasidan uning qo'llanilishiga doir yo'riqnomaga muvofiq foydalanilganda odamda kuzatiladigan, organizm uchun bexosdan va noxush ta'sir ko'rsatadigan nojo'ya reaksiyalarni aniqlashga, baholashga va ularning oldini olishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

ini shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilish taqiqlanadi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining, davolash profilaktika muassasalari zarur farmakologik nazorat amaliyoti (GVP) talablariga muvofiq farmakologik nazorat tizimini tashkil qilishi va o'rnatilgan tartibda vakolatli organ tomonidan sertifikatlashtirilishi shart.

Davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar hamda dori preparatlarini ishlab chiqaruvchi, realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori preparatlarini qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar aniqlangan barcha holatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligini yozma shaklda xabardor qilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi dori preparatlarining qo'llanilishi chog'ida aniqlangan nojo'ya reaksiyalarga baho beradi, baholash jarayonida nojo'ya reaksiyaning klinik ko'rinishlari va dori preparatining qo'llanilishi o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlari, shuningdek kutilayotgan foydaning dori preparatlari qo'llanilishining ehtimol tutilgan xavfiga nisbati aniqlanadi.

Kutilayotgan foydaning dori vositalari qo'llanilishining ehtimol tutilgan xavfiga nisbatining o'zgarishiga ta'sir etuvchi faktlar aniqlangan taqdirda

15-modda. Tibbiyot muassasalarining dori vositalarining qo'shimcha salbiy ta'siri to'g'risida xabardor qilish borasidagi majburiyati

Davolash-kasallikning oldini olish, dorixona muassasalari hamda dori vositalarini ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va qo'llovchi korxonalar dori vositalarini qo'llash vaqtida aniqlangan barcha qo'shimcha ta'sir holatlari, shuningdek ilgari kuzatilmagan salbiy ta'sir holatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini xabardor qilishlari shart.

ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasining egasi salbiy oqibatlarni bartaraf etishga, odamning hayotiga yoki sog'lig'iga zarar yetkazilishining oldini olishga, bunday dori preparatlarining-qo'llanilishidan muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rishi shart.

Dori preparati qo'llanilganda uning "foyda-xavf" nisbati salbiyligiga shubha uyg'onganida (kutilayotgan foydaning dori vositalari qo'llanilishining ehtimol tutilgan xavfiga nisbatining o'zgarishiga ta'sir etuvchi faktlar aniqlangan taqdirda) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi bunday dori vositasini preparatini muomaladan chiqarish yoki uning qo'llanilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror qabul qiladi.

15-modda. Dori vositalari, tibbiy buyumlar to'g'risidagi axborot va dori vositalarining reklamasi

Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari va tibbiy buyumlar davlat reyestrda, kam uchraydigan kasalliklarni davolash uchun mo'ljallangan Orfan preparatlar va tibbiy buyumlar ro'yxatida, retseptsiz beriladigan dori vositalari ro'yxatida, asosiy dori vositalari ro'yxatida, shuningdek tibbiy buyumlar ro'yxatida ko'rsatilgan axborot Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tar-

mog'ini rivojlantirish agentligining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Retseptsiz beriladigan dori vositalari to'g'risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida, shuningdek ixtisoslashtirilgan bosma nashrlarda, dori vositalarining tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomalarda berilishi mumkin.

Retsept bo'yicha beriladigan dori vositalari to'g'risidagi va tibbiy buyumlar haqidagi axborot faqat tibbiyot va farmatsevtika xodimlari uchun mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan bosma nashrlarda, dori vositalarining va tibbiy buyumlarning tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomalarda beriladi.

Dori vositalarining reklamasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4-bob. Farmatsevtika faoliyati

16-modda. Farmatsevtika faoliyatining yo'nalishlari

Farmatsevtika faoliyatining yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish;

dori vositalarining va tibbiy buyumlarning sifatini nazorat qilish;

16-modda. Dori vositalari, tibbiy buyumlar haqida axborot berish va ularni reklama qilish

Dori vositalari va tibbiy buyumlar haqida axborot berish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilab qo'yiladigan tartibda amalga oshiriladi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni reklama qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

17-modda. Qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish;

dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash; dorivor o'simlik xomashyosini qadoqlash va ulgurji realizatsiya qilish.

17-modda. Farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish

Farmatsevtika faoliyati belgilangan tartibda quyidagi faoliyatlarga beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi:

dori vositalarini ishlab chiqarish;

dori vositalarini ulgurji realizatsiya qilish;

dori vositalarini chakana realizatsiya qilish;

dori vositalarini tayyorlash;

dorivor o'simlik xom ashyosini qadoqlash va ulgurji realizatsiya qilish.

Farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya besh yil muddatga beriladi. Litsenziya faqat litsenziya da'vogarining arizasiga ko'ra besh yildan kam muddatga yoki ijara shartnomasi muddatiga qadar berilishi mumkin. Litsenziyaning amal qilish muddati litsenziatning arizasiga ko'ra uzaytirilishi mumkin.

18-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, qoida tariqasida, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Dori vositalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yangi dori vositalarni izlashni, keyinchalik ularning xossalarni o'rganishni, farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining tarkibini ishlab chiqishni, dori moddalarini (substansiyalarni) va dori vositalarini ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqishni, zarur laboratoriya amaliyoti (GLP) talablariga muvofiq klinik oldi tadqiqotlarni o'tkazishni, farmakologik vositalarning yoki dori vositalarining xavfsizligiga, sifatiga va ularning sifatini nazorat qilish usullariga doir talablar ko'rsatilgan normativ hujjatlarni tayyorlashni o'z ichiga oladi.

Tibbiy buyumlarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari tibbiy buyumlarning yangi turlarini izlashni, keyinchalik ularning texnik xususiyatlarini o'rganishni, ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqishni, tibbiy buyumlarning xavfsizligiga, sifatiga va ularning sifatini nazorat qilish usullariga doir talablar ko'rsatilgan normativ hujjatlarni tayyorlashni o'z ichiga oladi.

19-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish ularni ishlab chiqarishni hamda ularning sifatini nazorat qilishni tashkil etish qoidalariga muvofiq seriyali ishlab chiqarishdan iborat bo'lib, u to'liq texnologik sikl bo'yicha yoki uning alohida bosqichlari bo'yicha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Qalbakilash tirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini ishlab chiqarish taqiqlanadi.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish, eksport, ilmiy-tadqiqot ishlari, klinik oldi tadqiqotlar va klinik tadqiqotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish ularni davlat ro'yxatidan o'tkazmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ishlab chiqaruvchilar dori vositalari va tibbiy buyumlarining sifatini nazorat qiluvchi ichki idoraviy xizmatlarga ega hamda zarur ishlab chiqarish amaliyoti (GMP) talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tamg' alash hamda joylash-o'rash qoidalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi

farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish Agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

20-modda. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilar hamda dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar tomonidan zarur distribyutorlik amaliyoti (GDP) talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalarini va tibbiy buyumlarni dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchilardan, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi boshqa tashkilotlardan, shuningdek dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chet ellik ishlab chiqaruvchilardan hamda ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlardan xarid qilish huquqiga ega.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlar dori vositalarini va tibbiy buyumlarni farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlarga, tibbiyot tashkilotlariga, shuningdek dori vositalaridan va tibbiy buyumlardan tibbiyotda qo'llash

maqsadida o'z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi tashkilotlarga realizatsiya qilish huquqiga ega.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlarning omborxonalarini binolari sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normalari talablariga javob berishi kerak.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qiluvchi tashkilotlarning omborxonalarini mudiri farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini xarid qilish hamda ulgurji realizatsiya qilish taqiqlanadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni ulgurji realizatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

21-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish faqat dorixonalar hamda ularning filiallari tomonidan amalga oshiriladi.

Dori vositalarini chakana realizatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi retseptlar

bo'yicha yoki tasdiqlangan retseptsiz beriladigan dori vositalarining ro'yxatiga ko'ra retseptsiz amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yoki dorixonalar tomonidan tayyorlangan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishga ruxsat beriladi.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini xarid qilish, chakana realizatsiya qilish hamda ulardan foydalanish taqiqlanadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

22-modda. Dorixona

Dorixona — ixtisoslashtirilgan bino va jihozlar kompleksi bo'lib, dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni, shuningdek ularni tayyorlashni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs shaklida yoki yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi shaklida tashkil etilishi mumkin. Dorixonalarning filiallari, davolash-profilaktika muassasalarining dorixonalari ham dorixonalar jumlasiga kiradi.

Dorixonalar sanitariya va gigiyena ashyolarini, shifobaxsh oziqlantirish mahsulotlarini, ma'danli suvlarni, shuningdek davolash-kosmetika mahsulotlarini, biologik faol qo'shimchalarni realizatsiya qilishni ularning qo'llanilishi va realizatsiya qilinishi uchun tegishli hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirishi mumkin.

Dorixonona mudiri oliy farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Dorixonona filialining mudiri farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, berish, realizatsiya qilish qoidalariga va ularning sifatini ta'minlovchi saqlash sharoitlariga dorixonalar tomonidan rioya etilishi kerak.

Dorixonalar zarur dorixonona amaliyoti (GPP) talablariga, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga javob berishi kerak.

23-modda. Dorixonalarda dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash

Dori vositalari dorixonalarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish Agentligi tomonidan qo'llanilishiga ruxsat etilgan farmatsevtik substansiyalardan tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan, tayyorlashga

ruxsat etilgan dori vositalari ro'yxatiga kiritilmagan dori vositalarini tayyorlash taqiqlanadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, shuningdek ularni saqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi belgilaydigan tartibda dorixonalar tomonidan amalga oshiriladi.

24-modda. Dori vositalarini, tibbiy buyumlarni saqlash, tashish hamda yo'q qilib tashlash

Farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlarga, tibbiyot tashkilotlariga, shuningdek dori vositalaridan va tibbiy buyumlardan tibbiyotda qo'llash maqsadida o'z ehtiyojlari uchun foydalanuvchi tashkilotlarga dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlashga ruxsat beriladi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash hamda tashish ularning xavfsizligi, sifati va but saqlanishi zarur distribyutorlik amaliyoti (GDP) yoki zarur saqlash amaliyoti (GSP) yoki yaxshi dorixonona amaliyoti (GRP) talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston

Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini realizatsiya qilish maqsadida saqlash, tashish taqiqlanadi.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalari va tibbiy buyumlar, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari, shuningdek muomaladagi dori vositalari va tibbiy buyumlar ularning inson sog'lig'iga zararli ta'sirini tasdiqlovchi faktlar aniqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda muomaladan chiqarilishi va yo'q qilib tashlanishi kerak.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni yo'q qilib tashlash ularning egalari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

5-bob. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni eksport va import qilish, olib kirish hamda olib chiqish
25-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni eksport va import qilish

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni eksport va import qilish, shu jumladan ilmiy-tadqiqot ishlari, klinik oldi tadqiqotlar, klinik tadqiqotlar o'tkazish va davlat ro'yxatidan o'tkazish, ko'rgazmalarda, yarmarkalarda, xalqaro anjumanlarda namoyish etish uchun mo'ljallangan dori vositalarini va tibbiy

buyumlarni eksport va import qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini import qilish taqiqlanadi.

Orfan dori preparatlarini va tibbiy buyumlarni import qilish davlat ro'yxatidan o'tkazilmasdan amalga oshirilishi mumkin.

26-modda. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy foydalanish uchun olib kirish hamda olib chiqish

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni quyidagi hollarda davlat ro'yxatidan o'tkazilmasdan hamda bojxona rasmiylashtiruvizisiz olib kirish va olib chiqishga ruxsat beriladi, agar ular:

mamlakatda bo'lish davrida jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasi hududida va uning hududidan tashqarida yashab turgan bemorni davolash-profilaktika muassasasi tomonidan tasdiqlangan tibbiy ko'rsatma asosida, davolash kursi doirasida davolash uchun mo'ljallangan bo'lsa;

diplomatik vakolatxonalarning va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning diplomatik hamda

ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ular bilan birga yashab turgan oila a'zolarining shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan bo'lsa;

O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib ketayotgan yoki uning hududidan chiqib ketayotgan transport vositasining yo'lovchilariga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan va tibbiy dorilar qutichasi tarkibiga kiritilgan bo'lsa.

Xalqaro ilmiy, madaniy, sport tadbirlarining ishtirokchilarini hamda xalqaro ekspeditsiyalarining ishtirokchilarini davolash uchun mo'ljallangan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni olib kirish hamda olib chiqish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

27-modda. Nizolarni hal etish

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

28-modda. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Dori vositalari, tibbiy buyumlar va farmatsevtika faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida" gi qonun haqida ma'lumotlar.
2. "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida" gi qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar.
3. "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida" gi qonunning oxirgi yangi tahriridagi o'zgartirish va qo'shimchalar.

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1-vazifa. «Bumerang» usulida vazifani ish daftaringizda bajaring.

Ikkinchi guruh

Birinchi guruh

1. Farmatsevtika bozorini tartibga solish tushunchasi deganda nimani tushunasiz?

2. "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida" gi qonunning ahamiyati nimalardan iborat?

Ikkinchi guruh

1. "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida" gi qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?

2. Dori vositalari muomalasi doirasida davlat tartibini o'rnatishda "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi" qonunning ahamiyati qanday xususiyatlarga ega?

2-vazifa. Mavzu bo'yicha ma'lumotlar asosida «Assesment» usulidan foydalanib jadvalni ish daftaringizda to'ldiring.

TEST	VAZIYATLI MASALA
TUSHUNCHA	KO'NIKMALAR

3-vazifa. “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi qonundagi ayrim moddalarni “Klaster” usulida ish daf-taringizda aks ettiring.

4-vazifa. “Sinkvein” texnikasi yordamida qonunning 3-mod-dasidagi terminlarni sxemaga solib to‘ldiring.

“Sinkvein”(5 qator) texnikasi

Sinkvein sxemasi:

1- qator. Tushuncha.

2-qator. Tushunchani tavsiflovchi 2 sifat.

3-qator. Ushbu tushuncha vazifalari to‘g‘risidagi uchta fe‘l.

4-qator. Ushbu tushuncha vazifalari to‘g‘risidagi to‘rtta so‘zdan iborat so‘z birikmasi.

5-qator. Ushbu tushuncha sinonimi.

Testlar

1. “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?

A. 25.04.1997-y.

B. 29.08.1996-y.

C. 27.05.1997-y.

D. 05.05.1999-y.

2. "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qonunning yangi tahririda nechta moddalar mavjud?

- A. 28-modda
- B. 27-modda
- C. 17-modda
- D. 10-modda

3. "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qonunga birinchi marta qachon o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan?

- A. 2009-y.
- B. 2016-y.
- C. 2018-y.
- D. 2020-y.

4. "Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash" haqidagi qonun qachon qabul qilingan?

- A. 25.04.1997-y.
- B. 29.08.1996-y.
- C. 27.05.1997-y.
- D. 05.05.1999-y.

5. 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qonun nechta moddadan iborat?

- A. 17 ta moddadan
- B. 27 ta moddadan
- C. 28 ta moddadan
- D. 10 ta moddadan

6. 2016-yil 4-yanvarda "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar asosan qanday muammoga qaratilgan?

- A. O'rta ma'lumotli farmatsevtlar dorixona filialini ochish huquqiga ega.
- B. Oliy ma'lumotli farmatsevtlar dorixona filialini ochish huquqiga ega.

C. O'rta ma'lumotli provizorlar dorixona filialini ochish huquqiga ega.

D. O'rta ma'lumotli shifokorlar dorixona filialini ochish huquqiga ega.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday vazifalarni bajaradi?

A. Sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlarini himoya qiladi.

B. Aholi salomatligiga oid davlat siyosatini olib boradi.

C. Mablag' bilan ta'minlaydi va sog'liqni saqlash va tibbiyotni rivojlantirish dasturini tasdiqlaydi.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining majburiyatlari nimadan iborat?

A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunlari bilan boshqariladi.

B. Sanoatni isloh qilish uchun huquqiy-me'yoriy baza yaratadi, sog'liqni saqlashni rivojlantirish uchun mo'ljallangan dasturlarni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratadi.

C. Aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini tashkil qiladi va kuchaytiradi.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

9. Davlat sog'liqni saqlash tizimini ta'minlovchi mablag' manbalariga qanday mablag'lar kiradi?

A. Davlat byudjet mablag'lari. B. Tibbiy sug'urta mablag'lari. C. Jamiyat sog'liqni saqlash fondi mablag'lari. D. Barcha javoblar to'g'ri.

10. Xususiy va boshqa sog'liqni saqlash tuzilmalariga nimalar kiradi?

A. O'z mablag'ingiz.

B. Boshqa manbalar hisobidan ta'minlanadigan tibbiy va profilaktika muassasalari.

C. Tibbiy asbob-uskunalar va dori-darmon mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalari.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

11. Qaysi shaxslar O'zbekiston Respublikasida tibbiy va farmatsevtik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega?

A. Oliy ma'lumotli diplomga ega shaxslar.

B. O'rta ta'lim diplomiga ega bo'lgan shaxslar.

C. O'rta maxsus ta'lim diplomiga ega bo'lgan shaxslar.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

12. Toshkent shahridagi harbiy lazaret qachon ochilgan?

A. 1868-y.

B. 1900-y.

C. 1905-y.

D. 1988-y.

13. "Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunda nechta modda mavjud?

A. 47 ta modda

B. 27 ta modda

C. 17 ta modda

D. 10 ta modda

14. "Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunga birinchi marta qachon o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan?

A. 19-may 2010-y.

B. 5-may 2016-y.

C. 6-sentyabr 2018-y.

D. 2-fevral 2020-y.

15. "Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonunga ikkinchi marta qachon o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan?

A. 9-iyun 2020-y.

B. 5-may 2016-y.

C. 6-sentyabr 2018-y.

D. 2-fevral 2020-y.

16. 9-iyun 2020-yildagi “Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonunning qaysi moddalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi?

- A. 47-moddasiga
- B. 27-moddasiga
- C. 17-moddasiga
- D. 10-moddasiga

17. Sog‘liqni saqlash kodeksining loyihasi qachon e‘lon qilindi?

- A. 28-fevral 2020-y.
- B. 5-may 2016-y.
- C. 6-sentyabr 2018-y.
- D. 2-fevral 2020-y.

III BOB

FARMATSEVTIKA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI

- 3.1. Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibi
 - 3.2. Litsenziyalarning turlari
 - 3.3. Litsenziyaning amal qilish muddati
 - 3.4. Litsenziya talablari va shartlari
 - 3.5. Litsenziya olish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar
 - 3.6. Litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im
 - 3.7. Litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilish
 - 3.8. Litsenziya berishni rad etish
 - 3.9. Litsenziyalarni rasmiylashtirish
 - 3.10. Litsenziya shartnomasi
 - 3.11. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish
 - 3.12. Dorixona filialinining ochish tartibi
 - 3.13. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikat berish
 - 3.14. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish
 - 3.15. Litsenziyaning amal qilish muddatini to'xtatib turish
 - 3.16. Litsenziyaning amal qilishini tugatish
 - 3.17. Litsenziyani bekor qilish
 - 3.18. Litsenziyalarning reyestrlari
 - 3.19. Litsenziya berganlik uchun davlat boji
 - 3.20. Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik
 - 3.21. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar
Mustaqil bajarish uchun vazifalar
Testlar
-

Mavzuning maqsadi: dorixona muassasalariga farmatsevtika faoliyati uchun litsenziya berish asoslari, litsenziya obyektlari, litsenziyalovchi organlar, farmatsevtik faoliyatga litsenziya berish uchun zarur bo'lgan hujjatlar haqida ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

3.1. Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibi

O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risi"dagi qonuni ilk bor 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan bo'lib, ushbu sohani rivojlantirishda mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qonun farmatsevtika faoliyati yo'nalishlarini, farmatsevtika faoliyatini tartibga solish, dori vositalari va tibbiy buyumlarni tayyorlash, ishlab chiqarish, ularni chakana va ulgurji realizatsiya qilish, dori vosita va tibbiy buyumlar sifatini nazorat qilish, dorivor o'simlik xom ashyosini qadoqlash va realizatsiya qilish kabi yo'nalishlarini izohlab beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi qonuni 2000-yil 25-may, 71-II-son bo'yicha qabul qilingan.

Ushbu qonun faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

"Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi qonun hujjatlari ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Faoliyatning ba'zi bir turlarini litsenziyalashning o'ziga xos jihatlari qonun bilan belgilanadi.

Ushbu qonun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) eksport va import qilishni litsenziyalashda, intellektual mulk obyektlaridan foydalanishda, shuningdek kompleks tadbirkorlik litsenziyasi shartnomasi (franshizing to'g'risidagi shartnoma) bo'yicha yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan

boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

– **litsenziya** – litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so'zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq);

– **faoliyatning litsenziyalanayotgan turi** – O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi;

– **litsenziyalash** – litsenziya berish to'g'risidagi arizani topshirish va ko'rib chiqish, litsenziyani qayta rasmiylashtirish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish jarayoni bilan bog'liq tadbirlar kompleksi;

– **litsenziya talablari va shartlari** – faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziat tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan, qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlarning majmui;

– **litsenziyalovchi organlar** – qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar;

– **litsenziya da'vogari** – litsenziyalovchi organga faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

– **litsenziat** – faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziyasi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

– **litsenziya shartnomasi** – faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun litsenziatning litsenziya olishi va undan foydalanishi borasidagi litsenziyalovchi organ bilan litsenziya da'vogari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan va ular o'rtasida tuziladigan shartnoma;

– **litsenziyalar reyestri** – berilgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan litsenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan litsenziyalovchi organlarning ma'lumotlar bazalari majmui.

Litsenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solish

Litsenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda litsenziyalovchi organlar amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining litsenziyalash sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- litsenziyalovchi organlarni va faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash tartibini belgilash, qonunda nazarda tutilgan hol- lar bundan mustasno;

- O'zbekiston Respublikasi hududida litsenziyalar reyestrini yuritish tartibini belgilash;

- faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash sohasidagi qonun hujjatlariga litsenziyalovchi organlarning rioya etishlarini nazorat qilish;

litsenziyalashning ayrim turlarini amalga oshirish.

Litsenziyalovchi organlarning vakolatlari

Litsenziyalovchi organlarning vakolatlari jumlasiga qu- yidagilar kiradi:

- faoliyatning ayrim turlarini qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalash;

- qonunda nazarda tutilgan hollarda faoliyatning tegishli turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

- litsenziya talablari va shartlariga litsenziyatlar rioya etishini nazorat qilish;

- litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish;

- litsenziyalarning amal qilishini to'xtatib turish, qayta tiklash;

- litsenziyalarning amal qilishini tugatish;

- litsenziyalarni bekor qilish;

- litsenziyalar reyestrini yuritish.

Litsenziyalovchi organlar shu organlar litsenziyalaydigan faoliyat turlari bilan shug'ullanayotgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tuzishga yoki ular faoliyatida muassislar (qat- nashchilar) sifatida ishtirok etishga haqli emas, qonun hujjatla- rida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Amalga oshirish uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlari

Faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini aniqlash

Faoliyatning litsenziyalanadigan turlari jumlasiga amalga oshirilishi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hamda tartibga solib turilishi litsenziyalashdan tashqari usullar bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyat turlari kiradi.

Amalga oshirilishi uchun litsenziya talab qilinadigan faoliyat turlari qonunlar bilan belgilanadi.

Faoliyatning litsenziyalanadigan ayrim turlarini jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirishni taqiqlash

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullananayotgan jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar) faoliyatning litsenziyalanadigan ayrim turlarini amalga oshirishini taqiqlab qo'yishi mumkin, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Davlat unitar korxonalari va muassasalari tomonidan faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini amalga oshirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tuzilgan davlat unitar korxonalari va muassasalari, basharti ularni tashkil etish to'g'risidagi hujjatlarda faoliyatning mazkur turini amalga oshirish nazarda tutilgan bo'lsa, faoliyatning litsenziyalanadigan turini tegishli litsenziyani olmasdan amalga oshirishga haqlidir. Mazkur qoida ko'rsatilgan korxonalar va muassasalarni litsenziya talablari va shartlarini, shuningdek faoliyatning litsenziyalanadigan turlarini amalga oshirish bilan bog'liq, qonun hujjatlariga muvofiq qo'yiladigan boshqa talablarni bajarishdan ozod etmaydi.

3.2. Litsenziyalarning turlari

Litsenziyalar namunaviy (oddiy) va yakka tartibdagi bo'lishi mumkin.

Namunaviy (oddiy) litsenziyalar jumlasiga cheklanmagan doiradagi yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan litsenzi-

yalar kiradi, agar ushbu shaxslar tegishli faoliyat turini amalga oshirishga nisbatan qo'yiladigan yagona shartlar va talablarga javob bersalar.

Yakka tartibdagi litsenziyalar jumlasiga yuridik va jismoniy shaxslarga alohida talablar va shartlar asosida beriladigan, litsenziatlarga faoliyatning mazkur turini amalga oshirishda mutlaq huquqlar beruvchi, miqdoriy cheklangan litsenziyalar kiradi. Yakka tartibdagi litsenziyalar amal qilish hududi, faoliyat obyekti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan boshqa asoslarga ko'ra miqdoriy cheklanadi.

Yakka tartibdagi litsenziyalarni berish, qoida tariqasida, tanlov (tender) asosida amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi litsenziyalarni berish tartibi va shartlari, shu jumladan tanlovlarni (tenderlarni) o'tkazish shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

3.3. Litsenziyaning amal qilishi

Litsenziya har bir litsenziyalanadigan faoliyat turi uchun alohida beriladi. Litsenziya da'vogarining arizasiga muvofiq litsenziya litsenziyalanayotgan faoliyat turining bir qismiga (qismlariga) berilishi mumkin.

Amalga oshirilishi uchun litsenziya olingan faoliyat turi faqat litsenziyani olgan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Litsenziyalarni yoki ularga doir huquqlarni boshqa shaxslarga berish taqiqlanadi.

Amalga oshirilishi uchun litsenziya berilgan faoliyat, agar litsenziya talablari va shartlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshirilishi mumkin.

3.4. Litsenziyaning amal qilish muddati

Litsenziyaning amal qilish muddati, qoida tariqasida cheklanmaydi.

Litsenziya — litsenziya da'vogarining arizasida ko'rsatilgan muddatga beriladi. Qonun hujjatlari bilan litsenziyaning cheklangan amal qilish muddati belgilanishi mumkin, lekin bu muddat besh yildan kam bo'lmashligi lozim. Litsenziya faqat litsenziya da'vogarining arizasiga ko'ra besh yildan kam muddatga berilishi mumkin.

Faoliyatning ayrim turini amalga oshirishga doir davlat monopoliyasi joriy etilgan hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziyaning amal qilish muddati besh yildan kamroq etib belgilanishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilish muddati tugagach, u litsenziyaning arizasiga binoan uzaytirilishi mumkin. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza litsenziyalovchi organga litsenziyaning amal qilish muddati tugashidan kamida ikki oy oldin berilishi lozim. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish litsenziyani berish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

3.5. Litsenziya talablari va shartlari

Faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirishda rioya etiladigan litsenziya talablari va shartlari faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlar bilan belgilanib, ular quyidagi normalarni o'z ichiga olishi lozim:

– litsenziyaning qonun hujjatlariga rioya etishi shartligi to'g'risidagi;

– faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirishga da'vogar shaxslarga qo'yiladigan malaka talablari, jumladan maxsus bilimlarga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi;

– faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirishning maxsus shartlariga qo'yiladigan talablar, jumladan foydalaniladigan moddiy-texnika bazasi, asbob-uskunalar, boshqa texnik vositalarga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi.

Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarda litsenziyalanayotgan faoliyat turi xususida qo'shimcha litsenziya talablari va shartlari nazarda tutilishi mumkin.

3.6. Litsenziya olish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Litsenziya olish uchun litsenziya da'vogari tegishli litsenziyalovchi organga quyidagilarni taqdim etadi:

litsenziya berish to'g'risidagi ariza – unda: yuridik shaxs uchun – yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan yeri (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bank muassasasidagi hisobvarag'i raqami; jismoniy shaxs uchun – familiyasi, ismi va otasining ismi, fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning ma'lumotlari; yuridik yoki jismoniy shaxs amalga oshirishni mo'ljallagan faoliyatning litsenziyalanayotgan turi (uning bir qismi), hamda faoliyatning mazkur turi.

yuridik shaxslar uchun – yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvoohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi; jismoniy shaxslar uchun – yakka tartibdagi tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvoohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;

litsenziyalovchi organ litsenziya da'vogarining arizasini ko'rib chiqishi uchun litsenziya da'vogari yig'im to'laganligini tasdiqlovchi hujjat;

faoliyatning ayrim turiga litsenziya olish uchun qo'yiladigan talablar va shartlarni litsenziya da'vogari bajarishi mumkinligini tasdiqlovchi hamda qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan boshqa hujjatlar.

Litsenziya da'vogaridan ushbu qonunda hamda faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi o'zga qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Hujjatlar litsenziya da'vogari tomonidan litsenziyalovchi organga bevosita yoki pochta aloqasi vositalari orqali, ular olingani haqidagi tasdiqni olgan holda, yetkazib beriladi.

Litsenziya olish uchun tegishli litsenziyalovchi organga yuborilgan hujjatlar ro'yxat bo'yicha qabul qilinib, ro'yxatning nusxasi mazkur organ tomonidan hujjatlar qabul qilib olingan sana ko'rsatilgan holda arizachiga yuboriladi (topshiriladi).

Noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etganligi uchun litsenziya da'vogari qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

3.7. Litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im

Litsenziyalovchi organ litsenziya da'vogarining arizasini ko'rib chiqqanligi uchun yig'im undiriladi.

Litsenziya da'vogarining arizasini ko'rib chiqqanlik uchun yig'im miqdori har bir litsenziyalanadigan faoliyat turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Bunda yig'imning eng ko'p miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining besh baravaridan oshib ketishi mumkin emas.

Litsenziya da'vogarlarining arizalarini ko'rib chiqqanlik uchun yig'im summalari litsenziyalovchi organ hisob varag'iga o'tkaziladi.

Litsenziya da'vogari bergan arizasidan voz kechgan taqdirda to'langan yig'im summasi qaytarilmaydi.

3.8. Litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilish

Litsenziya da'vogarining arizasini barcha zarur hujjatlar bilan birga olgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan oshmagan muddat ichida litsenziyalovchi organ namunaviy (oddiy) litsenziya berish haqida yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Namunaviy (oddiy) litsenziya berish haqida yoki berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishning eng kam muddatlari faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarda belgilab qo'yilishi mumkin.

Litsenziyalovchi organ, zarur holda, o'z mablag'lari hisobidan tegishli xulosalarni tayyorlash uchun ekspertlarni shartnoma asosida jalb etishga haqli.

Litsenziyalovchi organ litsenziya da'vogarini qabul qilingan qaror to'g'risida mazkur organ tegishli qarorni qabul qilganidan keyin uch kun ichida xabardor qilishi shart.

Litsenziya berish to'g'risida qaror qabul qilingani haqidagi xabarnoma litsenziya da'vogariga yozma shaklda bank hisob varag'i rekvizitlari va davlat bojini to'lash muddati ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi).

Litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnoma litsenziya da'vogariga yozma shaklda, rad etishning sabablari va litsenziya da'vogari ko'rsatilgan sabablarni bartaraf qilib, hujjatlarni ko'rib chiqish uchun takror taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi).

Litsenziya da'vogari litsenziya berish rad etilishi uchun asos bo'lgan sabablarni bartaraf etgan taqdirda, litsenziya da'vogarining arizasini barcha zarur hujjatlar bilan birga olgan kundan e'tiboran o'n kundan oshmagan muddat ichida litsenziyalovchi organ hujjatlarni qayta ko'rib chiqadi. Litsenziya da'vogarlarining arizalarini qayta ko'rib chiqqanlik uchun yig'im undirilmaydi. Litsenziya berishni rad etish haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tgach, berilgan ariza – yangidan berilgan deb hisoblanadi.

Litsenziya da'vogari davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etgan taqdirda hamda u litsenziya shartnomasini imzolaganidan keyin litsenziya beriladi.

Agar litsenziat unga litsenziya berish to'g'risidagi qaror qabul qilingani haqidagi xabarnoma yuborilgan (topshirilgan) paytdan e'tiboran uch oy ichida litsenziyalovchi organga litsenziya berganlik uchun davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmagan yoki litsenziya shartnomasini imzolamagan bo'lsa, litsenziyalovchi organ mazkur litsenziyani bekor qilishga haqli.

3.9. Litsenziya berishni rad etish

Litsenziya berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

– litsenziya da'vogarining hujjatlarni lozim tarzda rasmiylashtirmay taqdim etishi;

– litsenziya da'vogari taqdim etgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

– litsenziya da’vogarining litsenziya talablari va shartlariga, shuningdek tanlov (tender) shartlariga nomuvofiqligi.

Boshqa asoslarga ko’ra, shu jumladan litsenziya berish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan litsenziya berishni rad etishga yo’l qo’yilmaydi.

Litsenziya da’vogari litsenziyalovchi organning litsenziya berishni rad etish to’g’risidagi qarori ustidan, shuningdek litsenziyalovchi organ mansabdor shaxsining harakati (harakatsizligi) ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

3.10. Litsenziyalarni rasmiylashtirish

Litsenziyalar tegishli blanklarda rasmiylashtiriladi. Litsenziyalarning blanklari qat’iy hisobot hujjatlari hisoblanadi, ular hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo’lishi lozim. Litsenziya blanklarining namunalari va ularni tayyorlash tartibi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Litsenziya yo’qolgan taqdirda, litsenziatning arizasiga binoan uning dublikati beriladi.

3.11. Litsenziya shartnomasi

Litsenziya shartnomasi litsenziyalovchi organ va litsenziatning o’zaro huquqlari va majburiyatlarini belgilovchi hujjatdir.

Litsenziya shartnomasi quyidagilarni o’z ichiga olgan bo’lishi lozim:

- shartnomani imzolagan shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi;
- taraflarning rekvizitlari;
- amalga oshirilishi uchun litsenziya berilayotgan faoliyat turining nomi;
- litsenziatga qo’yiladigan litsenziya talablari va shartlari;
- litsenziyaning amal qilish muddati;
- litsenziya shartnomasining talablari va shartlarini buzganlik uchun tarallarning javobgarligi;

– litsenziya shartnomasining talablari va shartlarini litsenziat qanday bajarayotganligining litsenziyalovchi organ tomonidan nazorat qilinishi tartibi;

– faoliyatning ayrim turini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomga muvofiq boshqa ma‘lumot.

Litsenziya shartnomasi ikki nusxada – litsenziat hamda litsenziyalovchi organ uchun bittadan nusxada tuziladi.

3.12. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish

Yuridik shaxs bo‘lmish litsenziat qayta tuzilgan, uning nomi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) o‘zgargan taqdirda, litsenziat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro‘yxatdan o‘tganidan keyin bir haftalik muddatda litsenziyalovchi organga, ko‘rsatib o‘tilgan ma‘lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda, litsenziyani qayta rasmiylashtirish to‘g‘risida ariza berishi shart.

Jismoniy shaxs bo‘lmish litsenziat familiyasi, ismi va otasining ismi yoki turar joyi o‘zgargan taqdirda, litsenziat qayta ro‘yxatdan o‘tganidan keyin bir haftalik muddatda litsenziyalovchi organga, ko‘rsatib o‘tilgan ma‘lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda, litsenziyani qayta rasmiylashtirish to‘g‘risida ariza berishi shart.

Hujjatlar litsenziat tomonidan litsenziyalovchi organga bevosita yoki pochta aloqasi vositalari orqali, ular olingani haqidagi tasdiqni olgan holda, yetkazib beriladi.

Litsenziya qayta rasmiylashtirilgunga qadar litsenziat unda ko‘rsatilgan faoliyatni amalga oshirishga haqli emas.

Litsenziya qayta rasmiylashtirilganda litsenziyalovchi organ litsenziyalar reyestriga tegishli o‘zgartishlarni kiritadi. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish litsenziyalovchi organ tegishli hujjatlar ilova qilingan holda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to‘g‘risidagi arizani olgan kundan e‘tiboran besh kun ichida amalga oshiriladi.

Litsenziya qayta rasmiylashtirilganda litsenziya da‘vogari-ning litsenziya berish to‘g‘risidagi arizasini ko‘rib chiqish uchun

to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi litsenziyalovchi organ hisob varag'iga o'tkaziladi.

3.13. Dorixona filialini ochish tartibi

Litsenziat tomonidan dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish bilan shug'ullanish uchun berilgan litsenziya doirasida dorixona filiali ochilgan taqdirda litsenziat litsenziyalovchi organga belgilangan tartibda tegishli ariza bilan murojaat qiladi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish bilan shug'ullanish uchun berilgan litsenziya doirasida dorixona filiali ochilgan taqdirda dorixona maydoni, filiali mavjud bo'lgan dorixonalariga qo'yiladigan sanitariya-epidemiologik me'yorlarga mos bo'lishi kerak.

Ariza ko'rib chiqilganligi uchun litsenziatdan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida yig'im undiriladi.

Ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im dori vositalari va tibbiy buyumlarini chakana realizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi ochiladigan filiallar soni barobaridagi miqdorda undiriladi.

Litsenziat tomonidan litsenziya berish to'g'risidagi ariza yagona portal orqali taqdim etilganda arizani ko'rib chiqish yig'im summasining:

– 11,25 foizi – “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi” Davlat unitar korxonasi(DUK)ning vakolatli bankdagi maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi;

– 10 foizi – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining budjetdan tashqari jamg'armasining shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi;

qolgan qismi litsenziya beruvchi organ hisob raqamiga o'tkaziladi.

Markazga o'zi kelib murojaat qilingan taqdirda litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun belgilangan

yig'inning 20 foizi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining budjetdan tashqari shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi.

Arizani ko'rib chiqish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Dorixona filiali uchun litsenziya quyidagi qo'shimcha talablarni nazarda tutgan holda rasmiylashtiriladi:

– litsenziatga dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish bilan shug'ullanish uchun berilgan litsenziya ro'yxat raqamidan so'ng "tire" belgisi orqali ochilayotgan filial tartib raqamini ko'rsatish;

– dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish amalga oshiriladigan filial manzilini ko'rsatish.

Dorixona filiali uchun litsenziya berishda davlat boji undirish talab etilmaydi.

3.14. Litsenziyani qayta rasmiylashtirish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikat berish

Litsenziat o'zgartirilgan, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, litsenziat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bir oy muddatda belgilangan tartibda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi shart.

Yangidan yuzaga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida faoliyatning ayni bir litsenziyalanadigan turini (uning qismini) amalga oshirish uchun litsenziyaga ega yuridik shaxslar bo'lmish litsenziatlar qo'shib yuborilgan taqdirda litsenziyani qayta rasmiylashtirishga yo'l qo'yiladi.

Litsenziyaning amal qilishi litsenziyalanadigan faoliyat turining bir qismi (qismlari) uchun tugatilgan taqdirda, litsenziya qayta rasmiylashtiriladi.

Rasmiylashtirilgan litsenziya litsenziat tomonidan markazga bevosita taqdim etiladi. Markaz xodimi litsenziyani olgan kundan e'tiboran uch kun muddatda uni litsenziyalovchi organga taqdim etadi.

Litsenziyalovchi organ ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali oladi.

Litsenziat litsenziya qayta rasmiylashtirilguniga qadar unda ko'rsatilgan faoliyatni ilgari berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirishda litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan summaning yarmi miqdorida yig'im undiriladi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza yagona portal orqali taqdim etilganda arizani ko'rib chiqish yig'im summasining:

11,25 foizi – “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi” Davlat unitar korxonasi(DUK)ning vakolatli bankdagi maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi;

10 foizi – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining budjetdan tashqari jam'armasining shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi;

qolgan qismi litsenziya beruvchi organ hisob raqamiga o'tkaziladi.

Markazga o'zi kelib murojaat qilingan taqdirda litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun belgilangan yig'imning 20 foizi belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining budjetdan tashqari shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirish litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza markaz olgan kundan yoki litsenziyaning amal qilishini litsenziyalanadigan faoliyat turining bir qismi (qismlari) uchun to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan yoki yagona portal orqali litsenziyalovchi organ tomonidan olingan kundan boshlab besh kun mobaynida amalga oshiriladi.

Litsenziyalovchi organ litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqib, litsenziyani rasmiylashtiriladi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirish jarayonida litsenziyalovchi organ litsenziyalar reyestriga tegishli o'zgartirishlarni elektron tarzda kiritadi.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirishda ilgari berilgan litsenziyaning amal qilish muddati o'zgar olmaydi.

Litsenziya yo'qotib qo'yilgan yoki u yaroqsiz holga kelib qolgan taqdirda dublikat beriladi. Dublikat olish uchun litsenziyat ariza bilan markazga o'zi kelib yoki Yagona portal orqali litsenziyalovchi organga ariza va litsenziya yo'qotib qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjat bilan murojaat qiladi.

Litsenziya dublikati berishda litsenziya berganlik uchun nazarda tutilgan yig'im summasining yarmi miqdorida to'lov undiriladi.

Litsenziya dublikatini olish uchun Yagona portal orqali murojaat etilganda, ko'rsatilgan yig'im summasining 90 foizi undiriladi.

Litsenziyaning amal qilish muddati litsenziyatning arizasiga binoan uzaytirilishi mumkin. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza organga litsenziyaning amal qilish muddati tugagunga qadar ikki oydan kechikmasdan berilishi kerak. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish litsenziya olish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

3.15. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish

Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat amalga oshirilayotganda litsenziyalovchi organlar o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga egadirlar:

– litsenziyatlar litsenziya talablari va shartlariga rioya etayotganligi ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali tekshiruvlar o'tkazish;

– litsenziyat tomonidan litsenziya talablari va shartlari buzilganligidan guvohlik beruvchi faktlar mavjud bo'lgan hollarda, litsenziyat litsenziya talablari va shartlariga rioya etayotganligi

ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazish;

– litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilayotganda yuzaga keladigan masalalar bo'yicha litsenziatdan zarur ma'lumotlarni talab qilish va olish;

– tekshiruv natijalari asosida litsenziat yo'l qo'ygan litsenziya talablari va shartlarining aniq qoidabuzilishlarini ko'rsatgan holda dalolatnomalar (ma'lumotnomalar) tuzish;

– litsenziat zimmasiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar chiqarish, bunday qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatlarini belgilash;

– litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish.

Litsenziyalovchi organlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishlari mumkin.

Nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlari buzilishlariga yo'l qo'yilganligini aniqlaganlari taqdirda o'z vakolatlari doirasida litsenziyani bergan litsenziyalovchi organga aniqlangan qoidabuzarliklar haqida xabar qiladilar.

3.16. Litsenziyaning amal qilish muddatini to'xtatib turish

Litsenziyalovchi organlar litsenziyaning amal qilishini quyidagi hollarda to'xtatib turishlari mumkin:

litsenziat litsenziya shartnomasida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlarini buzganligi aniqlanganda;

litsenziyalovchi organlarning litsenziat zimmasiga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlari litsenziat tomonidan bajarilmaganda.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror mazkur qarorni qabul qilgan litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay asoslangan dalillar bilan yetkaziladi.

Litsenziyalovchi organ litsenziat tomonidan litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga olib kelgan holatlarni bartaraf etish uchun muddat belgilashi shart. Ko'rsatilgan muddat olti oydan oshishi mumkin emas.

Litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilishiga olib kelgan holatlarni litsenziat bartaraf etgan taqdirda, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turgan litsenziyalovchi organ ko'rsatilgan holatlar bartaraf etilganligi to'g'risidagi tasdiqnomani olgan kundan e'tiboran o'n kunlik muddat ichida litsenziyaning amal qilishini tiklash to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin. Sud litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishni asossiz deb topgan taqdirda, litsenziyalovchi organ litsenziat oldida unga yetkazilgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish va tiklash to'g'risidagi qarorlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi kerak.

3.17. Litsenziyaning amal qilish muddatini tugatish

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda tugatiladi:

– litsenziat litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;

– yuridik shaxs tugatilganda – tugatilgan paytdan e'tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda

– qayta tashkil etilgan paytdan e'tiboran, uning o'zgartirilishi bundan mustasno;

– yakka tartibdagi tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishi tugatilganda;

– yakka tartibdagi tadbirkorning muomalaga layoqatliligi belgilangan tartibda cheklanganda yoki u muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

– litsenziat litsenziya shartnomasida nazarda tutilgan litsenziya talablarini va shartlarini muntazam ravishda yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzganda;

– litsenziat litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turishiga olib kelgan holatlarni litsenziyalovchi organ belgilagan muddatda bartaraf etmaganda;

– litsenziyalovchi organning litsenziya berish to‘g‘risidagi qarorining qonunga xilofligi aniqlanganda;

– litsenziyaning amal qilish muddati tugaganda.

Litsenziyaning amal qilishi sudning qaroriga binoan ham tugatilishi mumkin.

Litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qaror mazkur qarorni qabul qilgan litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran uch kundan kechiktirmay asoslangan dalillar bilan yetkaziladi. Litsenziat litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qarorni olgan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida litsenziya litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo‘q qilinishi kerak.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qarori ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinishi kerak.

Tugatish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanadan e‘tiboran litsenziyaning amal qilishi tugatiladi.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin. Sud litsenziyaning amal qilishini tugatishni asossiz deb topgan taqdirda, litsenziyalovchi organ litsenziat oldida unga yetkazilgan zarar miqdorida javobgar bo‘ladi.

3.18. Litsenziyani bekor qilish

Litsenziya quyidagi hollarda bekor qilinadi:

– litsenziat litsenziyani bekor qilish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilganda;

– litsenziya soxta hujjatlardan foydalanilgan holda olinganligi fakti aniqlanganda.

Litsenziya sudning qaroriga binoan ham bekor qilinishi mumkin.

Litsenziyaning bekor qilinishi to'g'risidagi qaror mazkur qarorni qabul qilgan litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziyatga yozma shaklda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay asoslangan dalillar bilan yetkaziladi. Litsenziyat litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarorni olgan kundan e'tiboran o'n kun ichida litsenziya litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak.

Litsenziyalovchi organning litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi kerak.

Bekor qilish to'g'risidagi qaror litsenziya berilgan sanadan e'tiboran amal qiladi.

Litsenziyalovchi organning litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin. Sud litsenziyaning bekor qilinishini asossiz deb topgan taqdirda, litsenziyalovchi organ litsenziyat oldida unga etkazilgan zarar miqdorida javobgar bo'ladi.

3.19. Litsenziyalarning reyestrlari

Litsenziyalovchi organlar o'zlari litsenziyalashni amalga oshirayotgan faoliyatning har bir turi uchun alohida litsenziyalarning reyestrlarini yuritadilar.

Litsenziyalar reyestrining har birida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi lozim:

- litsenziyatlar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar;
- litsenziyalar berilgan sana va litsenziyalarning tartib raqamlari;
- litsenziyalarning amal qilish muddatlari;
- litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish, ularning amal qilishini to'xtatib turish va qayta tiklash asoslari hamda sanalari;
- litsenziyalarning amal qilishini tugatish asoslari va sanalari;
- litsenziyalarni bekor qilish asoslari va sanalari;
- faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarda belgilangan boshqa ma'lumotlar.

Litsenziyalar reyestrlarida mavjud bo'lgan axborot yuridik va jismoniy shaxslar tanishishi uchun ochiq bo'lib, ular haq

evaziga litsenziyalovchi organlardan litsenziyalar reyestrlaridan muayyan litsenziatlar to'g'risida ko'chirmalar tariqasida axborot olishga haqlidirlar. Mazkur axborotni taqdim etganlik uchun haq olish tartibi va uning miqdori faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarda belgilanadi.

Litsenziyalovchi organlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga litsenziyalarning reyestrlaridan axborotni bepul berishlari shart.

3.20. Litsenziya berganlik uchun davlat boji

Litsenziya berganlik va litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun davlat boji undiriladi.

Litsenziya berganlik va litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun davlat boji miqdorlari va uni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Faoliyatning litsenziyalanadigan turining bir qismi uchun litsenziya berganlik va litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirganlik uchun davlat boji stavkalarining kamaytirilgan miqdorlari belgilanishi mumkin. Davlat boji stavkalarining kamaytirilgan miqdorlari litsenziya qonun hujjatlarida belgilanganidan kamroq muddatga berilganda va litsenziyaning amal qilish muddati uzaytirilganda ham belgilanishi mumkin.

3.21. Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida: Farmatsevtika

faoliyatini (dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish bundan mustasno) litsenziyalash tartibi farmatsevtika faoliyatini litsenziyalashda elektron axborot almashinuvi tasdiqlandi.

– O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish huquqi uchun oldin berilgan litsenziyalar ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar amal qiladi;

– dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun berilgan litsenziyalar farmatsevtika faoliyatining boshqa yo‘nalishlarini amalga oshirish huquqi uchun litsenziyalardan alohida beriladi va O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida amal qiladi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibi va litsenziyalarning turlari.

2. Litsenziyaning amal qilish muddati, talablari va shartlari qanday?

3. Litsenziya olish uchun zarur bo‘ladigan hujjatlar qaysilar?

4. Litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqqanlik uchun yig‘im va litsenziya berish to‘g‘risida qaror qabul qilish.

5. Litsenziya berishni rad etish yoki rasmiylashtirish haqida nimalarni bilib oldingiz?

6. Litsenziya shartnomasi va uni qayta rasmiylashtirish, amal qilish muddatini uzaytirish, dublikat berish tartibi qanday?

7. Dorixona filialining ochish tartibi.

8. Litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, uning amal qilish muddatini to‘xtatib turish


9. Litsenziyaning amal qilishini tugatish va bekor qilish.

10. Litsenziyalarning reyestrlari va litsenziya berganlik uchun davlat boji.

11. Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qanday javobgarlikka tortiladilar?

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1-vazifa. Litsenziya talablari va shartlariga doir «Klaster» tuzing va ish daftaringizda aks ettiring.



Klaster tuzishda quyidagi ma'lumotlardan foydalaning:

1) "Farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi qonun hujjatlariga qat'iy rioya etish;

2) faoliyatni litsenziyada ko'rsatilgan faoliyat doirasida, shuningdek litsenziya bitimiga muvofiq manzil (manzillar) bo'yicha amalga oshirish;

3) litsenziat litsenziyalanayotgan faoliyatni amalga oshirish unga mulk huquqi bilan yoki boshqa qonuniy asosda tegishli sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq binolarga ega bo'lishi;

4) litsenziyalanadigan aniq faoliyat turini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan tegishli moddiy-texnik bazadan, asbob-uskunalardan va boshqa texnik vositalardan foydalanish;

5) dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, sotish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar talablariga rioya qilish;

6) ekologiya va sanitariya-gigiyena normalari va qoidalariga rioya etish.

2-vazifa. Quyidagi jadvalga mos ta'rifni aniqlab, uni to'ldiring.

Litsenziyalashning asosiy vazifasi	Dori-darmon vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqarish. Dori-darmon vositalari va tibbiy buyumlar tayyorlash.
Litsenziyalashning asosiy tamoyillari	Litsenziat tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rejali tekshirish. Litsenziya talablari va shartlari litsenziat tomonidan buzilganligidan dalolat beruvchi hollar mavjud bo'lgan taqdirda litsenziatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini qonunda belgilangan tartibda rejadan tashqari tekshirish.
Farmatsevtika faoliyatini litsenziyalanadigan turlari	Litsenziyalanadigan faoliyat turlarining yagona ro'yxatini belgilash. O'zbekiston Respublikasi hududida litsenziyalashning yagona tartibini belgilash.
Litsenziya bitimi talablariga rioya etilishini nazorat qilishda litsenziyalovchi organ vakolatlari	Fuqarolarning qonuniy manfaatlari va davlat xavfsizligini himoya qilish. Dori vositalari va tibbiy buyumlar ta'minotining sifatini ta'minlash.

3-vazifa. Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni "Insert" usulida ish daftaringizda aks ettiring.

Insert – samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib o'rganishda yordam beradi.

Bunda amaliy mashg'ulot mavzulari, kitob va boshqa materiallar talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, ("V"+, -, ?) belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(V) – men bilgan narsani tasdiqlaydi,

(+) – yangi ma'lumot,

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

Tushunchalar	V	+	-	?
litsenziya				
litsenziya talab va shartlari				
litsenziyalar reyestri				

4-vazifa. Mavzuda o'zlashtirgan bilimlar asosida "Assesment" jadvalini tuzing.

Test savollari	Vaziyatli masalalar
Tushunchalar	Ko'nikmalar

5-vazifa. Farmatsevtik faoliyatga litsenziya berishga doir me'yoriy hujjatlarni ish daftaringizda aks ettiring.

Testlar

1. "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilindi?

- A. 25.05.2000-y.
- B. 07.09.2011-y.
- C. 25.05.2003-y.
- D. 12.05.2001-y.

2. Litsenziya olish uchun hujjatlar qaysi organlar tomonidan ko'rib chiqiladi?

- A. Maxsus komissiya tomonidan.
- B. Mas'ul kotib tomonidan.
- C. Mutaxassis tomonidan.
- D. Farmatsevt tomonidan.

3. Farmatsevtik faoliyat uchun litsenziya hay'ati tarkibi qanday guruhlardan iborat?

- A. Hay'at raisi.
- B. A'zolar.
- C. Texnik guruh.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

4. Litsenziya bu:

A. Maxsus hisobdagi hujjat bo'lib o'zining takrorlanmas tartib raqamiga ega.

- B. Tibbiy hujjat yuridik shaxsga beriladi.
- C. Tibbiy hujjat bo'lib takrorlanadigan tartib raqamiga ega.
- D. Jismoniy shaxsga beriladigan hujjat

5. Litsenziya blankalari qanday ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak?

- A. Hisobga olish seriyasiga.
- B. Tartib raqamiga.

C. Himoyalanganlik darajasiga.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

6. Sog'liqni saqlash vazirligiga qanday faoliyat turlarini litsenziyalash yuklatilgan?

A. Tibbiy faoliyat.

B. Farmatsevtik faoliyat.

C. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning aylanmasi bilan bog'liq faoliyat.

D. Barcha javoblar to'g'ri.

7. Farmatsevtika faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berilganligi yoki uning amal qilish muddati uzaytirilganligi uchun eng kam oylik ish haqining necha baravari miqdorida davlat boji undiriladi?

A. 10 barobar.

B. 5 barobar.

C. 15 barobar.

D. 4/1 qismi.

8. Davlat boji summasi qayerga yo'naltiriladi?

A. Respublika byudjetiga.

B. Davlat markaziy bankiga.

C. Bojxonaga.

D. Soliq idorasiga.

9. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish, dublikat berish necha turda bo'ladi?

A. 3 turda.

B. 5 turda.

C. 6 turda.

D. 4 turda.

10. Litsenziyalar reyestri bu ...

A. Litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan litsenziyalovchi organlarning ma'lumotlar bazalari majmuyi.

B. Berilgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan litsenziyalar.

- C. Amal qilishi tugatilgan litsenziyalar.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

11. Faoliyatning litsenziyalanayotgan turi bu:

- A. O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi.
- B. Sertifikat.
- C. Dalolatnoma.
- D. Talabnoma.

12. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan 2020-yil 1-yanvardan boshlab necha turdagi hujjatlar fuqarolardan talab qilinadi?

- A. 28 turdagi.
- B. 20 turdagi.
- C. 10 turdagi.
- D. 15 turdagi.

13. Dori vositalari va tibbiyot buyumlarining chakana savdosini amalga oshirishga litsenziya berish qaysi organga yuklatilgan?

- A. Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligiga yuklatilgan.
- B. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligiga yuklatilgan.
- C. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligiga yuklatilgan.
- D. Dori vositalarini standartlashtirish va ekspertiza qilish Davlat markaziga yuklatilgan.

14. Farmatsevtik faoliyatni litsenziyalanadigan nechta turi mavjud?

- A. 8.
- B. 7.
- C. 12.
- D. 10.

15. Faoliyatning litsenziyalanayotgan turi bu:

A. O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya talab qilinadigan faoliyat turi.

B. Litsenziya talablari va shartlari talab qilinadigan tadbirlar kompleksi.

C. Qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlar majmuasi.

D. Litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organ.

16. Litsenziya da'vogari bu kim?

A. Litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

B. Litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan yuridik shaxs.

C. Litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan jismoniy shaxs.

D. Litsenziya berish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilgan shaxs.

17. Litsenziyalovchi organlar:

A. Qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus organlar.

B. Sog'liqni saqlash vazirligi buyruqlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus organlar.

C. Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus organlar.

D. Oliy Majlis tomonidan chiqariladigan qonunlarga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus organlar.

18. Dorixonada tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish zali necha kv.m.dan kam bo'lmashligi lozim?

A. 16.

B. 8.

C. 12.

D. 10.

19. Dori vositalari va tibbiy buyumlarning chakana savdosini amalga oshirishga litsenziya berish qachondan Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligiga yuklatilgan?

- A. 2020-yil 1-yanvardan
- B. 2019-yil 8-yanvardan
- C. 2017-yil 7-fevraldan
- D. 2010-yil 1-sentyabrdan

20. Litsenziya bitimini tuzish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun yig'im summasi qancha va qaysi vakolatli organlarga to'lanadi?

A. 10 foizi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining byudjetdan tashqari shaxsiy hisob raqamiga; 11,25 foizi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi" DUK hisob raqamiga; qolgan qismi litsenziya beruvchi organning hisob raqamiga o'tkaziladi.

B. 10 foizi litsenziya beruvchi organning hisob raqamiga o'tkaziladi; 11,25 foizi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi" DUK hisob raqamiga; qolgan qismi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining byudjetdan tashqari shaxsiy hisob raqamiga o'tkaziladi.

C. 10 foizi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi" DUK hisob raqamiga; 11,25 foizi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi" DUK hisob raqamiga; qolgan qismi litsenziya beruvchi organning hisob raqamiga o'tkaziladi.

D. 10 foizi Dori vositalarini standartlashtirish va eksperti-za qilish davlat markaziga shaxsiy hisob raqamiga; 11,25 foizi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha bosh-

qaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi” DUK hisob raqamiga; qolgan qismi litsenziya beruvchi organning hisob raqamiga o‘tkaziladi.

IV BOB

DORIXONA TASHKILOTLARIDA CHAKANA SAVDONI TASHKIL QILISH

4.1. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi

4.2. Asosiy tushunchalar

4.3. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni tashkil etish shartlari

4.4. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish sharoitlarini ta'minlash

4.5. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun moddiy-texnika bazaga, binoga (xonaga) qo'yiladigan talablar

 Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

 Mustaqil bajarish uchun vazifalar

 Testlar

Mavzuning maqsadi: dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishda davlat standartlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena talablariga, yong'in xavfsizligi qoidalari, mehnat muhofazasi qoidalari, texnika xavfsizligi qoidalari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi ta'minlanishi kerak.

Dorixonalar tegishli davlat standartlari talabiga muvofiq dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash va chakana realizatsiya qilishda ularning sifatini, xavfsizligini va bezararligini ta'minlash talabiga javob beradigan tegishli bino, asbob-uskunalar va jihozlarga ega bo'lishi kerak. Talabalarga chakana savdo qonun-qoidalarini o'rgatish, "merchandayzing" tushunchasi haqidagi bilimlarning darajasiga hamda amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Talabalarda chakana savdo qonun qoidalarini, "merchandayzing" tushunchasi haqidagi ma'lumotlar bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish.

4.1. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi

«Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi quyidagilarni belgilaydi:

– talablar, ularning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar, barcha dorixonalar uchun majburiydir;

– dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish faqat dorixonalar va dorixonalarning filiallari orqali amalga oshiriladi;

– O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan yoki dorixonalar tomonidan tayyorlangan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishga ruxsat beriladi;

– elektron tijorat orqali faqat retseptsiz beriladigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni realizatsiya qilish, saqlash va yetkazib berishda ularning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, hujjatli va elektron rasmiylashtirish tartibi va talablariga qat'iy rioya qilgan hamda qonun hujjatlari talablarini inobatga olgan holda amalga oshirishga ruxsat etiladi.

4.2. Asosiy tushunchalar

Dori vositalari – kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari.

Dori preparatlari – dozalangan, idishga joylangan-o'ralgan, qo'llanish uchun tayyor dori vositalari.

Sifatsiz dori vositasi va tibbiy buyum – yaroqsiz holga kelgan va (yoki) yaroqlilik muddati o'tgan dori vositasi va tibbiy buyum.

Tibbiy buyumlar – kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash uchun, shuningdek odam orga-

nizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat etilgan buyumlar.

Farmatsevtika faoliyati — dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini, shuningdek ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni realizatsiya qilishni qamrab oladigan faoliyat.

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalari — intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan holda muomalaga kiritilgan dori vositalari.

Qalbakilashtirilgan dori vositasi va tibbiy buyum — tarkibi yoki xususiyati to'g'risida yoxud ishlab chiqaruvchisi haqida yolg'on axborot ilova qilingan dori vositasi va tibbiy buyum.

Muvofiqlik sertifikat — sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat.

Birlamchi o'ram — dori vositasi bilan bevosita aloqada bo'lgan konteyner yoki o'ram.

Xalqaro patentlanmagan nom — Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan dori vositasi tarkibidagi faol dori moddasi (substansiyasi)ning qisqartirilgan nomini berish orqali dori vositasini identifikatsiya qilish.

Elektron retsept — yagona elektron retseptlar ma'lumotlar bazasini shakllantirish va shifokorning farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassisga dori preparatini tayyorlash va berish hamda uning qo'llanilish usuli to'g'risidagi ko'rsatmasini tezkor ravishda olish imkonini beruvchi elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiyalash imkonini beradigan boshqa rekvizitlarga ega bo'lgan elektron hujjat. Elektron retsept axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlari hamda texnik vositalardan foydalangan holda yaratiladi, qayta ishlanadi va saqlanadi.

4.3. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni tashkil etish tartibi va shartlari

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishda davlat standartlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena talablariga, yong'in xavfsizligi qoidalarga, mehnat muhofazasi qoidalarga, texnika xavfsizligi qoidalarga va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi boshqa normativ hujjatlarga rioya etilishi ta'minlanishi kerak.

Dorixonalar tegishli davlat standartlari talabiga muvofiq dori vositalarini va tibbiy buyumlarni saqlash va chakana realizatsiya qilishda ularning sifatini, xavfsizligini va bezararligini ta'minlash talabiga javob beradigan tegishli bino, asbob-uskunalar va jihozlarga ega bo'lishi kerak.

Dorixona mudiri oliy farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Dorixona filialining mudiri oliy yoki o'rta maxsus farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Dori vositalarini chakana realizatsiya qilishga faqat farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislarga ruxsat etiladi.

Dorixonalar tomonidan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, berish, realizatsiya qilish qoidalarga va ularning sifatini ta'minlovchi saqlash sharoitlariga rioya etishi kerak.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni dorixonalardan tashqarida sotish taqiqlanadi.

Chetdan olib kelinadigan, shuningdek, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilaridan sotib olinadigan dori vositalari va tibbiyot buyumlarini chakana sotish ularni yetkazib berishda ishtirok etuvchi vositachilar sonidan qat'iy nazar, chakana savdo uchun ulgurji narxidan 20 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorlarda belgilanadigan cheklangan savdo ustamolari qo'llanilgan holda amalga oshiriladi.

Chetdan olib kelinadigan, shuningdek, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilaridan sotib olinadigan dori vositalari va tibbiy buyumlar ijtimoiy dorixonalar tomonidan ularni yetkazib berishda ishtirok etuvchi vositachilar sonidan qat'iy nazar, xarid

qilish narxi yoki ulgurji narxning 10 foizidan ortiq bo'lmagan cheklangan savdo ustamasi qo'llanilgan holda chakana sotiladi.

Belgilangan tartibda sertifikatlanishi lozim bo'lgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni muvofiqlik sertifikatlarisiz chakana realizatsiya qilish taqiqlanadi.

Sifatsiz, qalbakilashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilmagan dori vositalarini va tibbiy buyumlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilgan dori vositalarining g'ayriqonuniy nusxalarini xarid qilish, chakana realizatsiya qilish hamda ulardan foydalanish taqiqlanadi.

Dorixonalar dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar aniqlangan barcha holatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini belgilangan tartibda yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Dorixonalar farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning raqami, amal qilish muddati, shuningdek litsenziya bergan organ to'g'risidagi ma'lumotlarni yoki litsenziya nusxasini iste'molchilar tanishishi uchun qulay bo'lgan joyga joylashtirishi kerak.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning chakana realizatsiyasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni elektron tijorat orqali chakana realizatsiya qilish taqiqlanadi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni tayyorlash tegishli litsenziyaga ega bo'lgan dorixonalar tomonidan amalga oshiriladi.

Dori vositalari dorixonalarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalaridan (substansiyalardan) tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan, tayyorlashga ruxsat etilgan dori vositalari ro'yxatiga kiritilmagan dori vositalarini tayyorlash taqiqlanadi.

Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, shuningdek ularni saqlash, sifatini nazorat qilish hamda rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilaydigan tartibda dorixonalar tomonidan amalga oshiriladi.

4.4. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish sharoitlari bilan ta'minlash

Dorixona dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni, shuningdek ularni tayyorlashni amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxs shaklida yoki yuridik shaxsning tarkibiy bo'linmasi shaklida tashkil etilishi mumkin. Dorixonalarning filiallari, davolash-profilaktika tashkilotlari dorixonalari ham dorixonalar jumlasiga kiradi.

Dorixonalar alohida binoda yoki turar joy va noturar joy binolarining birinchi qavatida joylashgan bo'lishi, dori vositalarini saqlash va qadoqlash uchun mo'ljallangan xonalar birinchi qavat ostidagi xonalarda joylashgan bo'lishi mumkin.

Dorixonalar binosining kirish qismida dorixonaning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan manzili va ish tartibi haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan peshlavha bo'lishi kerak.

Dorixonalarda dori vositalari va tibbiy buyumlarning xavfsizligi, sifati va but saqlanishi uchun tegishli sharoitlar yaratilishi kerak.

Tashkiliy-huquqiy va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha dorixonalar dori vositalari va tibbiy buyumlarning O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq sotilishini ta'minlashi shart.

Ijtimoiy dorixonalar, ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlarining qonunchilikka muvofiq tasdiqlangan ro'yxatini davlat va rus tillarida 12 shrift o'lchamidan kam bo'lmagan o'lchamda ko'rinadigan joyga osib qo'yishlari shart.

Dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan birga sotib oluvchiga identifikatsiya ma'lumotlari (nomi, dozasi, qadoqlash, miqdori), dori vositalari yoki tibbiyot buyumlarining nomi, ularni beruvchi shaxsga oid ma'lumotlar, berish sanasi va narxi ko'rsatilgan tovar cheki beriladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilgan tekshirish uchun xarid qilish yoki nazorat natijalari bo'yicha olingan dori vositalari va

tibbiy buyumlarning narxini belgilash bo'yicha tartibni buzish faktini tasdiqlovchi tovar va kassa cheklari dorixonaning litsenziyasini to'xtatib turish yoki tugatish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Dorixonalar sanitariya va gigiyena ashyolarini, shifobaxsh oziqlantirish mahsulotlarini, ma'danli suvlarni, shuningdek davolash-kosmetika mahsulotlarini, biologik faol qo'shimchalarni realizatsiya qilishni, ularning qo'llanishi va realizatsiya qilinishi uchun tegishli hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirishi mumkin.

Dorixonada barcha dori vositalari va tibbiy buyumlar narxi ko'rsatilgan holda hamda dorixona javobgar shaxsining imzosi bilan sotuvga qo'yiladi.

Dorixona sotuv zali peshtaxtalarida faqat shifokor retseptisiz beriladigan dori vositalari va tibbiy buyumlarni qo'yishga ruxsat beriladi. Bunda peshtaxtaga ichish uchun mo'ljallangan va tashqi qo'llaniladigan dori vositalari alohida-alohida joylashtiriladi.

Shifokor retseptlari asosida beriladigan dori vositalari va tibbiy buyumlar hamda ular haqidagi ma'lumotlarni dorixonaning peshtaxtasi va xaridorlar uchun ko'rinadigan boshqa joylarga qo'yish ta'qiqlanadi.

4.5. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi

Dori vositalarini chakana realizatsiya qilish shakli O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan retseptlar, shu jumladan, elektron retseptlar bo'yicha yoki O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlagan, retseptsiz beriladigan dori vositalari ro'yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Dori vositalarini elektron retseptlar asosida chakana realizatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining «Farmatsevtika mahsulotlarining harakatini nazorat qilish va hisobga olishning axborot tizimi» orqali amalga oshiriladi.

Dori vositasi va tibbiy buyumni berish paytida dorixonaning farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan xodimi dori vositasi va tibbiy buyumni sotib oluvchiga dori vositasi va tibbiy buyumni qo'llash tartibi, xususan, qo'llash davriyligi, bir marotabalik va sutkalik dozalari, qo'llash usuli, saqlash tartibi, yaroqlilik muddati va boshqalar haqida ma'lumot berishi lozim.

Dorixona xodimi dori vositasi va tibbiy buyumni sotib oluvchining e'tiborini dori vositasi va tibbiy buyumning qo'llash yo'riqnomasi bilan diqqat bilan tanishib chiqishga qaratishi kerak.

Dorixona xodimi mijozlar bilan bo'lgan munosabatda etika qoidalari rioya etishi, professionallik va savodxonlik xislatlarini namoyon etishi lozim.

Dorixona xodimlari tomonidan dori vositasini sotib oluvchilarga zarur ma'lumotlar berilishi kerak. Sotib oluvchining talabiga binoan dorixona xodimi dori vositalari va tibbiy buyumlarning narxлари va ularning sifatini tasdiqlovchi hujjatlarini ko'rsatishi lozim.

Dori vositalari (giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar bundan mustasno) va tibbiy buyumlarni elektron tijorat orqali chakana realizatsiya qilishda dorixonalar tegishli veb-saytlar va mobil ilovalarda quyidagi ma'lumotlarni joylashtirishga majburdir:

- yuridik shaxsning to'liq nomi, tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda;

- davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, tadbirkorlik subyektiining identifikatsiya raqami;

- joylashgan joyi (pochta manzili), elektron pochta manzili, bog'lanish telefon raqami;

- litsenziyaning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar (raqami, amal qilish muddati, litsenziyani berishga vakolatli organining nomi);

- realizatsiya qilinayotgan dori vositalari va tibbiy buyumlar haqidagi ma'lumotlar (xalqaro patentlanmagan va savdo nomi, chiqarilgan shakli, dozasi, seriyasi, yaroqlilik muddati, ishlab chiqargan davlat (yetkazib beruvchi), qo'llash bo'yicha yo'riqnoma, chakana realizatsiya narxi, savdo ustamasi

miqdori, muvofiqlik sertifikatini (belgilangan tartibda majburiy sertifikatlanadigan dori vositalari va tibbiy buyumlar uchun);

– realizatsiya qilinayotgan dori vositalari va tibbiy buyumlar analoglari haqidagi ma'lumotlar;

– hisob-kitob shakli, yetkazib berish tartibi va narxi.

Dori vositasini donalab sotishga ruxsat etiladi. Bunda joylash-o'rash materialida dori vositasining nomi, seriyasi, yaroqlilik muddati va ishlab chiqaruvchisi ko'rsatilishi kerak. Dori vositasini birlamchi o'rami buzilgan holda berish taqiqlanadi.

Shifokor retsepti bo'yicha dori vositasini berish retseptda qayd etilgan xalqaro patentlanmagan nom asosida amalga oshiriladi. Bunda dori vositalarini berish normasi shifokor retseptiga muvofiq belgilanadi.

Retsept asosida dori vositasini berishda dorixonaning farmatsevt xodimi retseptning yirtma koreshogiga berilgan dori vositasining nomi, seriya raqami, farmatsevt familiyasi, ismi, otasining ismini yozib, uni imzolaydi va dorixonaning shtampi qo'yilgan holda bemor (uning qarindoshlari yoki uning holidan xabar oluvchi shaxs)ga topshiradi, retsept dorixonada qoldiriladi.

Retsept asosida tayyorlab berilgan dori vositalarini berishda, dorixonada retseptlarni qayd etish jurnaliga tegishli yozuvlar kiritiladi.

Retseptning yirtma koreshogi bemor (uning qarindoshlari yoki uning holidan xabar oluvchi shaxs) tomonidan yo'qotilgan yoki u yaroqsiz holga kelib qolgan holatlarda dorixona xodimi tomonidan retseptning dorixonada saqlanayotgan, yirtma koreshogi o'rnini bosuvchi, tasdiqlangan nusxasi berilishi mumkin.

Dori vositasini elektron retsept asosida berishda dorixonaning farmatsevt xodimi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Farmatsevtika mahsulotlarining harakatini nazorat qilish va hisobga olishning axborot tizimi"dagi tegishli maydonchalarga dori vositasining nomi, seriya raqami, farmatsevtning familiyasi, ismi, otasining ismini kiritib, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlaydi.

Shifokor tomonidan rasmiylashtirilgan retseptda dori vositasi uning bir marotaba qo'llanadigan eng yuqori dozasi bilan ko'proq

dozada tayinlangan holatlarda dorixona xodimi ushbu dori vositasi eng yuqori dozasining yarmiga teng dozasini berishi shart.

Ambulatoriya davolanishda imtiyozga ega shaxslarning ayrim toifalarini dori vositalari bilan imtiyozli ta'minlash dori vositalarini ambulatoriya-poliklinika muassasalari orqali yoxud dorixonalar orqali berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Shaxslarning ayrim toifalariga imtiyozli retseptlar bo'yicha dori vositalari, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, barcha dorixonalar orqali amalga oshiriladi.

Favqulodda holatlarda, bemorning yashash joyidan jo'nab ketishi, vaqtincha ketishi dorixonaga muntazam qatnashining imkoni yo'qligi va boshqa shu kabi holatlarda dori vositalari retsept bo'yicha uch oygacha bo'lgan muddat mobaynida qo'llash uchun zarur miqdorda berilishiga yo'l qo'yiladi.

Dori vositalari uzoq vaqt amal qiluvchi retsept asosida qisman berilganda retseptning orqa tomoniga dori vositasining miqdori va berilgan sana ko'rsatiladi hamda bemorga qaytarib beriladi. Bemorning dorixonaga navbatdagi murojaati paytida dori vositasining oldin olinganligi haqidagi belgilar hisobga olinadi.

Dori vositasi retseptda nazarda tutilgan miqdorda olib bo'linganda unga «Retsept haqiqiy emas» degan shtamp bosiladi va dorixonada qoldiriladi.

Bunda retseptning yirtma koreshogi, unga ushbu Nizomga muvofiq ma'lumotlarni kiritgan holda bemor (uning qarindoshlari yoki uning holidan xabar oluvchi shaxs)ga qaytariladi.

Shaxslarning ayrim toifalariga dori vositalarini imtiyozli berish uchun retseptlar dorixonalarda uch yil davomida, maxsus pushti rangdagi blankalar bo'yicha berilgan giyohvand vositalar retseptlari — 5 yil, psixotrop moddalar, etil spirti va anabolik vositalar, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ro'yxatiga kiritilgan dori vositalarga berilgan retseptlar — bir yil davomida, boshqa dori vositalariga berilgan retseptlar — uch oy davomida saqlanadi.

Saqlash muddati tugagandan so'ng retseptlar tegishli dalolatnoma rasmiylashtirilgan holda yo'q qilinadi.

Retseptda ushbu nizomga zid ravishda rasmiylashtirilgan yoki bir-biriga nomutanosib dori vositalari ko'rsatilgan bo'lsa, dorixonona tomonidan unga «Retsept haqiqiy emas» shtampi bosiladi va bekor qilinadi. Bunda bekor qilingan retsept haqidagi ma'lumotlar noto'g'ri yozib berilgan retseptlarni dorixonada hisobga olish jurnalida qayd etiladi va retseptni bergan davolash-profilaktika muassasasining rahbariga noto'g'ri yozilgan retseptlar to'g'risida xabar beriladi hamda shifokor tomonidan berilgan retseptga nomutanosib dori vositalari dorixonona tomonidan berilganda, dori vositalari qaytariladi.

Dorixonalar tomonidan shaxslarning ayrim toifalarini dori vositalari bilan retsept asosida imtiyozli ta'minlash amalga oshirilganda ushbu dori vositalari uchun to'lov sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan shartnomaga muvofiq dorixonalar hisobiga o'tkaziladi.

Dorixonalardan realizatsiya qilingan dori vositalari va tibbiy buyumlar qaytarib olinmaydi va shunga o'xshash dori vositalari va tibbiy buyumlarga almashtirilmaydi.

Elektron tijorat orqali dori vositalari va tibbiy buyumlarini realizatsiya qilishda, zarur hollarda dorixonalar tomonidan aholiga sotib olingan dori vositalari va tibbiy buyumlarni yetkazib berish mumkin. Bunda dori vositalari va tibbiy buyumlarni yetkazib berish dorixonona xodimi — farmatsevtik ma'lumotga ega mutaxassis bilan birga amalga oshirilishi kerak.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni yetkazib berish uchun ularning sifati va xavfsizligiga rioya etilishini ta'minlovchi dori vositalari va tibbiy buyumlarni saqlash kamerasi bilan jihozlangan transport vositalaridan foydalaniladi.

Transport vositasi texnik soz va toza holatda tutilishi kerak. Tashish jarayonida dori vositalari va tibbiy buyumlarni saqlash kamerasida kerakli zarur harorat, namlik, shuningdek, toza havo ta'minlab turilishi lozim.

O'lchov uskunalariga kiruvchi asboblar foydalanishdan avval, shuningdek, ta'mirlangandan so'ng belgilangan tartibda birlamchi tekshiruvdan o'tadi va qiyoslanadi, foydalanish jarayonida esa tekshiriladi va qiyoslanadi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni tashish shunday amalga oshirilishi lozimki, bunda ularning sifat ko'rsatkichlari yo'qolmasligi hamda dori vositalarining o'ramlari va tibbiy qo'llanilishi bo'yicha yo'riqnomalarda qayd etilgan saqlash sharoitlariga rioya etilishi kerak.

Alohida saqlash haroratini talab etuvchi dori vositalarini tashish haroratni doimiy ravishda kuzatib boruvchi qurilma bilan jihozlangan refrejerator uskunasi yoki termokonteyner bilan jihozlangan transport vositasida amalga oshirilishi kerak.

Dori vositalari va tibbiy buyumlar, ularning sifati, samaradorligi va xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan hamda tashqi muhit ta'siridan saqlovchi transport vositalarida tashiladi. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni boshqa turdagi yuklar bilan birga tashish taqiqlanadi.

4.6. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun moddiy-texnik bazaga, binoga (xonaga) qo'yiladigan talablar

Egalik qilish huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq (ijara shartnomasi va boshqalar), bino (xona) mavjudligi.

Xonalari joylashgan manzil aniqlangan qonun hujjatlari buzilishi, shu jumladan dori vositalari va tibbiy buyumlar narxini belgilash tartibi qo'pol ravishda buzilishi oqibatida amal qilishi to'xtatilgan dorixonalarining manzilli reyestriga kiritilmagan bo'lishi kerak.

Dorixonona va uning filiallari quyidagicha joylashtirilishi mumkin:

- alohida binolarda (faqat birinchi qavatda);
- turar joy binolari yoki noturar joy xonalariga taqab qurilgan binolarga (faqat birinchi qavatda) qurilgan binolarda;
- ko'p qavatli jamoat binolari va turar joy binolarining birinchi qavatida.

Dorixonona va ularning filiallari turar joy binolari va jamoat binolarining birinchi qavatida joylashganda, ular dorixonaga rahbari qiluvchilar uchun alohida ko'chadan kirish eshigi hamda mahsulotlarni qabul qilish va bo'sh idishlarni olib ketish uchun

mo'ljallangan, hovli tomonga qaratilgan xizmat eshigi bo'lishi kerak. Xizmat eshigi oldida tovar tashuvchi avtomobillar uchun tovar tushirish va ortish maydonchasini ko'zda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dorixona va dorixona filiallarining barcha xonalari ular bajaradigan vazifalariga qarab bir-biri bilan o'zaro funksional bog'liq holda hamda boshqa maqsadda foydalaniluvchi xonalardan ajratilgan blokni tashkil qilib, alohida kirish eshigiga ega bo'lgan holda joylashtirilishi zarur. Dorixona omborxonasi binoning pastki qismida, xona balandligi 2,4 metrdan kam bo'lmagan holda joylashtirilishi mumkin.

Dorixona xonalari ishlab chiqarish (mahsulotlarni qabul qilish, tayyorlash, saqlash va berishga jalb etilgan barcha xonalar) va ma'muriy-maishiy (idora, buxgalteriya, kiyinish xonasi, hojatxona va shu kabilar) xonalarga bo'linadi.

Dorixona va uning filiallari binolarining minimal zarur tarkibi va maydoni

T/r	Binolar nomi	Dorixonalarining tayyor dorilar bilan savdo qiluvchi maydoni kamida (kv.m)
1.	Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish zali jumladan:	16
	Xodimlar ish joyi uchun asbob-uskunalarini joylashtirish hududi	8
	Tashrif buyuruvchilarni xizmat ko'rsatish hududi	8
	Jami:	16
2.	Komplektlovchi-ekspeditsiya xonasi*	10
3.	Tayyor dori vositalari va tibbiy buyumlarni saqlash xonasi (termolyabil vositalar uchun sovutgich bilan)	12
4.	Tibbiy buyumlarni saqlash xonasi*	4
	Jami:	26
5.	Mudir, buxgalteriya xonasi*	6
6.	Ovqatlanish, maxsus kiyim, shaxsiy buyumlarni saqlash uchun qo'shimcha xona	4
7.	Hojatxona	2
	Jami:	12
	Hammasi	34/54

* – filialga ega bo'lgan dorixonalar uchun.

Qishloq vrachlik punktlari binosida dorixona filiallari kami-
da 8 m.kv kam bo'lgan maydonda joylashtirilishi mumkin.

Dorixona xonalari va asbob-uskunalariga qo'yiladigan talablar

Dorixonaga kirish joyida 1,0 m. kenglikdagi pandus bilan ji-
huzlangan bo'lishi kerak (istisno tariqasida 0,9 m. bo'lishiga yo'l
qo'yiladi). 0,7 – 0,9 m. balandlikdagi qo'l ushlagichlar o'rnat-
ilishi lozim, pandus qiyaligi 1:10 nisbatdan yuqori bo'lmasligi
kerak, shuningdek oyoq kiyimini tozalash moslamalari (panjara,
skrebka va boshqalar) o'rnatilgan bo'lishi kerak. Moslamalar
zarur bo'lganda, ammo bir kunda bir martadan kam bo'lmagan
holda tozalab turiladi.

Xona devori, shifti va pollari dezinfeksiyalovchi modda-
lar bilan nam tozalashga yo'l qo'yiladigan holda ta'mirlangan
bo'lishi kerak. Ta'mirlovchi vositalar sifatida suvga chidamli
bo'yoq, emal va och rangli glazurlangan kafel plitkalar (mayo-
lika) qo'llanilishi mumkin. Pollar keramik glazurlanmagan (ter-
rakotli) plitkalar yoki choklari payvandlangan lenolium bilan
qoplanadi.

Dorixona asbob-uskunalarini tibbiy vositalar ta'siriga va
ba'zi hollarda kimyoviy reaktivlar ta'siriga turg'un material-
lardan ishlangan, tashqi va ichki tomoni tekis bo'lishi kerak.
Asbob-uskunalar va dorixona mebellari tozalashga xalaqit ber-
maydigan va yorug'lik tushishini to'smagan holda joylashtiri-
lishi kerak. Ishlab chiqarish xonalarida ish faoliyatiga taalluqli
bo'lmagan asbob-uskunalarini joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni saqlash xonasi zarur
miqdorda javon, taglik, mahsulot qo'ygichlar va boshqalar bilan
ta'minlangan bo'lishi kerak. Dori vositalarini polda mahsulot
qo'ygichsiz joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Stellajlar shunday joylashtirilishi lozimki, tashqi devorlardan
0,6–0,7 m masofada, shiftdan 0,5 m, poldan 0,25 m dan kam
bo'lmagan masofada bo'lishi zarur. Derazalarga nisbatan stellaj-
lar ular oralig'iga yorug'lik tushadigan darajada joylashtiriladi.
Stellajlar oralig'idagi masofa 0,75 m dan kam bo'lmagan holda
va erkin harakatlanishni ta'minlaydigan darajada joylashtiriladi.

Dorixona omborxonasi va dorixona toza holda bo'lishini ta'minlanishi uchun (bir kunda bir mahal), yuvishga ruxsat etilgan vositalarni qo'llagan holda nam tozalash usuli bilan muntazam ravishda tozalash ishlari olib borilishi zarur.

Yoz kunlari oftobga qarab joylashgan oyna va vitrinalar, oftobdan himoyalangan moslamalar (jalyuza, markizlar va sh.q.) bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Xonani shamollatish uchun ishlatiladigan derazaning yuqori qismi va darchasi katakchasi 2 x 3 mm dan katta bo'lmagan o'lchamdagi yechiladigan metall yoki yelim setka bilan himoalanadi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni saqlash xonasida plakat va devoriy gazeta osish, gullarni o'stirish, polga gilam solish, pardalar osishga yo'l qo'yilmaydi. Buning uchun yo'lak, xodimlar dam olish xonasi va boshqa xonalardan foydalanish mumkin.

Xonada ish uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlar jadvali va devoriy gazetalar dizenfeksiya qilinadigan va namlik bilan tozalanadigan materiallardan tayyorlanishi kerak.

Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish hududlaridagi dorixona xodimining ish joyida to'g'ridan to'g'ri tomchi orqali o'tuvchi infeksiyalardan xodimlarni himoya qiluvchi moslama o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Xona devorining qo'l yuvish moslamasi o'rnatiladigan qismi 1,6 m balandlikda va tomonlari 20 sm kenglikda bo'lishi ko'zda tutilgan holda glazurlangan plitka yoki boshqa namlikni ko'taruvchi material bilan ishlov berilishi shart.

Dorixona (filiallar) maxsus dorixona mebellari, ishlab chiqarish asbob-uskunalari, termolabil dori vositalarini saqlaydigan sovutgich, dori vositalari savdosi va ular to'g'risida ma'lumotlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Dori vositalarini realizatsiya qilish (savdo zali) va saqlash xonasiga kerakli haroratni ta'minlaydigan havo sovitgich o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Tayyor dori vositalarini saqlash xonalari havo harorati ni qayd etuvchi asboblardan va termometrlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Termometr saqlash xonasi devoriga poldan 1,5

– 1,7 m balandlikda va eshikdan 1 m masofada hamda isitish asboblari uzoqda oʻrnatiladi.

Dorixonalar (filiallar) dizenfeksiyalar ishlarini profilaktikasini oʻtkazish uchun koʻchma kvartiralar lampalar bilan taʼminlangan boʻlishi kerak.

Dorixonaning omborxonalar xonalari binoning pastki qavatida joylashgan boʻlishi mumkin. Bunda omborxonalar xonalari balandligi 2,4 m dan past boʻlmasligi kerak.

Dorixonalar va ularning filiallari xonalarini tabiiy shamollatish qishki va oʻtish davrida 1/50 dan kam boʻlmagan hajmda, derazaning yuqori qismi va darchasi yordamida, yilning yozgi davrida esa ochiq derazalar yordamida amalga oshiriladi.

Savdo xonasi (savdo zali) dori vositalari va tibbiy buyumlarni realizatsiya (sotish) qilish jarayonini uzluksiz ravishda videoga yozib olish va bir oy davomida video-yozuvlarni saqlash uchun uskunalar bilan jihozlangan boʻlishi kerak (qishloq oilaviy poliklinikalari va qishloq vrachlik punktlari hududida joylashgan dorixonalar va ularning filiallari bundan mustasno).

Dorixonalar xonalarini yoritish va sanitariya jihatidan obodonlashtirish.

Dorixonalar xonalarini markaziy suvli isitish tavsiya etiladi. Jamoat va aholi turar joy binolaridagi dorixonalar (filiallar) binoning isitish tizimiga ulanadi.

Silliq devorga oʻrnatiladigan changdan tozalash uchun qulay radiatorlar ayniqsa afzal hisoblanadi.

Dorixonalar (filiallar) binolaridagi issiqlik suv taʼminoti, havoni almashtirish, havo aylanishi va isitish taʼminotini loyihalashda mazkur bandga va KMK 2.10.04-96 “Qurilish issiqlik texnikasi”, KMK 2.04.05-97 “Ishitish, havo aylanishi va havo almashtirish” bandlarida qoʻyilgan talablarga rioya etish kerak.

Alohida binoda joylashgan hamda qishloq joylarda joylashgan dorixonalar alohida isitilishi mumkin. Xonani yonuvchi gaz asboblari yoki ochiq spiralli elektr isitgich asboblari bilan isitishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Binoni isitish davrida savdo zalida havo harorati 16°C dan yuqori boʻlmagan darajada boʻlishi kerak.

Dorixona xonalarini 1 soat ichida bir marotabadan kam bo‘lmagan havo almashtirishni ta‘minlaydigan tabiiy umumal-mashtiruvchi ventilatsiya ishlatishga yo‘l qo‘yiladi.

Issiqlik tashuvchi sifatida 70°C dan kam bo‘lmagan harorat-da suvli isitish tizimini qo‘llash mumkin.

Isitish asboblari tizimini deraza tagiga o‘rnatish kerak bo‘la-di.

Ventilatsiya tizimi uskunarini, shuningdek pastki qavatda o‘rnatish mumkin.

Dorixona (filiallar) xonalarini sun‘iy yoritishni KMK 2.01.05-98 “Sun‘iy va tabiiy yoritish” va mazkur band talabla-riga muvofiq loyihalashtirish kerak.

Xonalar	Ish joyini yoritish, lk	Yorug‘lik manbai	Yorug‘lik me‘yor-lashtiriladigan maydon
1. Savdo zali va xodimlar xonasi	150	l.l.**	G*-0.8
2. Retseptura bo‘limi, tayyor dori vositalari bo‘limi***, retseptsiz sotish, optika	300	l.l.	G-0.8

* G – gorizontal sirti, V – vertikal sirti;

** l.l. – lominatsiyalangan lampa;

*** – xonada joyni yoritish uchun shtepsel uzatgich talab etiladi.

Dorixona va filiallar xonalarini yoritilishi cho‘g‘lanma lamp-a va lyuminatsiyalangan lampalar orqali amalga oshiriladi, bunda lyuminatsiyalangan yoritgichlar shovqinni pasaytirishni tartibga soluvchi apparat bilan komplektlangan bo‘lishi kerak.

Xona shiftiga o‘rnatilgan umumiy yoritqichlar yopiq nur tarqatish moslamalari bilan qoplangan bo‘lishi kerak.

Dorixona va ularning filiallari ichki va tashqi telefon aloqasi, internet tarmog‘iga doimiy kirish imkonini beruvchi kompyuter yoki boshqa turdagi telekommunikatsiya tarmoqlari bilan o‘za-ro bog‘lanadigan texnik vositalari bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak.

Dorixona va ularning filiallarining savdo zalida va ovqatla-nish xonasida tabiiy yorug‘likni yetarli darajada ta‘minlash

uchun minimal tabiiy yorug'lik koeffitsiyenti 1,5 foizni ko'zda tutish kerak.

Dorixona va ularning filiallarining suv ta'minoti vodoprovod tarmog'i yoki mahalliy suv manbasi orqali amalga oshiriladi.

Ichki suv tarmog'i issiq va sovuq suvni ovqatlanish xonasi hamda sanitariya xonasiga yetkazib berilishini ta'minlashi lozim.

Dorixona va ularning filiallari ishlatilgan suvni chiqarish uchun kanalizatsiya tizimiga ulangan bo'lishi kerak, kanalizatsiya bo'lmaganda chiqarish tizimi sifatida chuqur o'ralar qo'llaniladi. Qattiq holdagi chiqindilar uchun germetik qopqoqli axlat idishlar o'rnatiladi.


O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha dorixonalarda me'yoriy hujjat talablariga rioya etilishini nazorat qilish dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilishni litsenziyalashni amalga oshirgan Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining hududiy bo'linmalariga yuklanadi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish tartibi va shartlari qanday?
2. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish sharoitlarining ta'minlanishi qay tartibda amalga oshiriladi?
3. Dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiya qilish uchun moddiy-texnika bazaga, binoga (xonaga) qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1-vazifa. Dorixonaning mulkchilik shakllarini “KLASTER” usuli orqali ish daftaringizda aks ettiring.



2-vazifa. “Bumerang” usuli

1-guruh:

Dorixona bu —

Geriatrik dorixonalar nima?

2-guruh

Ijtimoiy dorixona bu —

Dorixona shakllari bu —

3-guruh

Farmatsevt kadrlar lavozim nomenklaturasi.

Dorixona xonalarining tarkibi, jihozlanishi.

3-vazifa. “Kim ko‘proq?”, “Kim tezroq?” usulida ish daftaringizda vazifani bajaring.

Ish uchun kerak:

1) mavzuga oid savolli kartochkalar;

2) sekundomer.

Ish jarayoni:

1. O'yin og'zaki ravishda o'tkaziladi.

2. Talabalar navbat bilan savolli kartochkalarni tortib olishadi.

3. Bir necha daqiqa ichida, har bir talaba kartada yozilgan bir nechta savollarga javob beradilar.

4. O'qituvchi to'g'ri javoblar sonini hisobga oladi.

5. Barcha talabalar o'yinda qatnashadilar.

6. O'yinning umumiy vaqti — 45 daqiqa.

7. Noto'g'ri javoblar berilgan savollar muhokama qilinadi.

8. Talabalarning javoblari baholanadi.

Talabalar tomonidan olingan ballar joriy baholarni qo'yishda hisobga olinadi.

4-vazifa. Mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilimlaringiz asosida 20 ta savollarni o'z ichiga olgan krossvord tuzing.

5-vazifa. Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risidagi shartnomani tuzing va uni rekvizitlari haqida tushunchalar bering.

Testlar

1. Chakana savdo — bu ...

A. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy, oilaviy, maishiy maqsadlarda foydalanish uchun mijozlarga xizmat ko'rsatish va tovarlar bilan savdo qilish.

B. Shaxsiy, oilaviy, maishiy maqsadlarda foydalanish uchun mijozlarga xizmat ko'rsatish va tovarlar bilan savdo qilish.

C. Maishiy maqsadlarda foydalanish uchun mijozlarga xizmat ko'rsatish va tovarlar bilan savdo qilish.

D. Oilaviy, maishiy maqsadlarda foydalanish uchun mijozlarga xizmat ko'rsatish va tovarlar bilan savdo qilish.

2. Dori vositalari chakana savdosi amalga oshadi:

A. Farmatsevtika faoliyati uchun litsenziya bilan.

B. Farmatsevtika faoliyati uchun sertifikat bilan.

- C. Tibbiyot faoliyati uchun diplom bilan.
- D. Tibbiyot faoliyati uchun sertifikat bilan.

3. Dorixona tashkilotlarining turlari:

- A. Aksionerlik.
- B. MChJ.
- C. Xususiy.
- D. Barcha javob to'g'ri.

4. Dori vositalardan tashqari, farmatsevtika tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar nimani sotishlari mumkin?

- A. Tibbiyot mahsulotlari.
- B. Dezinfeksiya qiluvchi vositalar.
- C. Shaxsiy gigiyena mahsulotlari.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

5. Muayyan turdagi tovarlarni sotish, davlat yoki kommunal tashkilotlarining ishlash rejimi qanday qoidalar asosida o'rnatiladi?

- A. Mahalliy hokimiyat organlari qarori bilan.
- B. Shahar hokimiyat organlari qarori bilan.
- C. Mahsulot sifati va xavfsizligi standartlari talablariga muvofiq.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

6. Dorixonalarning asosiy vazifalari:

A. Informatsion (aholi va sog'liqni saqlash muassasalarining shifokorlari), marketing (shu jumladan assortiment va narxlash siyosati) birinchi yordam; mas'uliyatli o'z-o'zini davolashni ta'minlash bo'yicha maslahat berish.

B. Ishlab chiqarish (tibbiy retseptlar olish, preparatlarni ishlab chiqarish, nazorat qilish va yetkazib berish), sotish (giyohvandlik vositalari va boshqa mahsulotlarni sotish).

C. Logistika oid vazifalarni bajarish (tovarni qabul qilish, saqlash va transportirovka qilish).

D. Barcha javoblar to'g'ri.

7. Dorixona tashkilotlari xodimlariga qo'yiladigan talablar:
- Farmiyatsevtik ta'lim, sertifikat.
 - Huquqiy ta'lim.
 - Moliyaviy ta'lim.
 - Pedagogik ta'lim.
8. Farmatsevtika tashkilotlari quyidagilarni ta'minlashi kerak:
- Dori vositalarning minimal assortimenti.
 - Dori vositalarining maksimal assortimenti.
 - Tibbiy mahsulotlarning assortimenti.
 - Tibbiy va farmatsevtik tovarlarning assortimenti.
9. Xususiy dorixona boshqa dorixonalaridan qanday ko'rsatkichi bilan farqlanadi?
- Mustaqil balansga va bankdagi hisob raqamiga asosan.
 - Ishchilar soni bilan.
 - Boshqarish printsiplari bilan.
 - Mustaqil bo'lmagan balansga.
10. Aksiyadorlik dorixonasining asosiy vazifasi:
- Sog'liqni saqlash muassasalarini va aholini dori vositalari va tibbiy texnika mahsulotlari bilan ta'minlash.
 - Dori vositalari bilan ta'minlash.
 - Aholini dori vositalari bilan ta'minlash.
 - Sog'liqni saqlash muassasalarini dori vositalari bilan ta'minlash.
11. Dorixonada yuqori samaradorlikka erishish uchun asosan qanday ishni amalga oshirish kerak?
- Mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish kerak.
 - Xushmuomalali bo'lish kerak.
 - Sanitariya tartibiga rioya qilish lozim.
 - Farmatsevtik tartibini o'rnatish shart.
12. Dorixonada maxsus litsenziyasiz qanday dori vositalarini tayyorlash, qabul qilish, saqlash va sotish taqiqlanadi?
- Zaharli moddalarni, narkotik dori vositalarini.
 - Zardoblarni.

- C. Vaksinalarni.
- D. Dorivor o'simliklarni.

13. Aksiyadorlik dorixonasi qanday o'quv yurtlari uchun baza bo'lishi mumkin?

- A. Farmatsevtika instituti va kollejlari talabalarining va farmatsevtlarni malakasini oshirish fakulteti tinglovchilarining ishlab chiqarish amaliyoti o'tkaziladigan baza.
- B. Dori vositalari ishlab chiqaruvchi baza.
- C. Dori vositalari sifatini nazorat qiluvchi baza.
- D. Tibbiyot xodimlarining ishlab chiqarish amaliyoti o'tkaziladigan baza.

14. Aksiyadorlik dorixonasi qachondan boshlab yuridik shaxs huquqiga ega bo'ladi?

- A. O'z nomlari yozilgan to'rt burchakli muhrga, bank muassasalarida hisob-kitob va boshqa schyotlarga ega bo'lgan hamda davlat ro'yhatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab.
- B. O'z nomlari yozilgan uchburchakli muhrga ega bo'lgan vaqtdan boshlab.
- C. Boshqa schyotlarga ega bo'lgan vaqtdan boshlab.
- D. Hisob-kitob schyotlariga ega bo'lgan vaqtdan boshlab.

15. Aksiya bu?

- A. Aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda, jamiyatning foydasiga, jamiyatning ustav kapitaliga qo'shilgan mablag'ni tasdiqlovchi qimmatli qog'oz.
- B. Nominal qiymatni to'lash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz.
- C. Veksel.
- D. Obligatsiya..

16. Aksiya egalariga berilgan huquqlar hajmiga qarab aksiyalar necha xil bo'ladi?

- A. 2 xil.
- B. 10 xil.

- C. 4 xil.
- D. 3 xil.

17. Dividend – bu?

- A. Har bir aksiyaga to'g'ri keladigan va aksiyadorlar orasida taqsimlanadigan foydaning bir qismi.
- B. Har bir aksiyaga to'g'ri keladigan foydaning bir qismi..
- C. Aksiyadorlar orasida taqsimlanadigan foydaning bir qismi.
- D. Veksel.

18. Xususiy dorixonada sanitariya kuni qanday muddatda o'tkaziladi?

- A. 1 oyda.
- B. 5 yilda.
- C. 1 yilda.
- D. 10 yilda.

19. Aksiyadorlik dorixonasida sanitariya kuni qanday muddatda o'tkaziladi ?

- A. Oyda bir marta.
- B. Har kuni.
- C. 10 kunda bir marta.
- D. Chorakda bir marta.

20. Dorixona shaxobchasini DPM maydonida ochilishiga ruxsat etiladimi?

- A. Ruxsat etilmaydi.
- B. Ruxsat etiladi.
- C. Bosh shifokorning ruxsati zarur.
- D. Dorixona rahbari tashabbusi zarur.

V BOB

DORIXONADA RETSEPTLARNI QABUL QILISH VA ULAR ASOSIDA DORI VOSITALARINI BERISH. RETSEPTLARNI TAKSIROVKA VA EKSPERTIZA QILISH

- 5.1. Retsept asosida dori vositalarini berish tartibi
 - 5.2. Elektron retsept
 - Mustaqil tayyorlanish uchun savollar
 - Mustaqil bajarish uchun vazifalar
 - Testlar
-

Mavzuning maqsadi: dori vositalarini aholiga shifokorning retsepti va retseptisiz berish, shuningdek, davolash–profilaktika muassasalariga beriladigan dori vositalar ro‘yxati va ularni berish qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Barcha dorixona muassasalari qaysi idoraga qarashliligi va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar belgilangan talablariga amal qilishlari shart.

Retsept va uning blankalari, asosiy va qo‘shimcha rekvizitlar, retseptlarni tekshirish bo‘yicha olingan bilim darajasi va ularni amaliyotda qo‘llash bilan chambarchas bog‘liq. Retseptura bo‘limi ishini tashkil qilish, retsept qabul qilish, retsept asosida dori vositalarini berish tartibi bo‘yicha qoidalar asosida talabalarda ko‘nikmalar yaratish.

5.1. Retsept asosida dori vositalarini berish tartibi

O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni bemorning davolash muassasasi haqida (joylashgan manzili, ish tartibi haqida), muassasa ko‘rsatadigan xizmatlar (pullik tibbiy xizmatlar ro‘yxati, ularning narxi, xizmat ko‘rsatish shartlari, alohida toifa

fuqarolar uchun imtiyozlar, DPM javobgarligi), dori vositalari (xossalari, sifati, retsept va/yoki retseptsiz dori vositalari berish, narxi, kafolatlari) haqida axborotni, shuningdek tibbiy yordam ko'rsatayotgan mutaxassislarning sertifikatlari va malakasi haqidagi ma'lumotlarni olish huquqini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 6-avgustdagi 404-sonli Qarorining 1-ilovasiga muvofiq Respublika dorixona muassasalarida dori-vositalari va tibbiy buyumlarini sotish qoidalari belgilangan. Ushbu Qarorga binoan O'zbekiston Respublikasida dori vositalari va tibbiyot buyumlarini sotish bilan shug'ullanishga farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan dorixona muassasalariga ruxsat etiladi.

Qayd etib o'tilgan dorixona muassasalarida dori vositalari sotishga faqat maxsus farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga ruxsat beriladi va dorixona muassasalari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan dori vositalari va tibbiy buyumlarini sifatini tasdiqlovchi hujjatlarsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarini qabul qilib olish taqiqlangan.

Dori vositalarini aholiga shifokorning retsepti va retseptsiz berish, shuningdek, davolash-profilaktika muassasalariga beriladigan dori vositalar ro'yxati va ularni berish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Barcha dorixona muassasalari qaysi idoraga qarashliligi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar belgilangan talablariga amal qilishlari shart.

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan shifokorning retseptsiz berishga ruxsat etilgan dori vositalaridan tashqari barcha dori vositalar dorixonalardan faqat me'yoriy hujjatlarda belgilangan shakllardagi retseptlarga ko'ra beriladi.

Davolash-profilaktika muassasalari shifokorlariga kasalxonada dori vositalari bo'lmaganda statsionar davolanishda bo'lgan bemorlarga retsept yozib berishga ruxsat etiladi. Bunda dori miqdoriga pulga sotib olinganligi haqidagi ma'lumot kasallik tarixiga yozib qo'yilishi shartdir.

Agar retseptda zaharli, giyohvand va boshqa ingridiyentlar qo'shilmasidagi kuchli ta'sir qiluvchi vositalar yozib berilgan bo'lsa, ularni tayyorlangan dori tarkibiga kiritmay alohida berish taqiqlanadi.

Tarkibida giyohvand moddalar bo'lgan dori vositalari uchun berilgan retseptlar — yozib berilgan kundan boshlab 7 kun mobaynida, zaharli moddalar bo'lgan dorilar bo'yicha — 10 kun, barcha qolganlari bo'yicha esa — bir oy mobaynida haqiqiy hisoblanadi.

Shifokor retseptlari bo'yicha dorixonalardan dori vositalarini berish me'yori davolashning bir muddati uchun belgilanadi.

Favquloddagi hollarda (bemorning shahardan jo'nab ketishi, dorixonaga muntazam qatnashining iloji yo'qligi va boshqalar) dorixona xodimlariga shifokor tomonidan tayinlangan dori vositalarini uzoq muddat amalda bo'ladigan retseptlar bo'yicha ikki oy davomida davolanish uchun zarur bo'lgan miqdorda bir yo'la berishga ruxsat etiladi.

Tarkibida zaharli, giyohvand moddalar va etil spirti bo'lgan ekstemporal usulda tayyorlangan dorilarni berishda bemorlarga retsept o'rniga yuqori qismida sariq yo'li va unda qora shriftida "Signatura" deb yoziladi.

Uzoq vaqt amalda bo'ladigan retsept bo'yicha dori vositalarini berishda retsept bemorga qaytarib beriladi, bunda uning orqa tomoniga berilgan dori vositasining soni va berilgan sana yozib qo'yiladi. Bemor dorixonaga navbatdagi kelganida oldingi olingan dori vositalari haqidagi belgilar hisobga olinadi. Retseptning amalda bo'lish muddati tugagach, "Retsept haqiqiy emas" degan tamg'a bosiladi va dorixonada qoldiriladi.

Mavzu bo'yicha qolgan ma'lumotlar «Farmatsevtika ishini tashkil qilish» darsligida va ma'ruza matnlarida batafsil yoritib berilgan.

5.2. Elektron retsept

Elektron retsept — shifokorning farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassisga dori vositasini tayyorlash, berish hamda uning qo'llanilish usuli to'g'risidagi ko'rsatmasini tezkor ravishda olish imkonini beruvchi elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiyalash imkonini beradigan boshqa rekvizitlarga ega bo'lgan elektron hujjat.

Elektron retseptlar masalasida Daniya tajribasiga e'tibor qaratsak, Daniyada 1995-yildan boshlab retseptlar bo'yicha elektron hujjat ayirboshlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Unga ko'ra: farmatsevt o'z dorixonasida barcha turdosh dorilar haqida bemorga ma'lumot berishi shart. Qaysi dori vositasini sotib olishni xaridorning o'zi hal qiladi. Faqat shifokor retseptga maxsus belgi qo'yib bersagina, dorixonachi bemorga qimmatroq va original dori vositalarini tavsiya etadi.

Qonun bo'yicha har bir dorixonada har qanday dorining kamida bitta eng arzon turdoshi bo'lishi kerak

Daniyalik dorixonachilar dori vositalarini suiste'mol qilish yoki ulardan maqsadsiz foydalanish hollariga guvoh bo'lsa, bu haqida tegishli organlarga xabar berishi shart.

Ma'lumot o'rnida eslataman, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi 4438-son qaroriga muvofiq:

O'zbekistonda 2021-yil 1-yanvarga qadar elektron tarzda retsept berish axborot tizimi joriy etiladi. Mazkur tizim 2021-yil 1-martdan Toshkent shahrida, 2022-yil 1-martdan boshlab butun respublika hududida majburiy ravishda qo'llaniladi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Retseptura ishlab chiqarish bo'limining asosiy vazifalari.
2. Farmatsevt-texnologning vazifalari.
3. Retsept va retseptura blankalari.
4. Retseptning yirtma koreshogi.

5. Retseptda tibbiy xodimlari tomonidan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatoliklar tasnifi.

6. Dori vositalari uchun yozilgan retseptlarning amal qilish muddatlari.

7. Elektron retsept haqida tushuncha.

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1-vazifa. “Insert usuli”da guruh bilan ishlash qoidalarini 3 mavzudan olib, vazifani ish daftaringizda bajaring.

2-vazifa. “Bumerang” usuli.

Guruh bilan ishlash qoidalari:

guruhning har bir a‘zosi

– o‘z sheriklarini fikrlarini hurmat qilishlari lozim;

– berilgan topshiriqlar to‘g‘risida faol hamkorlikda va ma‘suliyat bilan ishlashlari lozim;

– o‘zlariga yordam kerak bo‘lganda so‘rashlari mumkin;

– yordam so‘ralganda ko‘mak berishlari lozim;

– guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim.

Guruhlar uchun topshiriqlar

1-guruh vazifasi:

1) retsept va uning turlari;

2) dorixonalarda imtiyozli tarzda beriladigan dori vositalari haqida tushuncha bering.

2-guruh vazifasi:

1) barcha turdagi retseptlarning o‘z kuchini saqlash muddatlarini tahlil qiling;

2) dorixonada olib qolinadigan retseptlarni saqlash muddatlari.

3-vazifa. Quyidagi vaziyatli masalalar bilan tanishing va javob berishga harakat qiling.

1) 65 yoshli ayol dorixonaga kardiolog tomonidan surunkali yurak yetishmovchiligi bo‘yicha buyurilgan digoksin (tabletkalar)

lar) uchun retsept bilan keldi. Bemor preparatning bir martalik dozasi qoldirib ketilganida qanday va digoksinning haddan tashqari ko'p dozasi bilan qanday alomatlar yuz berishi mumkinligini so'radi. Farmatsevt birinchi navbatda ayolning biror-bir buyrak kasalligidan azob chekmayotganini so'radi va salbiy javobni olgach, bir martalik doza qoldirib ketilgan taqdirda hech qachon ikki barobarli dozani olmaslikni va preparatni qabul qilishni davom ettirish kerakligini aytdi. Farmatsevt, shuningdek, digoksin dozasini oshirib yuborish belgilari, ko'ngil aynish, ko'rish va yurak ritmining buzilishi haqida bemorga ma'lum qildi va ushbu belgilar paydo bo'lsa, darhol tibbiy yordamga murojaat qilishini aytdi. Farmatsevt, shuningdek, bemorga preparatning uy sharoitida saqlash sharoitlari to'g'risida ma'lumot berdi.

Savol:

Digoksin ta'sirida yurakning ish faoliyati qanday o'zgarishi mumkin?

2) Toshkent shahridagi «Dori-darmon»AK ga qarashli 5-dorixonona mudiri ish kunining oxirida giyohvand dori vositalariga yozilgan retseptura blankalarini hisobini olib borish kerakligini aytdi. Shahardagi 1-poliklinika shifokori tomonidan «Kodterpin»ning 60 ta tabletkasiga yozilgan retsept blankasida hamma asosiy rekvizitlar bor, » Retsept uchun» degan muhr bosilgan, «Maxsus tayinlangan» yozuvi, shifokorning shaxsiy muhri va imzosi mavjud.

Viloyat poliklinikasidan «Ketamin»ning 20 ta ampulasiga yozilgan retseptura blankasida (to'liq narxda) ham barcha asosiy rekvizitlar bor, bulardan tashqari retseptning nomeri, bemorning manzili ko'rsatilgan, qo'shimcha tarzda «Retsept uchun» degan muhr bosilgan.

Dorixonona mudiri yosh farmatsevtga kamchiligini tushuntirdi: «Ketamin» eritmasidan 10 ta ampula bemorga berildi, chunki bu preparatning me'yoriy miqdori retseptda oshirib yozilgan, retseptda «Maxsus tayinlangan» yozuvi mavjud emas.

Dorixonona mudiri farmatsevtga hayfsan berdi va bemorning manzili aniqlanib, dori preparatlarini va unga to'langan pullarning qaytarishini tayinladi. Dorixonona mudiri tibbiyot muassasasi-

ning rahbariga telefon orqali murojaat qildi. Muassasa rahbariga shu retseptni yozgan shifokorga hayfsan e'lon qilinishi lozimligini aytdi.

4-vazifa. Retseptura blankalarining shakllariga oid ma'lumotlarni "Klaster" usuli yordamida ish daftaringizda aks ettiring.

5-vazifa. "Mini keys".

Savollar:

1. Tarkibida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar saqlagan dori vositalariga retsept yozish va bemorlarga berish qanday tartibda bo'lishi lozim?

2. "Ketamin" dori moddasini berishda farmatsevt qanday xatoliklarga yo'l qo'ydi?

3. Qanday preparatlarga dori vositalarini bemorlarga berish me'yorlari belgilangan?

4. "Kodterpin" preparatining tarkibini ko'rsating va shu preparatning ishlatilishini aytib bering.

5. "Ketamin" eritmasi qaysi farmakologik guruhga mansub?

6-vazifa. "Retseptura blankalarini qayd qilish daftari"ni ma'lumotlar asosida rasmiylashtiring.

8-vazifa. Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qilib narxi bo'yicha taksirovka qiling.

1. 25 yoshli Asqarovga
Oling.: Askorbin kislota 2.0
Natriy Bromid 4.0
Glyukoza 120.0
Tozalangan suv 300.0 mlgacha
Aralashtiring. Bering. Belgilang.

2. 3 yoshli go'dak Valiyevga
Oling.: Askorbin kislota 0.1
Rutin 0.02
Kalsiy glyukonat 0.2
Kukun hosil qiling, aralashtiring. Shunday dozalardan 20 dona bering.

3. 1 yoshli go'dak Aliyev V.ga
Oling.: Bor kislota 1.0
Salitsil kislota 5.0
Rux oksidi 25.0
Talk 50.0
Kukun hosil qiling, aralashtiring. Bering. Belgilang. Bolani terisiga sepih uchun.

4. 45 yoshli o'sma kasalligi bor bemor Salimovga
Oling.: Promedolning 2%li eritmasi 1 ml dan
Shunday dozadagi ampuladan 10 dona oling.
Belgilang. 1 ml dan og'riq vaqtida.

5. 18 yoshli Karimov A.ga
Oling.: Dimedrol 0.01
Efedrin gidroxlorid 1.0
Shaftoli moyi 5.0
Yalpiz moyi 5.0
Aralashtiring. Bering. Belgilang. Burun tomchisi/ 2-3 tomchidan 3-4 marta tomiziladi.

6. 7 yoshli bemor Kinga
Oling.: Levomitsetin 0.25
Bor kislota 0.2
Etil spirtining 70%li eritmasidan 10ml gacha
Aralashtiring. Bering. Belgilang.

7. 6 yoshli bemor Toshmatovga
Oling.: Natriy gidrokarbonat
Natriy tetraborat 6.0 dan
Natriy xlorid 3.0
Mentol 0.04
Kukun hosil qilish uchun aralashtiring. Bering. Belgilang. 1
osh qoshiq 1 stakan suvda eritib chayiladi.

8. 45 yoshli o'sma kasalligi bor bemor Po'latovga
Oling.: Tiamin bromid 0.01
Askorbin kislota 0.01
Glyukoza 0.2
Shunday dozadan 20ta bering. Kukun hosil qilish uchun
aralashtiring.
Belgilang. Kuniga 2 marta 1 ta ichiladi.

9. 60 yoshli nafaqaxo'r Hakimov A.ga
Oling.: Dimedrol 0.02
Borat kislotasi 0.2
Tozalangan suv 10 ml
Aralashtiring. Bering. Belgilang.
Ko'z tomchisi. 1-2 tomchidan 3-4 marta, har ikkala ko'zga
tomiziladi.

10. 70 yoshli nafaqaxo'r Alimovga
Oling.: Seduksin tabletka
Shunday dozadan 30 dona bering.
Belgilang 1 ta tabletkadan kuniga 3 mahal.

8-vazifa. Yuqoridagi retseptlarni ekspertiza qiling.

9-vazifa. Imtiyozli retsept blankasidagi asosiy va qo‘shimcha rekvizitlarni guruh bilan muhokama qiling.

Шифтаси Муассасаси Саломатликни яхшилаш ва кадрларни яхшилаш бўлими (Беморлик шифхонаси)		Шифтаси Муассасаси Саломатликни яхшилаш ва кадрларни яхшилаш бўлими (Беморлик шифхонаси)		Шифтаси Муассасаси Саломатликни яхшилаш ва кадрларни яхшилаш бўлими (Беморлик шифхонаси)		
ИМТИЁЗЛИ БЕРИШ РЕЦЕПТИНИ РЕЦЕПТНИ ТАРТИБ РАҚАМИ		ИМТИЁЗЛИ БЕРИШ РЕЦЕПТИНИ РЕЦЕПТНИ ТАРТИБ РАҚАМИ		ИМТИЁЗЛИ БЕРИШ РЕЦЕПТИНИ РЕЦЕПТНИ ТАРТИБ РАҚАМИ		
Гувоҳнома рақами	кун	ой	йил	Гувоҳнома рақами	кун	
Беморнинг Ф.И.Ш.	Ташхис ёзи қилинган шифри		Беморнинг Ф.И.Ш.	Ташхис ёзи қилинган шифри		
Маилли	Амбулатория қарғалини тартиб рақами	Ташхис ёзи қилинган шифри	Маилли	Амбулатория қарғалини тартиб рақами	Ташхис ёзи қилинган шифри	
Даволаш врачининг Ф.И.Ш.		Даволаш врачининг Ф.И.Ш.		Даволаш врачининг Ф.И.Ш.		
с/м	Р/р:	с/м		Р/р:	с/м	
(Зори воситасининг савдо номи)		(Зори воситасининг савдо номи)		(Зори воситасининг савдо номи)		
D.S.		D.S.		D.S.		
Бераддатли зори воситасининг номи ва серия рақами)		Бераддатли зори воситасининг номи ва серия рақами)		Бераддатли зори воситасининг номи ва серия рақами)		
Фармацевтнинг Ф.И.Ш.		Фармацевтнинг Ф.И.Ш.		Фармацевтнинг Ф.И.Ш.		
(Дорихонанинг шағали)		(Дорихонанинг шағали)		(Дорихонанинг шағали)		
Беморнинг номи		Беморнинг номи		Беморнинг номи		
Retsept 1 ой давомида халқибилар		Retsept 1 ой давомида халқибилар		Retsept 1 ой давомида халқибилар		

Testlar

1. Maxsus pushti retsept blanklarida qanday dori vositalari yoziladi?

- A. Giyohvand dori vositalari.
- B. Zaharli dori vositalari.
- C. Davolanishga muhtoj bemorlar uchun maxsus ambulator dori vositalari.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

2. 2-shakldagi retsept blankasiga qanday dori vositalari yoziladi?

- A. Imtiyozli va psixotrop preparatlar.
- B. Faqat giyohvand dori vositalari yozilgan pushti rangdagi retsept shakli.
- C. Retseptsiz dori vositalari uchun.
- D. Bolalar va kattalar uchun to'liq narxdagi dori vositalari.

3. Qanday dori vositalari zaharli va kuchli ta'sir ko'rsatadigan dori vositalari ro'yxatiga kiradi?

- A. Kumush nitrat, atropin sulfat, dikain.
- B. Astmaga qarshi dori vositalari va antibiotiklar.
- C. Zamaniha damlamasi, simob sianid.
- D. Sulfanilamidlar, atropin sulfat.

4. Zaharli dori vositalari retsept blanki necha kun amal qiladi?

- A. 10 kun
- B. 1 oy
- C. 3 kun
- D. 3 oy

5. Retsept blankasidagi rekvizitlarni ko'rsating.

- A. Tibbiy muassasaning muhri va shtampi.
- B. Tibbiy xodimning shaxsiy shtampi.
- C. Tibbiy xodimning shaxsiy imzosi.
- D. Barcha javob to'g'ri.

6. Imtiyozli dori vositalari yozilgan retsept blankalari dorixonada qancha vaqt saqlanadi?

- A. 3 yil
- B. 2 yil
- C. 4 yil
- D. 6 oy

7. Imtiyozli dori vositalariga yozilgan retseptning amal qilish muddatini ko'rsating.

- A. 1 oy
- B. 3 oy
- C. 6 oy
- D. 2 oy

8. Imtiyozli dori vositalariga yozilgan retsept blankasi nechta koreshokdan tashkil topgan?

- A. 1
- B. 2
- C. 3
- D. Koreshok bo'lmaydi

9. Rasmiylashtirish vaqtida tibbiy xodim tomonidan xatoga yo'l qo'yilgan retsept blankasiga qanday muhr qo'yiladi?

- A. "Retsept haqiqiy emas."
- B. "Retsept noto'g'ri to'ldirilgan."
- C. "Retsept noto'g'ri berilgan."
- D. Barcha javob to'g'ri.

10. Imtiyozli dori vositalari yozilgan retseptlar qanday hujjatlar asosida hisobga olib boriladi?

- A. Reyestr
- B. Talabnoma
- C. Akt
- D. Yuk-transport hujjati

11. Retsept – bu ...

- A. Shifokorning farmatsevtga yozma murojaati.
- B. Dori vositalari ro'yxati.

- C. Dori vositalariga talab.
- D. Farmatsevtning shifokorga ogʻzaki murojaati.

12. Psixotrop dori vositalari retsepti qancha vaqtgacha amal qiladi?

- A. 10 kun
- B. 3 o
- C. 6 oy
- D. 2 oy

13. Zaharli dori vositalariga yozilgan retsept qancha vaqtgacha amal qiladi?

- A. 10 kun
- B. 6 kun
- C. 2 kun
- D. 4 kun

14. Giyohvand dori vositalariga yozilgan retseptlarning dorixonada saqlash muddatini koʻrsating.

- A. 5 yil
- B. 1 oy
- C. 2 oy
- D. 1 yil

15. Zaharli dori vositalariga yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini koʻrsating.

- A. 1 yil
- B. 2 oy
- C. 1 oy
- D. 5 yil

16. Atropin sulfat 0,1% li eritmasi uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini koʻrsating.

- A. 1 yil
- B. 3 yil
- C. 5 yil
- D. 2 oy

17. Dikain uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 1 yil
- B. 1 oy
- C. 2 oy
- D. 3 yil

18. Promedol 2% – 1,0 eritmasi uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 5 yil
- B. 1 yi
- C. 3 yil
- D. 2 oy

19. Etil spirtiga yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 1 yil
- B. 1 oy
- C. 2 oy
- D. 5 yil

20. Morfin uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 5 yil
- B. 1 yil
- C. 3 yil
- D. 1 oy

21. Omnopon uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 5 yil
- B. 1 oy
- C. 2 oy
- D. 1 yil

22. Imtiyozli beriladigan dori retseptlarini dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 3 yil
- B. 1 oy
- C. 2 oy
- D. 1 yil

23. Kumush nitrat uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 1 yil
- B. 5 yil
- C. 3 yil
- D. 2 oy

24. Strixnin nitrat 0,1%li eritmasi uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 1 yil
- B. 3 yil
- C. 5 yil
- D. 2 oy

25. Mishyak angidridi uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 1 yil
- B. 3 yil
- C. 5 yil
- D. 1 oy

26. Simob tsianid uchun yozilgan dori retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 1 yil
- B. 3 yil
- C. 5 yil
- D. 1 oy

27. Simob oksitsianid uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 1 yil
- B. 1 oy
- C. 2 oy
- D. 5 yil

28. Kodein fosfat uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 5 yil
- B. 1 yil
- C. 3 yil
- D. 2 oy

29. Kokain gidroxlorid uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 5 yil
- B. 1 oy
- C. 2 oy
- D. 1 yil

30. Noksiron uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 5 yil
- B. 1 yil
- C. 3 yil
- D. 2 oy

31. Etaminal natriy tabletkasi uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 5 yil
- B. 1 oy
- C. 2 oy
- D. 1 yil

32. Etilmorfin gidroklorid uchun yozilgan retseptning dorixonada saqlash muddatini ko'rsating.

- A. 5 yil
- B. 1 yil
- C. 3 yil
- D. 1 oy

33. Etil spirtiga yozilgan retseptning yaroqlilik muddatini ko'rsating.

- A. 30 kun
- B. 5 kun
- C. 10 kun
- D. 3 yil

34. Imtiyozli berilgan dori retseptlarini yaroqlilik muddatini ko'rsating.

- A. 30 kun
- B. 5 kun
- C. 10 kun
- D. 1 yil

35. Kumush nitrat uchun yozilgan retseptning yaroqlilik muddatini ko'rsating.

- A. 10 kun
- B. 5 kun
- C. 1 yil
- D. 3 yil

36. Strixnin nitrat 0,1% li eritmasi uchun yozilgan retseptning yaroqlilik muddatini ko'rsating.

- A. 10 kun
- B. 5 kun
- C. 1 yil
- D. 3 yil

37. Mishyak angidridi uchun yozilgan retseptning yaroqlilik muddatini ko'rsating.

- A. 10 kun
- B. 5 kun
- C. 1 yil
- D. 3 yil

38. Simob sianid uchun yozilgan retseptning yaroqlilik muddatini ko'rsating.

- A. 10 kun
- B. 5 kun
- C. 1 yil
- D. 3 yil

39. Simob oksitsianid uchun yozilgan retseptning yaroqlilik muddatini ko'rsating.

- A. 10 kun
- B. 5 kun
- C. 1 yil
- D. 3 yil

40. Kodein fosfat uchun yozilgan retseptning yaroqlilik muddatini ko'rsating.

- A. 10 kun
- B. 5 kun
- C. 1 yil
- D. 3 yil

41. Kokain gidroklorid uchun yozilgan retseptning yaroqlilik muddatini ko'rsating.

- A. 10 kun
- B. 5 kun
- C. 1 yil
- D. 3 yil

42. Narkotik dori vositalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Kodein
- B. Efedrin
- C. Tazepam
- D. Kumush nitrat

43. Narkotik dori vositalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Tebain
- B. Strixnin nitrat
- C. Elenium
- D. Fenobarbital

44. Zaharli dori vositalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Dikain.
- B. Kofein
- C. Elenium
- D. Tebain

45. Zaharli dori vositalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Kumush nitrat
- B. Fepranon
- C. Pentalgin
- D. Nozepam

46. Zaharli dori vositalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Mishyak anhidridi
- B. Sedalgin
- C. Klofelin
- D. Kodterpin

47. Zaharli dori vositalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Strixnin nitrat
- B. Promedol
- C. Siklodol
- D. Seduksen

48. Gangituvchi dori vositalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Efedrin
- B. Kodein
- C. Pentalgin
- D. Analgin

49. Gangituvchi dori vositalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Fenobarbital
- B. Strixnin nitrat
- C. Elenium
- D. Tebain

50. Gangituvchi dori vositalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Efedrin gidroxlorid
- B. Analgin
- C. Dikain
- D. Kofein

51. Gangituvchi dori vositalariga quyidagilardan qaysilari kiradi?

- A. Siklodol
- B. Febranon
- C. Pentalgin
- D. Nozepam

52. Gangituvchi dori vositalariga quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- A. Klofelin
- B. Sedalgin
- C. Kodterpin
- D. Mishyak angidridi

53. Retseptura bo'limida aholidan kelgan retseptlarni kim qabul qiladi?

- A. Farmatsevt-texnolog
- B. Bo'lim boshlig'i
- C. Assistent-farmatsevt
- D. Farmatsevt-analitik

54. Retseptura bo'limida qanday ishlar bajariladi?

A. Retseptlar va talabnomalarni qabul qilish, dorilarni tayyorlash, sifatini nazorat qilish va berish.

B. Ta'minotchilardan kelgan dori vositalarini qabul qilish.

C. Ta'minotchilardan kelgan dori vositalarini sifatini nazorat qilish.

D. Dorixona shahobchalariga dori vositalarini berish.

55. Bitta retsept orqali morfın gidroxlorigidan necha gramm berish mumkin?

- A. 0,3
- B. 0,1
- C. 0,2
- D. 0,5

56. Bitta retsept orqali promedoldan necha gramm berish mumkin?

- A. 0,25
- B. 0,1
- C. 0,2
- D. 0,5

57. Bitta retsept orqali omnopondan necha gramm berish mumkin?

- A. 0,1
- B. 0,2
- C. 0,25
- D. 0,3

58. Bitta retsept orqali kodeindan necha gramm berish mumkin?

- A. 0,2
- B. 0,1
- C. 0,3
- D. 0,5

VI BOB

DORIXONA SHAROITIDA DORI VOSITALARINI TAYYORLASH. DORI SHAROITIDA TAYYORLANGAN DORI VOSITALARINING SIFATINI NAZORAT QILISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

6.1. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, saqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda rasmiylashtirish tartibi

6.2. Aseptik (steril) sharoitlarda dori vositalarini tayyorlash

6.3. Tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini nazorat qilish

6.4. Steril eritmalar sifatini nazorat qilishga doir talablar

6.5. Tayyorlangan dori vositalarini tarqatishdan oldingi nazorati.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

Mustaqil bajarish uchun vazifalar.

Testlar.

Mavzuning maqsadi: Dorixona muassasalarining moddiy texnika bazasi, asbob-uskunalari, boshqa texnik vositalari va xodimlariga bo'lgan talablar, sanitar qoidalar va me'yorlar haqida tushuncha, aseptik blok, aseptik xona va aseptik stollari, dori vositalarining tashqi bezagi haqida talabalarga ma'lumotlar berish.

Talabalarda dorixonaning bo'limlari ularning xonalari, dorixona sharoitida dori vositalarini tayyorlash uchun rasmiylashtiriladigan hujjatlar, dorixonada tayyorlangan dori vositalari sifatini nazorat qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar asosida bilimlarning darajasiga hamda ularni amaliyotda qo'llashga ko'nikmalar hosil qilish. Talabalarda dorixona sharoitida dori vositalarini tayyorlash, dori sharoitida tayyorlangan dori vo-

sitalarini sifatini nazorat qilish ishlarini tashkil etish bo'yicha bilimlarni shakllantirish.

6.1. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, saqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni rasmiylashtirish tartibi

“Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq dori vositalari va tibbiy buyumlarni tayyorlash, tayyorlangan dori vositalarini saqlash, ularning sifatini nazorat qilish va rasmiylashtirish tartibi belgilanadi.

Asosiy tushunchalar:

– *inyeksiyalar uchun dori vositalari* – parenteral qo'llash uchun eritmalar, suspenziyalar, emulsiyalar, shuningdek bevosita ishlatish oldidan steril eritgichda eritiladigan qattiq dori moddalari (kukunlar, tabletkalar, g'ovak massalar) tarzidagi steril dori shakllari;

– *eritmalar* – suyuq, qattiq yoki gaz holdagi moddalarni tegishli eritgichda eritib hosil qilingan suyuq dori shakli. Eritmalar ichki va tashqi qo'llanish uchun, shuningdek inyeksiya uchun foydalaniladi.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni tayyorlash dori vositalari va tibbiy buyumlarni tayyorlash uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan dorixonalar tomonidan amalga oshiriladi.

Dori vositalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qo'llanishi ruxsat etilgan dori moddalaridan (substansiyalardan) tayyorlanadi.

Dori vositalarini tayyorlash sanitariya normalari, talablari va gigiyena talablariga javob beradigan sharoitlarda amalga oshiriladi.

Dori vositalarini tayyorlash bilan shug'ullanuvchi dorixonalar amalga oshirilayotgan farmatsevtika faoliyatining hajmiga va xususiyatiga muvofiq asbob-uskunalar bilan jihozlanishi kerak.

Dori vositalarini tayyorlash va ularning sifatini nazorat qilishda foydalaniladigan o'lchov vositalarining yaroqliligi hamda

aniqligi, shuningdek ularni tekshirish va kalibrlashning muntazamligi ta'minlanishi zarur.

Dorixonalarda tayyorlanadigan dori vositalari sifatini nazorat qiluvchi farmatsevt dorixonaning ichki nazorati sohasida kasbiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Kimyoviy nazoratni o'tkazish uchun zarur uskunalar, priborlar va reaktivlar bilan jihozlangan, sifatni nazorat qilishga doir hujjatlar bilan ta'minlangan maxsus ish o'rni jihozlanadi.

Konsentrlangan (quyuqlashtirilgan) eritmalarini, yarim tayyor mahsulotlarni, dorixonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlarni dori vositalarini tayyorlashda barcha qaydlar qog'oz yoki elektron ko'rinishda rasmiylashtiriladigan laboratoriya va qadoqlash ishlari jurnaliga yozib qo'yiladi.

Jurnalda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

– berilgan dori vositasini (xomashyoni) nazorat qilishni o'tkazish sanasi va tartib raqami;

– seriya raqami;

– dori vositasining nomi, o'lchov birligi, miqdori, chakana narxi (shu jumladan idishning qiymati);

– qadoqlangan mahsulotning tartib raqami, o'lchov birligi, miqdori, chakana narxi, shu jumladan tabletka qilingan dori preparatlari, kukun shaklidagi dori vositalari, dozalangan suyuq dori shakllari uchun tartib raqami, o'lchov birligi, miqdori, chakana narxi;

– dori vositasini qadoqlagan shaxsning imzosi;

– qadoqlangan dori vositasini tekshirgan shaxsning imzosi, tahlil sanasi va raqami.

Jurnalning betlari raqamlangan, ip o'tkazib tikilgan hamda tashkilot rahbarining imzosi va muhr bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlangan bo'lishi kerak.

6.2. Aseptik (steril) sharoitlarda dori vositalarini tayyorlash

Aseptik (steril) sharoitlarda dori vositalarini tayyorlashga nisbatan ularning mikroorganizmlar va mexanik zarrachalar

bilan ifloslanishi xavfini minimumga keltirishga qaratilgan ta-lablar qo'yiladi.

Infeksiyalar va infuziyalar uchun eritmalar, oftalmologik dori shakllari hamda yangi tug'ilgan chaqaloqlar va I yoshga to'lmagan bolalarni davolash uchun mo'ljallangan dori shakl-lari, antibiotikli dori shakllari, dorixona ichida tayyorlangan holdagi dori vositalarining sifati umumiy farmakopeya maqo-lasida belgilangan sifatni nazorat qilish usullariga yoxud bunday maqola bo'lmagan taqdirda sifatni nazorat qilish sohasidagi hujjatga muvofiq aniqlanadi.

6.3. Tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini nazorat qilish

Tayyorlanadigan va tayyorlangan dori vositalarining sifatini nazorat qilish quyidagilar vositasida amalga oshiriladi:

- qabul qilish nazorati;
- yozma nazorat;
- og'zaki nazorati;
- organoleptik nazorat;
- fizikaviy nazorat;
- kimyoviy nazorat;
- tayyorlangan dori vositalarini tarqatishdan oldingi nazorat.

Barcha tayyorlangan dori vositalari tarqatib yuborish chog'ida albatta yozma, organoleptik nazorat qilinishi shart.

Tayyorlangan dori vositalarini, shu jumladan dorixonaning o'zida yarim tayyor holga keltirilgan va qadoqlangan dori vo-sitalari, konsentrlangan eritmalar, trituratsiyalar, etil spirti tar-zidagi vositalarni organoleptik, fizikaviy va kimyoviy nazorat qilish natijalari retseptlar, talabnomalar bo'yicha tayyorlangan hamda dorixonaning o'zida yarim tayyor holga keltirilgan dori vositalari, konsentrlangan eritmalar, etil spirti va dori vositala-riining qadoqlab qo'yish tarzidagi dori vositalarini organoleptik, fizikaviy va kimyoviy nazorat qilish natijalarini qayd etish jur-nalida qayd etiladi.

Jurnalda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

- nazoratni amalga oshirish sanasi va tartib bo'yicha raqami;

– retseptning, talabnomaning raqami, ularni bergan tibbiyot tashkilotining nomi (mavjud bo'lsa);

– sanoatda ishlab chiqarilgan dori moddasining seriya raqami;

– dori vositasining tarkibi: aniqlanadigan modda yoki ion (retseptlar bo'yicha tayyorlangan dori shakllarini fizikaviy yoki kimyoviy nazorat qilishda ko'rsatiladi);

– fizikaviy, organoleptik, sifat nazorati (har biri shkala bo'yicha: ijobiy yoki salbiy), kimyoviy nazorat natijalari (sifat va miqdor tavsifi);

– qadoqlangan dori vositasini tayyorlagan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;

– tayyorlangan dori vositasini tekshirgan shaxsning imzosi;

– yozma nazorat natijalari bo'yicha xulosa: qoniqarli yoki qoniqarsiz.

Jurnalning betlari raqamlangan, ip o'tkazib tikilgan hamda dorixona rahbarining imzosi va muhri bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlanishi kerak.

6.4. Steril eritmalar sifatini nazorat qilishga doir talablar

Steril eritmalarini tayyorlash va sifatini nazorat qilish ushbu nizomga, Davlat farmakopeyasi talablariga yoki sifat nazorati sohasidagi boshqa hujjatga muvofiq amalga oshiriladi.

Inyeksion va venaga yuboriladigan infuzion dori vositalarini, inyeksiyalar uchun suvni bakterial endotoksinlar yoki pirogenlar yo'qligi jihatidan nazorat qilish attestatsiyadan o'tkazilgan laboratoriyalarda bir yilda ikki marta oralatib tanlab amalga oshiriladi.

Sterilligi bo'yicha talablar qo'yiladigan inyeksion, vena ichiga kiritiladigan infuzion dori vositalarini, oftalmologik va boshqa dori vositalarini sterilligi jihatidan nazorat qilish belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazilgan laboratoriyalarda har oyda oralatib tanlab amalga oshiriladi.

Steril eritmalar sterilizatsiyadan oldin va keyin ularda mexanik aralashmalar yo'qligi nuqtayi nazaridan nazorat qilinadi.

Harakatlanadigan erimaydigan yot moddalar mexanik ara-

lashmalar hisoblanadi, dori vositalarining eritmalarida tasodifiy ravishda uchraydigan gaz ko'pikchalari bundan mustasno.

Bir vaqtning o'zida idishlardagi eritmalar hajmi va ularning tiqinlanishi sifati tekshirilishi kerak.

Steril eritmalar tayyorlanishi jarayonida mexanik aralashmalar bor-yo'qligi jihatidan birlamchi va ikkilamchi nazoratdan o'tkazilishi kerak.

Birlamchi nazorat tayyorlangan eritma filtrlanganidan va qadoqlanganidan keyin amalga oshiriladi.

Mexanik aralashmalar aniqlangan taqdirda eritma qaytadan filtrlanadi, yana ko'zdan kechiriladi, tiqinlanadi, markirovkalanadi va sterillanadi.

Aseptik (steril) tayyorlangan eritmalar qadoqlash yoki sterillovchi filtrlashdan keyin bir marta ko'zdan kechiriladi.

Eritmali idishlar birlamchi va ikkilamchi nazoratdan to'liq o'tkaziladi.

Eritmalarni mexanik aralashmalar yo'qligi jihatidan nazorat qilish nazorat shartlari va texnikasiga rioya etgan holda farmatsevt-texnolog tomonidan amalga oshiriladi.

Idishlarni ko'zdan kechirish uchun quyosh nurlari to'g'ridan-to'g'ri tushishidan pana qilingan, maxsus jihozlangan ish o'rni bo'lishi kerak.

Idishning hajmiga qarab bir vaqtning o'zida bittadan beshtagacha ko'zdan kechiriladi.

Inyeksiyalar uchun eritmalar ular fizikaviy-kimyoviy ko'rsatkichlarga nomuvofiq bo'lganda; ko'rinarli mexanik aralashmalar bo'lganda; sterilligi bo'yicha talabga mos bo'lmaganda; tiqinning mahkamligi buzilganda; shisha idishlarning to'ldirilishi hajmi yetarli bo'lmaganda qoniqarsiz deb topiladi.

Inyeksiyalar uchun eritmalar solingan shisha idishlar tiqinlanganidan keyin metall jetonlardan foydalangan, nomi va konsentratsiyasi ko'rsatilgan holda qopqog'iga yozib qo'yish yoki shtamp bosish yo'li bilan markirovka qilinadi.

Inyeksiyalar uchun eritmalar tarkibiga kiruvchi moddalarning fizikaviy-kimyoviy xossalariga va belgilangan yaroqlilik muddatiga muvofiq saqlanishi kerak.

6.5. Tayyorlangan dori vositalarini tarqatishdan oldingi nazorati

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining 2018-yil 27-mart, 17-son buyrug'iga asosan barcha tayyorlangan dori vositalari tarqatishdan oldin nazoratdan o'tkaziladi, uning doirasida quyidagilarga mosligi tekshiriladi:

- dori vositasi o'rov-idishining uning tarkibiga kiruvchi dori moddalarining fizikaviy-kimyoviy xossalariga mosligi;
- retsept, talabnoma rekvizitlarining tayyorlangan dori vositasining o'rov-idishida ko'rsatilgan ma'lumotlarga mosligi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, saqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda rasmiylashtirish tartibi nimalardan iborat?

2. Aseptik (steril) sharoitlarda dori vositalari qanday tayyorlanadi?

3. Tayyorlanadigan dori vositalarining sifatini nazorat qilish tartibi qanday?

4. Steril eritmalar sifatini nazorat qilishga doir talablar nimalardan iborat?

5. Tayyorlangan dori vositalarini tarqatishdan oldingi nazorati qay tartibda o'tkaziladi?

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1-vazifa. 6-mavzuning 8-vazifasidagi 10 ta yozilgan retseptlarni yorliqlar bilan rasmiylashtiring. Kerak bo'lsa ogohlantiruvchi yozuvlar yozing.

2-vazifa. Aseptik blokidagi apparatura va jihozlarni, assistentlar xonasini boshqa xonalar bilan bog'liqligi haqida aytib bering.

3-vazifa. Assistentlar xonasidagi apparatura va jihozlarni, assistentlar xonasini boshqa xonalar bilan bog'liqligi haqida ish daftaringizda yozib chiqing.

4-vazifa. Sanitar qoidalar va me'yorlar keltirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarni tahlil qiling va "Assesment" usuli yordamida ish daftaringizni to'ldiring.

5-vazifa. 6-mavzuning 8-vazifasidagi 10 ta yozilgan retseptlar tarkibidagi dori vositalarini nazorat turlari bo'yicha tahlil qiling.

6-vazifa. Retsept asosida tayyorlangan dori vositasining hajmini yoki og'irligini O'zRSSV ning 2018-yil 27-martdagi 17-son buyrug'iga asosan og'ish me'yori hisoblang va tegishli xulosa chiqaring.

7-vazifa. Defektar xonasining jihozlanishini ta'riflang. Tarqatma materiallar asosida defektar xonadagi rangli va rangsiz shtanglaslarga dorilarni joylashtiring.

8-vazifa. Chizma yordamida dorixonadagi mavjud barcha xonalarni ish daftaringizga chizib ko'rsating.

Testlar

1. Dorixonada tayyorlangan dorilar sifatini kim nazorat qilib turishi shart?

- A. Mudir
- B. Texnolog
- C. Farmatsevt-analitik
- D. Sotuvchi

2. Organoleptik nazoratda bolalarga tayyorlangan ichish uchun dorilarning nimasi albatta tekshiriladi?

- A. Miqdori
- B. Ta'mi
- C. Chinligi
- D. Rangi

3. Og'zaki nazoratni kim amalga oshiradi?

- A. Farmatsevt-texnolog
- B. Analitik
- C. Mudir
- D. Sotuvchi

4. Sanitar qoidalar va me'yorlarning birinchi bo'limi nima haqida?

- A. Dorixonaning joylashishi
- B. Dorixonaning qurilishi
- C. Umumiy holatlar
- D. Qoidalar

5. Dorixona xodimlarining shaxsiy gigiyenasi va xonalarning tozaligi Sanitar qoidalar va me'yorlarning qaysi bo'limida aks etgan?

- A. 5-bo'lim
- B. 1-bo'lim
- C. 4-bo'lim
- D. 2-bo'lim

6. Assistentlar, analitiklar va qaysi xonalar bir-biriga yaqin joylashishi kerak?

- A. Aseptik
- B. Sotuv
- C. Distilyatsiya
- D. Ombor

7. Qaysi xonada farmatsevt xalat, qalpoq, tapochkalarni kiyib, so'ng aseptik xonaga o'tadi?

- A. Tambur
- B. Koktoriy
- C. Assistentlar
- D. Analitik

8. Dorixonada blok xonalar nechta seksiyadan iborat?

- A. 5
- B. 4
- C. 3
- D. 2

9. Qaysi blok albatta ventilyatsiya bilan jihozlanishi shart?
- A. Aseptik
 - B. Yuvish xonasi
 - C. Savdo zali
 - D. Analitik xona
10. Aseptik blok va distillyatsiya xonasida nima bo'lishi shart?
- A. Avtoklav
 - B. Bakteriotsid nurlatgich
 - C. Doska
 - D. Stol
11. Dorixona xodimlari ishga qabul qilinishidan oldin qanday tekshiruvdan o'tishi shart?
- A. Texnik
 - B. Intellektual
 - C. Attestatsiya
 - D. Tibbiy
12. Yozma nazorat kim tomonidan o'tkaziladi?
- A. Farmatsevt-analitik
 - B. Farmatsevt-texnolog
 - C. Farmatsevt-assistent
 - D. Qadoqlovchi
13. Og'zaki nazorat kim tomonidan o'tkaziladi?
- A. Farmatsevt-analitik
 - B. Farmatsevt-texnolog
 - C. Farmatsevt-assistent
 - D. Qadoqlovchi
14. Fizikaviy nazorat kim tomonidan o'tkaziladi?
- A. Farmatsevt-analitik
 - B. Farmatsevt-texnolog

- C. Farmatsevt-assistent
- D. Qadoqlovchi

15. Organoleptik nazorat kim tomonidan o'tkaziladi?

- A. Farmatsevt-analitik
- B. Farmatsevt-texnolog
- C. Farmatsevt-assistent
- D. Qadoqlovchi

16. Kimyoviy nazorat kim tomonidan o'tkaziladi?

- A. Farmatsevt-analitik
- B. Farmatsevt-texnolog
- C. Farmatsevt-assistent
- D. Qadoqlovchi

17. Farmatsevt-assistentlar o'rtasidagi ishlarni kim taqsimlaydi?

- A. Farmatsevt-texnolog
- B. Farmatsevt-analitik
- C. Dorixona mudiri
- D. Bo'lim boshlig'i

18. Assistentlar xonasidagi dorilar solingan shtanglaslarda qanday ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'ladi?

- A. Dorining nomi, to'ldirilgan sana, to'ldirgan va chinligini tekshirgan shaxsning imzosi
- B. Dorining yaroqlilik muddati
- C. Shtanglasni to'ldirgan shaxsning imzosi
- D. Farmatsevt-analitikning imzosi

19. Yozma nazorat uchun yozilgan pasportda qanday ma'lumotlar ko'rsatiladi?

- A. Sana, retsept nomeri, dori moddaning nomi va miqdori, dozasi, tayyorlagan qadoqlagan va tekshirgan shaxsning imzosi
- B. Dori moddaning nomi

- C. Sifatini nazorat qilgan shaxsning imzosi
- D. Bo'lim boshlig'ining imzosi

20. Yozma nazorat qaysi dori turlariga o'tkaziladi?

- A. Dorixonada tayyorlangan hamma dorilarga
- B. Bolalar uchun tayyorlangan dorilarga
- C. Inyeksion dorilarga
- D. Sirtga ishlatiladigan, ichish uchun tayyorlangan dorilarga

21. Og'zaki nazorat qaysi dori turlariga o'tkaziladi?

- A. Tayyorlangan har 5 ta doridan tanlab o'tkaziladi.
- B. Dorixonada tayyorlangan hamma dorilarga
- C. Bolalar uchun tayyorlangan dorilarga
- D. Inyeksion dorilarga

22. Organoleptik nazorat qaysi dori turlariga o'tkaziladi?

- A. Dorixonada tayyorlangan hamma dorilarga
- B. Bolalar uchun ichishga tayyorlangan dorilarga
- C. Inyeksion dorilarga
- D. Sirtga ishlatiladigan dorilarga

23. Fizikaviy nazoratda dorining qanday ko'rsatkichlari nazorat qilinadi?

- A. Dorining hajmi, dozasi massasi
- B. Dorining hidi, mazasi
- C. Dorining mutanosibligi
- D. Yot moddalarning yo'qligi

24. Ko'z tomchilari va surtmalariga qanday nazorat turlari o'tkaziladi?

- A. Kimyoviy, og'zaki, organoleptik, yozma, fizikaviy
- B. Og'zaki, yozma
- C. Fizikaviy, yozma, og'zaki
- D. Organoleptik, kimyoviy

25. Inyeksiya uchun ishlatiladigan dorilar uchun qanday nazorat turlari o'tkaziladi?

- A. Kimyoviy, og'zaki, organoleptik, yozma, fizikaviy
- B. Og'zaki, yozma
- C. Fizikaviy, yozma, og'zaki
- D. Organoleptik, kimyoviy

26. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun tayyorlangan dorilar uchun qanday nazorat turlari o'tkaziladi?

- A. Kimyoviy, og'zaki, organoleptik, yozma, fizikaviy nazorat
- B. Og'zaki, yozma nazorat yordamida
- C. Fizikaviy, yozma, og'zaki nazorat
- D. Organoleptik, kimyoviy nazorat

27. Tarkibida xlorid kislota eritmasi saqlagan dorilar uchun qanday nazorat turlari o'tkaziladi?

- A. Kimyoviy, og'zaki, organoleptik, yozma, fizikaviy
- B. Og'zaki, yozma
- C. Fizikaviy, yozma, og'zaki
- D. Organoleptik, kimyoviy

28. Tarkibida atropin sulfat saqlovchi dorilar uchun qanday nazorat turlari o'tkaziladi?

- A. Kimyoviy, og'zaki, organoleptik, yozma, fizikaviy usul
- B. Og'zaki, yozma usul
- C. Fizikaviy, yozma, og'zaki usul
- D. Organoleptik, kimyoviy usul

29. Tarkibida kumush nitrat saqlagan dorilar uchun qanday nazorat turlari o'tkaziladi?

- A. Kimyoviy, og'zaki, organoleptik, yozma, fizikaviy usul
- B. Og'zaki, yozma usul
- C. Fizikaviy, yozma, og'zaki usul
- D. Organoleptik, kimyoviy usul

30. Tarkibida zaharli modda saqlagan dorilar uchun qanday nazorat turlari o'tkaziladi?

- A. Kimyoviy, og'zaki, organoleptik, yozma, fizikaviy
- B. Og'zaki, yozma
- C. Fizikaviy, yozma, og'zaki
- D. Organoleptik, kimyoviy

31. Tarkibida giyohvand modda saqlagan dorilar uchun qanday nazorat turlari o'tkaziladi?

- A. Kimyoviy, og'zaki, organoleptik, yozma, fizikaviy usul
- B. Og'zaki, yozma usul
- C. Fizikaviy, yozma, og'zaki usul
- D. Organoleptik, kimyoviy usul

VII BOB

RETSEPTSIZ SAVDONI TASHKIL QILISH

7.1. Retseptsiz beriladigan dori vositalari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumotlar

7.2. OTC vositalarga qo'yiladigan talablar

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

Testlar

Mavzuning maqsadi: talabalarda dorixonalardagi retseptsiz savdo bo'limi ishini tashkil qilish, bu bo'limning jihozlanishi, bo'limda faoliyat ko'rsatadigan farmatsevt kadrlar, OTC vositalar, ATS turkumlanish tizimi, shtrix kodlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish. Retseptsiz savdo bo'yicha talabalarning bilim darajasiga hamda ularni amaliyotda qo'llashga uzviy bog'liq.

7.1. Retseptsiz beriladigan dori vositalari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumotlar

1. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan va dorixonalardan shifokor retseptsiz beriladigan dori vositalariga ushbu ro'yxatga kiritilgan dori vositalarining xuddi shu tarkibdagi ta'sir qiluvchi moddalari va dori shakliga, dozasiga ega bo'lgan dori vositalari ham kiradi.

2. Dori vositalarining o'ramlari, tibbiyotda qo'llanishiga doir yo'riqnomalari, ilova-varaqalarida ko'rsatilgan dori vositalarini berishda, berish tartibidan qat'iy nazar, retseptsiz beriladigan dori vositalari ro'yxatiga amal qilinishi kerak.

Joriy yilning 11-iyun kuni Ambulatoriyada davolanishda imtiyozli ta'minlash uchun mo'ljallangan dori vositalarining ro'yxatiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Bu haqda Adliya vazirligining "Huquqiy axborot" kanalida ma'lum qilindi.

Kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, endilikda omnopon inyeksiyasi uchun 2% 1 ml eritma ham imtiyozli asosda beriladi.

Ilgari faqat omnopon inyeksiyasi uchun 1% 1 ml eritma berilgan.

Bundan tashqari, quyidagilar ham imtiyozli asosda beriladigan dori vositalari ro'yxatiga kiritildi:

- trifluoperazin (tabletk 5 mg);
- fluferazin (in'eksiya uchun eritma 25mg/1 ml);
- olanzapin (tabletk 5 mg).

OTC vositalar (Over the counter drugs) shifokor retseptisiz sotiladigan dori vositalari guruhidir. Buyuk Britaniyada bunday dori vositalari ikki kategoriyaga bo'linadi – faqat dorixona orqali sotiladigan (“ROM” guruhi – Pharmacy only medicines) va umumiy savdo tarmoq orqali sotiladiganlar (“GLS” guruhi – General sales list, ing).

Retseptisiz sotiladigan vositalar bozori 1970-yillarda AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa, G'arbiy Yevropa davlatlarida faol rivojlana boshlagan edi. OTC vositalar bozorini vujudga kelishini quyidagi asosiy sabablarini aytib o'tish lozim:


– umumterapevtik tajribada ishlatiladigan vositalarni chiqarilish shakllari va assortimentlarini kengayishi (giyohvand bo'lmagan analgetiklar, yallig'lanishga qarshi nosteriod vositalar, vitaminlar, metabolizm stimullyatorlari, antatsid vositalar va boshqalar);

– tibbiy xizmatlarni, shifokorga tashrifni qimmatlashishi, tashxis qo'yish, retseptlarni yozib berishga to'lovlar va boshqalar;

– ijtimoiy umumta'lim darajasini o'sishi va aholini bandligini hamda shaxsiy sog'liqqa bo'lgan mas'uliyatni oshishi.

7.2. OTC vositalarga qo'yiladigan talablar

Turli davlatlarda retseptisiz sotiladigan dori vositalarga talablar turlicha, ammo ular orasida quyidagi farmakoterapevtik, ma'lumotli, iqtisodiy va informatsion talablarni ajratish mumkin.



OTC vositalar statusi odatda qayd etish guvohnomasi berilayotganda to'la huquqli milliy tashkilotlar tomonidan belgilanadi. U yoki bu vositani qo'llashda yangi qo'shimcha ma'lumotlar paydo bo'lganda bu status qayta ko'rib chiqiladi.

OTC vositasini Yel (Yevropa Ittifoqi) doirasidagi statusi "Odam uchun dorivor vositalarni kategoriyasini aniqlash haqida" 31-mart 1992-yildan Yel Kengash Direktivasi tomonidan aniqlanadi.

OTC vositalari bozor tizimida iste'molchiga alohida e'tibor beriladi. Retseptsiz sotiladigan dori vositalari muomalasi quyidagilarga asoslanib bo'linadi:

- shaxsiy sabablarga va afzalliklarga ko'ra;
- farmatsevt maslahatlariga ko'ra;
- yaqinlar, do'stlar maslahatlariga ko'ra;
- ommaviy axborot vositalari va reklamaga ko'ra;
- vosita bahosiga ko'ra;
- qadoqlarini sifatli bezaliganligiga ko'ra va boshqalar.

OTC vositalari bozori rivojlanishini asosiy shartlariga ishlab chiqaruvchi firmalarni va distribyutorlarni ustalik bilan olib borgan farmatsevtik marketingi kiradi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Retseptsiz savdo bo'limining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. OTC (Over The Counter Drugs) vositalar tizimi, retseptsiz sotiladigan vositalarga qo'yilgan asosiy talablar.
3. ATS (Anatomical Therapeutic Chemical Classification System) bo'yicha turkumlanish tizimi, shtrix kodlash.
4. Dori vositalarini retseptsiz berish va dorixona assortimenti.

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1-vazifa. OTC vositalariga qo'yiladigan umumiy talablarni Klaster usuli yordamida ish daftaringizda tasvirlang.

2-vazifa. "Esse" usuli orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlarni ish daftaringizda yoritib bering.

Esse (frans. – urinish, sinash, ocherk) – erkin kompozitsiyali, uncha katta bo'lmagan nasriy asar. Esse usuli orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi. Esselar falsafiy, tarixiy biografik, publitsistik, adabiy-tanqidiy, ilmiy ommabop yoki sof belletristik xarakterda bo'ladi. Esse uslubi obrazlilik, aforistikligi, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoki masalaga oid tugal tafsilotni yoki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo'ladi. O'zbek adabiyotida 20-asrning 70–80-yillaridan yaratila boshlandi.

3-vazifa. Mavzu bo'yicha ma'lumotlar asosida «Assesment» usulidan foydalanib jadvalni ish daftaringizda to'ldiring.

TEST	VAZIYATLI MASALA

TUSHUNCHA	KO'NIKMALAR

4-vazifa. Blitz so'rov savollari

1. Retseptsiz savdo bo'limining asosiy vazifalari.
2. Retseptsiz savdo bo'limidagi farmatsevtning majburiyatlari.
3. Farmatsevtik tovarlarning shtrix kodlash.
4. OTC vositalariga qo'yiladigan talablarni izohlang.
5. ATC kodi qanday dori vositalari uchun taalluqli emas?
6. Farmatsevtik tovarlarni markalash va qadoqlash.
7. Retseptsiz savdo bo'limi mudirining vazifalari.
8. ATC turkumlanish tizimi deganda nimani tushunasiz?

5-vazifa. O'zbekiston Respublikasida retseptsiz beriladigan dori vositalarining savdo hajmini oshishiga ta'sir etuvchi omillarni ish daftaringizda aks ettiring.

Testlar

1. Retseptsiz savdo bo'limi qayerda joylashgan bo'ladi?
 - A. Metodik xonada
 - B. Tortish xonasida
 - C. Retseptura xonasida
 - D. Kutish zalida

2. Retseptsiz savdo bo'limini kim boshqaradi?
 - A. Farmatsevt-bo'lim mudiri
 - B. Farmatsevt-mudir o'rinbosari
 - C. Sanitar yuvuvchi
 - D. O'rta ma'lumotli farmatsevt

3. OTC ga ta'rif bering...
- A. Retseptsiz sotiladigan dori vositalar
 - B. Retsept bo'yicha sotiladigan dori vositalar
 - C. Bepul beriladigan dori vositalar
 - D. Imtiyozli beriladigan dori vositalar
4. O'zbekistonda retseptsiz dori vositalarini sotish hajmini kengayishiga olib kelgan omillarni ko'rsating...
- A. Dori vositalar assortimentining ortishi.
 - B. Aholining bilim daraja va saviyasining o'sishi.
 - C. Sog'lom turmush tarziga intilish.
 - D. Barcha javoblar to'g'ri.
5. OTC vositalarini tavsiya etishda farmatsevtning asosiy vazifalari qaysilar?
- A. OTC vositasi haqida to'liq ma'lumot berish.
 - B. Ma'lumot beruvchi yo'riqnoma mavjudligini tekshirish.
 - C. Ratsional ishlatish va saqlash sharoitlarini ko'rsatish.
 - D. Barcha javoblar to'g'ri.
6. Retseptsiz dori vositalarini sotish hajmiga qanday omillar ta'sir qiladi?
- A. Dori vositalari assortimentning kengayishi.
 - B. Aholi bilim darajasi va saviyasini o'sishi.
 - C. O'zini va oila a'zolarining sog'lig'iga e'tiborli bo'lish, sog'lom turmush tarziga intilish.
 - D. Barcha javoblar to'g'ri.
7. OTC vositalari nimalarga asoslangan holda turkumlanadi?
- A. Do'stlar maslahatlariga ko'ra
 - B. Shaxsiy sabab va afzalliklarga ko'ra
 - C. Farmatsevt maslahatlariga ko'ra
 - D. Barcha javoblar to'g'ri
8. OTC vositalarga qanday talablar qo'yiladi?
- A. Farmakoterapevtik

- B. Ma'lumot
- C. Iqtisodiy, informatsion
- D. Barcha javoblar to'g'ri

9. OTC turkumlanish tizimi nechta darajaga ega?

- A. 5 ta
- B. 4 ta
- C. 3 ta
- D. 2 ta

10. OTC kodi qaysi dori vositalarga berilmaydi?

- A. Diuretiklarga
- B. Substansiyalarga
- C. Yordamchi vositalarga va xalq tabobati vositalariga
- D. Barcha javoblar to'g'ri

VIII BOB

DORIXONADA ZAXIRALAR BO'LIMI ISHINI TASHKIL QILISH. LABORATORIYA QADOQLASH ISHLARINI HISOBGA OLISH

- 8.1. Dorixonaning zaxiralar bo'limi ishini tashkil qilish
 - 8.2. Dorixonada tovarlarni qabul qilish qoidalari va ularni boshqa bo'limlarga berish tartibi
 - 8.3. Laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish
Mustaqil tayyorlanish uchun savollar
Mustaqil bajarish uchun vazifalar
Testlar
-

Mavzuning maqsadi: talabalarga dorixona zaxiralar bo'limi ishini tashkil qilish, laboratoriya qadoqlash ishlarini hisobga olish bo'yicha bilimlar berish. Ulgurji savdo korxonalaridan dorixonaga dori vositalari va tibbiyot buyumlarini olib kelish uchun rasmiylashtiriladigan hujjatlar, dorixonaning zaxiralar bo'limida laboratoriya qadoqlash ishlarini hisobga olish bo'yicha bilimlar berish asosida ko'nikmalar hosil qilish.

8.1. Dorixonaning zaxiralar bo'limi ishini tashkil qilish

Zaxiralar bo'limining asosiy vazifalari dorixonaga ta'minotchilardan keltirilgan dori vositalari va boshqa tibbiy buyumlarini qabul qilib olish, saqlash, ularni boshqa bo'limlarga, davolash-profilaktika muassasalariga, tashkilotlarga, shaxobchalariga tarqatish hamda laboratoriya va qadoqlash ishlarini amalga oshirishdan iborat. Dorixonani dori vositalar, tibbiy buyumlarning kerakli turlari bilan ta'minlanib turishini kuzatib borish, tovar zaxiralarning to'g'ri saqlanishini tashkil etish.

Zaruriy tovarlar uchun buyurtma talabnomalar tuzib, o'z vaqtida dorixona omboriga yuborish.

Ta'minotchilardan kelgan buyumlarni qabul qilib olish.

Bo'limdagi tovarlarning harakati to'g'risida hisobot tuzib borish.

Retseptsiz savdo bo'limiga tegishli tovarlarni berish.

Assistentlar xonasidagi shtanglaslarni dori vositalari bilan to'ldirib turish.

Dorixonaga biriktirilgan DPM larga, dorixonada shoxobchalariga tovarlarni tarqatish.

Tarqatilgan tovarlar uchun yuk-xati va boshqa tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish.

Zaxiralar bo'limida farmatsevt va qadoqlovchilar xizmat qilib, ular bevosita bo'lim mudiri va muovinlariga bo'ysunadilar

Bo'limda farmatsevt-texnologning vazifalari quyidagilardan iborat:

– bo'limdagi laboratoriya ishlarini olib borish, jumladan, konsentrlangan eritmalarini, yarim fabrikatlar, dorixonada va tez-tez uchrab turadigan retseptlar bo'yicha oldindan dorilar tayyorlash;

– qadoqlovchilar o'rtasida ishlarni taqsimlab, qadoqlangan mahsulotlarni qabul qilish;

– tovarlar saqlash xonalarida Davlat farmakopeyasi va amalda tasdiqlangan yo'riqnomalarning talablariga muvofiq to'g'ri saqlanishini ta'minlash;

– shtanglaslarni dori vositalari bilan to'ldirib turish;

– biriktirilgan davolash-profilaktika muassasalari va dorixonada bo'limlaridan tushgan talabnomalar asosida mahsulotlar to'plash;

– dori vositalari va boshqa tibbiy buyumlarga buyurtma tuzishda qatnashish, vaqtinchalik yo'q bo'lgan dori vositalariga buyurtma tuzishda qatnashish, vaqtinchalik savdoda bo'lmagan va yangi qabul qilingan dori vositalarining hisobini olib borish;

– dorixonaga olib kelingan tovarlarni qabul qilishda qatnashib, ularni saqlanish joylari bo'yicha joylashtirishni tashkil qilish;

– bo'limda farmatsevtik tartib va sanitariya me'yori va qoidalariga rioya qilishni nazorat qilib turish;

Qadoqlovchilar esa quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- dori vositalarni qadoqlash;
- tovarlarni qabul qilishda va bo‘limlarga tarqatishda qatnashish;
- tarozilardan, qadoqlash uskunalaridan to‘g‘ri foydalanib, ularning ozoda saqlanishini ta‘minlash;
- farmatsevt va farmatsevt assistentlarning ishlab chiqarishga doir ko‘rsatmalarini bajarish.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining “Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, saqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2018-yil 27-mart, 17-sonli buyrug‘iga asosan faoliyat olib boriladi.

Dori vositalarining saqlash qoida va shartlariga aniq rioya qilinsa, ularning buzilish holarini oldi olinadi. Dori vositalarini saqlashda ularni toksikologik xossalari, farmakologik guruhlari, qo‘llanish usullari, agregat holatlari, yaroqlilik muddati ta‘sirchanligiga asosan guruhlarga tasniflanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni saqlash bo‘yicha texnik talablar to‘g‘risidagi nizomning 1-bandiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida” gi 2018-yil 11-iyun 31-sonli va “Dorixona va tibbiyot muassasalarida tramadol dori vositasini saqlash, hisobini olib borish va berish qoidalari to‘g‘risida»gi buyruqqa o‘zgartirishlar kiritish haqidagi” 2017-yil 3-avgustdagi 104-sonli buyruqlari asosida faoliyat olib boriladi.

Ushbu dori vositalari saqlanadigan xonalar yorug‘lik yoki tovush signalizatsiyasi bilan ta‘minlanadi.

Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, prekursorlar saqlanadigan seyflarning ikkitadan kaliti bo‘lishi lozim. Ularning biri javobgar shaxsda, ikkinchisi esa mudirda bo‘ladi. Giyohvand dori vositalari saqlanadigan seyflarda ularni o‘lchash uchun qo‘l tarozilari, dori vositalarini tayyorlash uchun xovoncha, silindr, voronka bo‘lishi shart.

Prekursorlar saqlanadigan xonalarda tabiiy ventilyatsiya bo‘lishi lozim.

Prekursorlar saqlanganda chang bilan ifloslanmaslik va boshqa choralarni ko'rish kerak, aks holda portlash hodisasi ro'y berishi mumkin. Etil spirti alanga oluvchi preparatlar qatoriga kirgani uchun, uni og'zi mahkam yopiladigan idishlarda yorug'likdan himoya qilingan holda, salqin joylarda, alohida xonalarda saqlanishi kerak.

8.2. Dorixonada tovarlarni qabul qilish qoidalari va ularni boshqa bo'limlarga berish tartibi

Zaxiralar bo'limi dorixona omboridan buyumlarni olish uchun buyurtma-talabnoma yozadi. Buyurtma-talabnoma uch nuxxada omborning tegishli bo'limlari uchun rasmiylashtiriladi.

Tarkibida zaharli, giyohvand moddalar va etil spirti bo'lgan dori vositalari uchun alohida buyurtma-talabnomalar har oyda reja asosida dorixona omboriga yuboriladi.

8.3. Laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish

Dorixonalarda tayyor dori vositalari miqdorini oshirish, ektemporal tayyorlashni tezlashtirish uchun laboratoriya va qadoqlash ishlari olib boriladi, ular "Laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish daftarida" rasmiylashtiriladi. Ular raqamlangan, shnurlangan, muhrlangan bo'lishi, ularda yuqori tashkilot rahbarlari va bosh hisobchining imzolari bo'lishi shart. Daftardagi barcha yozuvlar ma'lum bir vazifalar bajarilgandan so'ng yoziladi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. Dorixonaning zaxiralar bo'limi ishini tashkil qilish tartibi qanday?
2. Dorixonada tovarlarni qabul qilish qoidalari va ularni boshqa bo'limlarga berish tartibi qanday rasmiylashtiriladi?
3. Laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish tartibi qanday?.

Mustaqil bajarish uchun vazifalar

1-vazifa. “ASSESSMENT” usulidan foydalanib, zaxira bo‘limining ishini tashkil qilish, laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish mavzusiga oid jadvalni ish daftaringizda to‘ldiring.

TEST	VAZIYATLI MASALA
TUSHUNCHA	KO‘NIKMA

2-vazifa. “Esse” usuli orqali mavzu bo‘yicha ma’lumotlarni ish daftaringizda yoritib bering.

Esse (frans. – urinish, sinash, ocherk) – erkin kompozitsiyali, uncha katta bo‘lmagan nasriy asar. Esse usuli orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi. Esselar falsafiy, tarixiy biografik, publitsistik, adabiy-tanqidiy, ilmiy-ommabop yoki sof belletristik xarakterda bo‘ladi. Esse uslubi obrazlilik, aforistikligi, jonli tilga yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoki masalaga oid tugal tafsilotni yoki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida 20-asrning 70–80 yillaridan yaratila boshlandi. Esse hajmi taklif qilingan mavzudagi 1000 so‘zdan 5000 so‘zgaacha bo‘lgan asardir. Esse-bu muallifning alohida individual pozitsiyasiga ega erkin shakldagi bayoni bo‘lib, qandaydir buyum yoki qandaydir sabab bo‘yicha umumiy yoki oldindan bildirilgan fikr-mulohazalardan iborat bo‘ladi.

3-vazifa

“Bumerang” usuli.

Guruh bilan ishlash qoidalari:

Guruhning har bir a’zosi

- o‘z jamoadoshining fikrlarini hurmat qilishi;
- berilgan topshiriqlar to‘g‘risida faol hamkorlikda va ma’suliyat bilan ishlashi;
- o‘ziga yordam kerak bo‘lganda so‘rashi;
- yordam so‘ralganda ko‘mak berishi;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etish lozim.

Guruhlar uchun topshiriqlar:

1-guruh vazifasi:

1. Zaxiralar bo‘limining vazifalari.
2. Zaxiralar bo‘limidagi xodimlar nomenklaturasi.

2-guruh vazifasi

1. Dori vositalarini saqlash qoidalari.
2. Zaxiralar bo‘limiga tovarlarni qabul qilish va boshqa bo‘limlarga tarqatish tartibi.

4-vazifa. T-sxemasi uslubi yordamida, ushbu mavzu bo‘yicha tegishli xulosalar chiqaring va ish daftaringizda izohlang.

Testlar

1. Dorixona zaxira bo‘limining asosiy vazifalari:

- A. Tovarlarni qabul qilish, tovarlarni boshqa dorixonalarga yetkazish, laboratoriya va qadoqlash ishlarini bajarish.
- B. Yetkazib beruvchilarning mahsulotlarini qabul qilish.
- C. Dori vositalarining sifatini nazorat qilish.
- D. Tovarlarni taqsimlash.

2. Zaxira bo'limida ishlaydigan farmatsevt xodimning vazifalari qanday?

A. Konsentrlangan eritmalar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek farmatsevtik preparatlarni tayyorlash.

B. Buxgalteriya hisobi va hisobot ishlarini olib borish.

C. Dorilarni qadoqlash.

D. Dori vositalarini guruhlarga ajratish.

3. Zaxira bo'limida ishlaydigan qadoqlovchining majburiyatlarini nimalardan iborat?

A. Tovarlar qabul qilishda, ularni taqsimlash va boshqalar bilan bo'lishish.

B. Mahsulotni qabul qilish.

C. Tovarlarini taqsimlash.

D. Dori-darmonlarning sifatini nazorat qilish.

4. Qaysi jurnalda zaxira bo'limida bajarilgan ishlar qayd etiladi?

A. Laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish daftarida.

B. Qabul qilish sertifikatida.

C. Fakturada.

D. Talabnomada.

5. Qanday hujjatda laboratoriya va qadoqlash ishlarini belgilash va baholash ishlari aks ettiriladi?

A. Laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish daftarida.

B. Qabul qilish dalolatnomasida.

C. Fakturada.

D. Talabnomada.

6. Qanday ma'lumotlar talabnomada aks ettiriladi?

A. Dori vositalarining nomi, o'lchov birligi, kerakli va tarqatiladigan miqdori.

B. Retsept haqida ma'lumot.

- C. Shifokorlar uchun ma'lumot.
- D. Bosh tashkilotning nomi.

7. Tovar transport yuk xatida qanday ma'lumotlar aks ettiriladi?

- A. Dori vositalarining shifrlanishi, seriyasi, amal qilish muddati, saqlash narxi.
- B. Retsept raqami.
- C. Talabnoma raqami.
- D. Sana.

8. Dori vositalarini qabul qilish haqidagi hisobotda qanday ma'lumotlar aks ettiriladi?

- A. Dori vositalarining saqlash muddati, o'lchov birligi, omborlar, dori-darmonlarning asosiy narxi.
- B. Preparatning tarkibi.
- C. Preparatni qo'llash.
- D. Preparatning xususiyatlari.

9. Talabnoma necha nusxada to'ldiriladi?

- A. Ikki nusxada
- B. To'rt nusxada
- C. Uch nusxada
- D. Bitta nusxada

10. Talabnomaning birinchi nusxasi qanday hujjatga ilova qilinadi?

- A. Tovar hisobotiga
- B. Qabul qilish aktiga
- C. Laboratoriya va qadoqlash ishlarini hisobga olish daftariga
- D. Schyot-fakturaga

11. Qanday hujjatda etil spirti, giyohvand dori vositalari va zaharli moddalar iste'moli olib boriladi?

- A. Miqdoriy hisobda turuvchi dori vositalarini hisobga olish daftarida, giyohvandlik va zaharli moddalarni hisobga olish daftarida

- B. Talabnomada
- C. Qabul qilish daftarida
- D. Hisob varaqasida

12. Dorixonada etil spirti, giyohvand moddalar va zaharli moddalarni qabul qilish hisobini kim olib boradi?

- A. Filial direktori
- B. Qadoqlovchi
- C. Farmatsevt
- D. Sanitar-yuvuvchi

13. Dorixona omboridan tovarlar olish uchun qanday hujjat talab qilinadi va necha nusxada?

- A. Buyurtma, talabnoma 2 nusxada
- B. Tovar buyurtmasi, 1 nusxada
- C. Talabnoma, 3 nusxada
- D. Hisobot, 4 nusxada

QISQARTMALAR

BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti

JSST – jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti

DPM – davolash-profilaktika muassasasi

OIV/OITS- orttirilgan immun virusi/orttirilgan immun tanqislik sindromi

MHD – mustaqil hamdo‘stlik davlatlari

OTC – over the counten drugs

ATS – anatomical therapeutic chemical classification system

G L O O S S A R Y

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Rus tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Dorixona	Sog'liqni saqlash tizimining ajralmas tarkibiy qismidagi tibbiyot muassasasi bo'lib, u aholini, DPM larni va boshqa tashkilotlarni uzluksiz ravishda dori vositalari va boshqa tibbiy buyumlar bilan ta'minlaydigan muassasa	Аптека – это медицинское учреждение, которое обеспечивает население лекарственными средствами и изделиями медицинского назначения	Pharmacy. Pharmacy is the science and technique of preparing and dispensing drugs. It is a health profession that links health sciences and aims to ensure the safe and effective use of pharmaceutical drugs.
Litsenziya	Dorixona ochish hamda tegishli farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish uchun takrorlanmas tartib raqamiga ega bo'lgan maxsus hujjat	Лицензия – это документ разрешающий осуществлять фармацевтическую деятельность	License.Revocable written or implied agreement by an authority or proprietor not to assert his or her right to prevent another party from engaging in certain activity that is normally forbidden.
OTC-vositalar	Retseptsiz sotiladigan vositalarga qo'yiladigan asosiy talablar dunyo bo'yicha qabul qilingan atama	Основные требования лекарственных средств, которые отпускаются без рецепта врача	OTC drugs. Over the counter medicines are drugs you can buy without a prescription.
Retsept	shifokorning farmatsevtga bo'lgan yozma murojaati aks ettirilgan, tibbiy, yuridik, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy funksiyalariga ega bo'lgan hujjat.	Письменное обращение врача к фармацевту	Prescription. A prescription (representing the Latin imperative verb, resipe-take) is a health-care program implemented by a physician or other qualified health care practitioner in the form of instructions that govern the plan of care for an individual patient.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'RQ-399-son. 4.01.2016-y. «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida.

2. O'RQ-813-son. 19.08.1999-y. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida.

3. O'RQ-774-son. 01.06.2022-y. "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 19-moddasiga qo'shimcha va o'zgartish kiritish haqida.

4. O'RQ-701-son. 14.07.2021-y. Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida.

5. O'RQ-721-son. 12.10.2021-y. «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida.

6. 7. PF-6044-son farmoni. 2020-yil 24-avgustdagi "Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida".

8. PF-5707-son. 10.04.19-yil. 2019–2021-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida

9. PF-55-son. 21.01.22-y. 2022–2026-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.

10. PF-156-son. 6.09.2023-y. Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.

10. PF-158-son. 11.09.2023-y. "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida.

11. PQ-2773-son. 14.02.17-y. Dori vositalarini va tibbiyot buyumlarini sotish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.

12. PQ-411-son. 26.10.2022-son. Aholini sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.

13. PQ-197-son. 20.06.2023-y. Ma'muriy islohotlar doirasida sog'liqni saqlash sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida.

14. VMQ-878-son. 27.10.18-y. Vazirlar Mahkamasining «Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida» 2015-yil 12-noyabrdagi 330-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish haqida.

15. VMQ-678-son 17.08.19-y O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2021-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida.

16. VMQ-818-son. 27.09.19-y. O'zbekiston Respublikasida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risida

17. VMQ-472-son. 29.10.2003-yil. O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lish tartibini belgilab beruvchi nizomlarni tasdiqlash to'g'risida.

18. VMQ-315-son. 16.07.2003-son Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lishi bilan bog'liq faoliyatni litsenziyalash to'g'risida.

19. VMQ-288-son. 26.06.2003-y. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va ularning turlari va prekursorlardan ekspertlik faoliyatida foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida.

20. VMQ-204-son. 22.07.2013-y. Shaxslarning ayrim toifalarini imtiyozli asosda dori vositalari bilan ta'minlash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.

21. VMQ-80-son. 21.02.2022-y. Faoliyatning ayrim turlarini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida.

22. VMQ-185-son. 06.04.17-y. "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.

23. VMQ-399-son 19.08.2023-y. O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida.

24. VMQ-85-son. 14.02.2020-y. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning analoglari va prekursorlarning muomalasi sohasidagi nizomlarni tasdiqlash to'g'risida.

24. VMQ-330-son. 12.11.2015-y Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida.

25. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2010-yil 18-iyun 191-sonli buyrug'i "DPMlarda dori vositalarini tayinlash hamda bemorning dori vositalarini tayinlash hamda qabul qilish, saqlash va qo'llash tartibi, shuningdek dorixona muassasalari tomonidan aholiga dori vositalarini retsept asosida berish to'g'risidagi nizom".

26. Asatov S.I., Ziyamuxamedova R.M., Zaynutdinov X.S., Saidov M.A. Retseptsiz sotiladigan dori vositalarini qo'llash bo'yicha yo'riqnomalar to'plami. 2-kitob. Toshkent. 2014-yil. 462-b.

27. Azizov I.K. O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning nazorati. Toshkent. 2011-y. 376-bet.

28. Наркевич И.А. "Управление и экономика фармации" учебник. М. "GEOTAR-Media" 2017. 923 стр.

29. Toshmuhamedov E.R. Zaynutdinov X.S., Komilov A.M., Muxamedova R.A., Juravlyova E.B., Islamova M.Z., “Farmatsevtika ishini tashkil qilish” professor Yunusxo‘jayev A.N. tahriri ostida o‘quv darslik. - T., “Fan” nashriyoti 2007.- 221-bet.

30. Umarova Sh.Z., Xidoyatova Z.Sh., Ziyayeva M.N., Islamova M.Z., Saidova M.Ya. “Farmatsevtika ishini tashkil qilish” fanidan o‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2016-y.

31. Umarova Sh.Z., “Farmatsevtika ishini tashkil qilish” darsligi. Toshkent. 2020-y. 576-bet.

32. Xidoyatova Z.Sh., Islomova M.Z., Saidova M.Ya. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv-uslubiy ko‘rsatma. I-to‘plam. Toshkent – 2009, 78-bet.

33. Xidoyatova Z.Sh., Islomova M.Z., Saipova D.T.Saidova, M.Ya. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma II-to‘plam. Toshkent – 2014, 63-bet.

SH.Z.UMAROVA, Z.SH.XIDOYATOVA,
M.T.AZIMOVA

**FARMATSEVTIKA ISHINI
TASHKIL QILISH**
o'quv qo'llanma
I qism

Texnik muharrir: D. Ashurova
Musahhih: O. Bolliyeva

Toshkent farmatsevtika institutining
Ibn Sino nomli nashriyoti
Nashr.lits. № 8606. 21.04.2022.
Bichimi 60x841/16. «Newton uz» garniturası.
Raqamli bosma usulida chop etildi.
Shartli b.t. 11,62. Hisob. b.t. 10.81.
Adadi:50.

Guvohnoma № 10-4273
Toshkent farmatsevtika instituti
“Tahririy-nashriyot bo‘limi” bosmaxonasida chop etildi. 2023.
100015, Toshkent shahar, Oybek ko‘chasi, 45.



